

**NIGORA MURODOVA  
NASIBA YARASHOVA**

## **AREAL LINGVISTIKA**

**Toshkent-2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**N.MURODOVA, N.YARASHOVA**

# **AREAL LINGVISTIKA**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi tomonidan Oliy o'quv yurtlarining  
60111400 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun darslik  
sifatida tavsiya etilgan*



**Toshkent-2023**

**УО‘К:** 811.512.133’28(075)

**КБК:** 81.2О‘zb-67

**М:** 88

**Murodova N.Q., Yarashova N.J. Areal lingvistika** [Matn]: Darslik/  
N.Murodova, N.Yarashova – Toshkent: «Factor press», 2023. – 148 b.

*Darslik oliy o‘quv yurtlarining 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari, areal lingvistika sohasiga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.*

*Darslikda areal lingvistikani tadqiq qilish muammolari o‘z aksini topgan. 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavri yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan “Areal lingvistika” namunaviy o‘quv dasturi asosida yozilgan.*

*Darslik haqidagi fikr-mulohazalar, uni mukammallashtirishga doir takliflar mammuniyat bilan qabul qilinadi.*

*Учебник предназначен для студентов направления 60111400 – бакалавриат узбекского языка и литературы высших учебных заведений, интересующихся лингвистикой ареала.*

*В учебнике отражены проблемы исследования текста. Написана на основе типовой учебной программы “Ареальная лингвистика”, предназначеннной для бакалавров узбекского языка и литературы – 60111400.*

*Отзывы об учебнике, предложения по его совершенствованию приветствуются.*

### **Taqrizchilar:**

***Aynur Özcan***

Anqara universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**K.A.Suyunov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori

**ISBN** 978-9943-9181-9-1

**© N.Q.Murodova, N.J.Yarashova**

**© «Factor press», 2023**



Tilshunos, Turkiyshunos olimlar  
Hamid Ne'matov, Aziz Jo'rayev  
xotirasiga bag'ishlandi

## SO'ZBOSHI

Areal lingvistika fani universitetlar, pedagogika institutlari bakalavr va magistraturaning o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishlarida o'qitiladi. Ushbu darslikda areal lingvistikating nazariy asoslari aks ettirilgan.

Bugungi globallashuv davrda o'zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyotga ega bo'lgan turmush tarzi, urf-odatlari, marosimlari bilan bog'liq bo'lgan tilini o'rghanish, tadqiq qilish, xaritalashtirish areal lingvistikating muhim muammolaridan biridir.

O'zbek tilshunosligida hozirgi kunda tadqiq etilayotgan ilmiy ishlardan xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek xalq shevalarida adabiy tilda ishlatilmaydigan juda ko'plab so'zlar saqlanib kelayotganining guvohi bo'lamiz. Xalq tilidagi bunday o'ziga xos lisoniy xususiyatlarni areal yo'nalishda ularning hududiy tarqalishini o'rghanish zarur. Sababi o'zbek shevalari areal yo'nalishda o'rGANilib, "O'zbek tilining dialektologik atlasi" yaratilmagan. Bunday atlas O'zbekiston hududida yaratilsa, u O'zbekistonimizning lisoniy manzarasini yorqin aks ettirish bilan birga o'zbek xalqi hayoti va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan minglab so'zlarni adabiy tilga olib kirishga manba bo'la oladi. Shuningdek, shunday so'z va hodisalarning tarqalishini umummilliylar boylik darajasida xalqqa etkazish haqida aniq ma'lumot beradi hamda ko'p tomli o'zbek tilining izohli lug'atlarini yaratish uchun boy manba bo'lib xizmat qiladi. Chunki o'zbek tili bunday imkoniyatlarga ega bo'lib, asrlar osha shakllanib, taraqqiy etib keldi. Ajdodlarimiz zakovati tufayli tilimizning noyob javohirlardan iborat so'z xazinasiga nodir durlar – so'zlar qo'shilib, uning badiiy nafosati va imkoniyatlarini beqiyos darajada oshirdi. O'zbek tilining boy va nafis leksik qatlamini, uning betakror va sir-asrорlarga to'la badiiy mo'jizalar yaratadigan qudratli lisoniy manbalarini bugungi kunda o'rGANISHIMIZ lozim. Hozirgacha dialektologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy

tadqiqotlar, ma'lum bir hududda yaratilgan lingvistik xaritalar, til va shevalarni areal o'rganish areal lingvistika paradigmafiga asoslangan lingvistik atlaslar yaratish uchun asosiy manba bo'la oladi.

O'zbek tili dialektlari bo'yicha to'plangan faktik materiallar oliy o'quv yurtlari, o'rta maktab, litsey va kollejlar uchun yozilajak darslik hamda qo'llanmalar yaratishda qo'l keladi, shuningdek, o'zbek tilining izohli va imlo lug'atlarini tuzishda hisobga olish mumkin. Bunday sheva materiallaridan talabalar va o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirishda, adabiy til va sheva o'rtasidagi munosabatlarni qiyosiy o'rganishda foydalanish mumkin. Shuningdek, til va shevalarni areal o'rganish bo'yicha to'plangan faktik materiallar Respublika miqyosida va undan tashqarida o'tkaziladigan konferensiyalar, seminarlarda ma'ruzalar o'qish, universitet, institut, akademik litsey, maktablarda o'zbek adabiy tili va shevalar, o'zbek tilining tarixiy ildizlari, o'zbek shevalarining hududi tarqalishi kabi mavzularda suhbatlar o'tkazishga imkon beradi. Shuningdek, talabalarning o'zbek tili qadimiy tillardan biri ekanligini bilishlariga ko'maklashadi.

Areal lingvistikaning lisoniy-jug'rofiy yo'nalishida til va shevalarni ilmiy tadqiq qilish o'zbek tili va turkiy tillar tarixi hamda o'zbek shevalari haqida qimmatli ilmiy-nazariy xulosalar berishiga shubha yo'q. Areal lingvistika tadqiq materiali, usullari "O'zbek dialektologiyasi", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Turkiy filologiyaga kirish", "O'zbek tili tarixi" kabi o'quv fanlari bilan aloqador bo'lib, shu fanlar mukammal o'rganilsagina, areal lingvistika fanining maqsadini anglash, mazmunini tushunish, o'zlashtirish hamda undan ilmiy-amaliy maqsadlarda foydalanish mumkin.

Areal lingvistika o'zbek tilshunosligida nisbatan yangi yo'nalish bo'lganligi va shu kungacha o'zbek shevalarining lingvistik atlasi tuzilmaganligi bu fanning ta'lim tizimida o'rganilishini dolzarb masalalardan biriga aylantirdi.

## MUQADDIMA

Fanning taraqqiyot dialektikasi hamisha ikki turdag'i usulning, ya'ni o'rghanish va talqin etishning emperik-tavsifiy va tizimning talqini bosqichlarning bir-biriga tayanishi va bir-birini to'ldirishi asosida sodir bo'ladi. Bu fan inkishofi dialektikasining umumiyligini qonuni bo'lib, o'zbek tilshunosligi ham undan chetga chiqolmaydi. Fanimizning taraqqiyot xususiyatlariga e'tibor bersak, o'zbek tilshunosligida, jumladan, dialektologiyasida ham yuqorida sanab o'tilgan bosqichlar dialektikasining in'ikosini ko'ramiz.

O'zbek dialekti o'zbek milliy tilining tarkibiy qismi bo'lib, o'zining qadimiylisi oniyligi hodisa ekanligi, asrlar davomida rivojlanib, boyib hamda takomillashib borganligi bilan xarakterlanadi. Xalq sheva va dialektlari o'zida tilning o'ta ko'hna holatini, lug'aviy, grammatik xususiyatlarini saqlab kelayotgan noyob manbadir. Ushbu boylikni o'rghanish bo'yicha 50–60-yillarda o'zbek dialektologiyasi mintaqaviy, hududiy sheva xususiyatlarining tavsifi, hodisalar tabiatini va vokalizatsiyasi masalalariga asosiy e'tiborni qaratib, akademiklar Viktor Vasilevich Reshetov, Shonazar Shoabdurahmonov, professorlar Ulug' Tursunov, Fattoh Abdullayev, Sobirjon Ibrohimov, Mustaqim Mirzayev, A'zam Shermatov, Xudoyberdi Doniyorov, Nazar Rajabov kabi mumtozlarimizning, ularning ko'p sonli shogirdlari, izdoshlari shijoati, mashaqqatli mehnati samarasi o'laroq, o'zbek hududiy shevalarining mukammal tavsifi yaratildi. 1960–1970-yillarda avj olgan dialektologik tadqiqotlarning 1980–1990-yillarda birmuncha so'nishi fanimizda taraqqiyotning bir dialektik bosqichi-emperik-tavsifiy ishlarning ma'lum darajada o'zining yuqori taraqqiyot cho'qqisiga etganligi, yangi tahlil usullariga o'tishi taraqqiyotni ta'minlash bilan bog'liqidir. Dialektologik tadqiqning emperik-tavsifiy bosqichidan navbatdagi pog'onasi: qiyosiy-tarixiy, dialektologik talqin, lingvo-geografik yoki arealogik-kartografik tavsifiga o'tishdir. Shuni alohida aytish mumkinki, dialektologiya, lingvistik geografiya, arealogiyaning davomi sifatida yuzaga kelgan areal lingvistika sohasi til hodisalarining tarqalish hududlarini, bu hodisalarning o'zaro munosabati va tilga ta'sirini lingvogeografik, lingvoareal metodlari asosida o'rghanish bilan shug'ullanadi. Umuman, har qanday

dialektologik ish ham ayni zamonda lisoniy jug‘rofiydir. Shu bois 1950–1980-yillardagi barcha dialektologik tavsiflar jug‘rofiylikdan holi emas. Shu bois ham hozirgi kungacha dialektologiya sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, bu soha bo‘yicha to‘plangan faktik materiallar yuqorida ta’kidlanganidek, “O‘zbek tilining dialektologik atlasi”ni yaratilishi uchun manba vazifasini o‘taydi. Bu atlas yaratilsa, “Turkiy tillarning dialektologik atlasi”dagi bo‘shliqni to‘ldirilishiga asos bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Tilshunoslikda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda til tizimini yangi usullar bilan o‘rganish borasida jahon lingvistikasi sohasidagi yangi yutuqlarga tayangan holda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda o‘zbek tili boy manba bo‘lgan xalq tilining imkoniyatlari bilan boyib, uning zaminida taraqqiy etib boraverar ekan, xalq tilini har tomonlama o‘rganish zaruratdir.

Bizga ma’lumki, xalq tarixining tadrijiy taraqqiyoti uning tiliga ham ta’sir etadi. Chunki tildagi o‘zgarish va rivojlanishlar xalqning tarixi, turmush tarzi, urfodat va marosimlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga aloqador bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyoti – undagi o‘zgarishlar dastavval, til boyligining eng asosiy, eng mukammal va eng harakatchan qismi bo‘lgan so‘zlarda qayd etiladi. Ma’lumki, har bir xalq tilining o‘z lug‘at boyligi – so‘z xazinasi bor. Tilning lug‘at tarkibi esa xalqning tarixiy taraqqiyotiga bog‘liq holda o‘zgarib, boyib boradi. Ba’zi bir eskirgan so‘zlar nutqiy muomaladan chiqib ketsa, yangi so‘zlarning yasalishi va kirib kelishi bilan til muttasil boyiydi. Mavjud so‘zlarning ma’nolari o‘zgaradi, tobora kengaytiriladi va to‘ldiriladi. Ammo tilning asosiy lug‘at jamg‘armasi esa lug‘at tizimining negizi sifatida asrlar bo‘yi saqlanadi.

Ma’lumki, har bir tilning o‘rganish darjasи, uning ichki qonuniyatlarini bilish, tilning shevalarini tavsiflash, ularda saqlanib kelayotgan til boyliklarini aniqlash, shevalar va adabiy til orasidagi aloqalarni o‘rganish bilan uzviy bog‘liqdir. Shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek shevalari o‘zbek milliy tilining bir tarmog‘i bo‘lishi bilan birga adabiy til va barcha o‘zbek shevalariga xos bo‘lgan umumiy leksik qatlamga ham ega. Shuningdek, o‘zbek shevalarida yana o‘ziga xos leksik guruhlar ham borki, ular shu sheva vakillarining moddiy hayot sharoitlari,

shu sheva joylashgan hududning iqtisodiy rivoji bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, hayotdagi barcha narsalar, yangidan vujudga kelgan, paydo bo‘lgan har qanday voqeа-hodisalar eng avvalo tilning leksikasida o‘z ifodasini topadi. Shu bois ham leksika tilning boshqa sathlariga qaraganda murakkab va ko‘p qirralidir. Uning vazifasi, bir tomondan, jamiyat yashayotgan borliqni barcha murakkabliklari bilan in’ikos etish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, unda tilning leksik-semantik, uslubiy, so‘z yasash va shu kabi bir qator murakkab lisoniy hodisalari, ularning o‘zaro munosabatlari o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ham o‘zbek shevalari leksikasi keng o‘rganilgan va juda ko‘plab tadqiqotlar yuzaga kelgan.

O‘zbek tilining leksik normasini belgilashda har jihatdan biror shevaga asoslanib bo‘lmaydi. Chunki bir shevada mavjud bo‘lgan xalqlarning turmush sharoiti bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atamalar boshqa shevada bo‘lmasligi yoki boshqa so‘z bilan ifodalanishi mumkin. Bunday so‘z va atamalar qaysi o‘zbek shevasiga taalluqli bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zbek tili ulardan foydalanadi. Xuddi shuningdek, o‘z shakllanishiga, taraqqiyotiga ega bo‘lgan boshqa turkiy tillarning ham o‘ziga xos lug‘at jamg‘armasi, lug‘at fondi bor.

Til va shevalarni areal o‘rganish tilning rivojlanish tarixini, unga tayanch bo‘lgan dialekt va shevalarning tarixiy ildizlari, ularning taraqqiyot yo‘llarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu xususiyatlar o‘zbek shevalari uchun ham tegishli bo‘lib, lug‘at tarkibida ko‘p sonli dialektal belgilarning mavjudligi bilan boshqa shevalardan farqlanib turadi. Bu o‘zbek shevalarining lug‘at jamg‘armasida qadimiy turkiy til lisoniy birliklarining saqlanganligidan dalolat beradi. Bunday faktik materiallar o‘zbek shevashunosligi, o‘zbek tili tarixi uchungina emas, balki umumturkiy tillar dialektologiyasining dolzarb nazariy masalalarini hal qilish uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligi, shubhasizdir.

Hozirga qadar tilshunoslik sohasida bajarilgan tadqiqotlarda o‘zbek tili ham tarixiy shakllanishiga ega turkiy tillardan biri ekanligi qadimgi boy manbalar asosida tarixiy-qiyosiy yo‘nalishda urug‘-qabila nomlari bilan bog‘lab o‘rganib kelingan. Shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi hududlarda qo‘ng‘irot, kenagas, mang‘it, toma, qipchoq, meton, burqut, xitoy, xo‘ja, bahrin,

qora mang‘itlar, qalmoq, misit, said, bek, eshon, qutchi, qirg‘iz, esaru, qoraqalpoq, esavoy, galavur, mo‘g‘ul, g‘ulombor, movri, qoracha, g‘ulon, mahsim, jaloir, nayman, arg‘un, turkman, kapa, taxchi, g‘ulom, aymoq, eroni, qorluq, kal, qalmoq kabi urug‘ va qabila nomlari saqlanib kelinayotganligi ko‘plab tadqiqotlarning faktik materiallar tahlilida qayd etilgan. Bu urug‘ va qabila nomlarining ko‘pchiligi hozirgi kunda qoraqalpoq, qozoq, tatar, no‘g‘ay, qirg‘iz, boshqird, turkman va boshqa turkiy xalqlarda ham uchraydi. Chunki tarixiy manbalarda qayd etilishicha, ko‘pgina turkiy xalqlarning tashkil topishida ham bu urug‘ qabilalarning ishtirok etgani ma’lum. Shu sababli ham turkiy tillardagi o‘xshashlikning muayyan sabablari bor, ya’ni turkiy tillarning aslida bir manbaga, bir genetik asosga ega ekanidan, ularning lug‘at jamg‘armasi qadimda yagona bo‘lganligidandir. Aslida ham shunday. Bu turkiy xalqlarning qariyb barchasi o‘zaro qondosh-qarindosh etnik guruhlar majmuasidan iborat ekanligidandir. Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbek tilida so‘zlovchi aholi o‘tmishda turkiy qabilalar, qavmlar, elatlar bilan birga boshqa etnik guruhlar bilan ham yaqin munosabatda bo‘lgan. Turli iqtisodiy va madaniy aloqalar bir hududda qo‘shti yoki ba’zan aralash holda yashash jarayonining sodir bo‘lishi o‘zbek shevalarining turli tuman bo‘lishiga olib keldi. Hatto, tilning fonetik strukturasida ham o‘zgarishlar bo‘ldi. Shuningdek, bu tillardan so‘zlar o‘zlashdi. O‘zbek shevalarining fonetik qurilishida turkiy tillarga xos bo‘lmagan bir qator belgilar yuzaga keldiki, bunday xususiyatlar uni boshqa turkiy tillardan farqlanishiga olib keldi. Lekin kuchli farqlanish asosan, markaziy o‘zbek shevalariga xos bo‘lib, o‘zbek tilining qipchoq va o‘g‘uz shevalari umumturkiy tillarga xos bo‘lgan asosiy belgilarni saqlab qolgan. (O.Madrahimov, 1973. 15, 98)

O‘zbek xalq shevalari uzoq davom etgan (VI–XX asrlar) rivojlanish davrlarini: qadimiy turk, o‘rta turk, yangi turk davrlarini o‘z boshidan kechirgan. Bu davrlarda qadimiy asos – tilga tegishli bo‘lgan turkiy lug‘aviy sheva leksikasida yangi-yangi so‘zlar yasashga imkon yaratdi. Muayyan tarixiy davrda oltoy tillarining turk va mo‘g‘ul, tungus-manjur tillariga ajralishi boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek shevalarining asosiy lug‘at fondida qadimiy davrning lisoniy

qatlamlari – o‘zbek-mo‘g‘ul tili leksik paralellarining saqlanib qolishiga sabab bo‘ldi va bu hozirgi kunda ham amalda qo‘llanilmoqda. Hozirga qadar tilshunoslik, dialektologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardagi faktik materiallarning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili va o‘zbek shevalari lug‘at fondining negizini turkiy (o‘zbekcha) so‘zlar tashkil etadi.

Barcha til va shevalarda bo‘lgani kabi o‘zbek tili va shevalari lug‘at tarkibi ham ichki va tashqi manbalar, omillar ta’sirida rivojlanib, boyib borgan. Bu shevalar lug‘at fondi tarixning turli davrlarida ichki resursni tashkil qiluvchi turkiy tillardan oziqlangan. Shuningdek, bu shevalarga o‘z davrida fors-tojik tili va shevalari, arab tili va boshqa tillar o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra aralash (ikki tilli) shevalarda arabcha so‘zlarga nisbatan fors-tojikcha so‘zlar ko‘p ekanligi aniqlangan, lekin shunday bo‘lishiga qaramay yangi bir sheva paydo bo‘lmadi. Bu hodisani fors-tojik substrat hodisasining aralash shevalarda saqlanib qolgani bilan izohlash mumkin. O‘zbek shevalarida ichki (o‘z) va tashqi (o‘zga) omillarning ta’siri natijasida mahalliy aholi tiliga turli tillardan ehtiyoj talabiga ko‘ra ma’lum miqdorda so‘zlarning o‘zlashishiga va shevalar tarixiy etimologik lug‘aviy qatlamlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Bu sohadagi tadqiqotlar natijalari o‘zbek tili va shevalari leksik tarkibida turkiy so‘zlar qatlami, fors-tojikcha so‘zlar qatlami, arabcha so‘zlar qatlami, rus tili va boshqa G‘arbiy Yevropa tillaridan o‘tgan so‘zlar qatlami hamda mo‘g‘ulcha, xitoycha leksik paralellar mavjudligini dalillaydi. Ammo qabul qilingan so‘zlarga qaraganda tilning asosiy leksik qatlamini umumturkiy so‘zlar tashkil etadi.

Hozirgi o‘zbek lahja tarixi yozma yodgorliklar tilida saqlanmagan va bizgacha etib kelmagan ko‘pgina so‘z hamda lug‘aviy shakllarni o‘zida saqlagan. Xalq biror so‘zni shunchaki aytmaydi. Bu so‘z zamirida necha-necha avlodlarning hayotiy tajribasi mohiyati jamlanadi. Shu sababli O‘rxun-Enasoy, Kultegin, Bilga xoqon yozma yodgorliklari, shuningdek, M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘zbek tili va uning shevalarini tadqiq qilishda o‘rni kattadir. Shu bois ham bunday yozma manbalar bilan xalq

tilini qiyosiy o‘rganish zarur deb o‘ylaymiz. Bular o‘zbek tili uchun juda nodir meros bo‘lib xizmat qiladi. Bunday merosni o‘rganish bugungi kun o‘zbek tilshunosligining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Umumxalq tilini tadqiq qilish shu tilda so‘zlashuvchi etnos tarixini o‘rganishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Chunki tildagi o‘zgarish va rivojlanishlar xalqning turmush tarzi, urfodatlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga aloqador bo‘ladi. Shu bois ham til va shevalarni qiyosiy-areal yondashuv orqali o‘rganish davomida lisoniy hodisalar tarqalgan hudud tarixining ham o‘z o‘rni bor. Shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek tili massivini tashkil etgan o‘lkamiz asrlar mobaynida Markaziy Osiyoning yirik ma’rifat va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan, unda savdo-sotiq, madaniy aloqalar rivojlangan. Mamlakatimiz hududida qad roslagan Samarqand, Buxoro, Xorazm, Karmana singari qadimiy va ko‘hna shaharlari bor. Albatta, bu qadimiy joylarning tarixini, madaniyatini, tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj har qachongidan ham muhimroq. Bu esa til va shevalarni hududiy o‘rganish bilan bog‘liq masaladir. Agar ular hozir o‘rganilmas ekan, ma’lum bir davr o‘tishi bilan yo‘qola boradi. Shu sababli ham bunday noyob ma’naviy merosimizni o‘rganish va shular asosida o‘zbek tili massivini areal o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Hozirgi o‘zbek tilining shakllanib, takomillashib borishi yuqorida ta’kidlanganidek, uzoq tarixning mahsuli bo‘lib, davrlar osha o‘zining rivojlanish jarayonida juda murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. O‘zbek tili taraqqiyotiga shevalarga xos nutqiy vositalarining ta’siri har bir davrlarda turlicha bo‘lgan. Shuni aytish mumkinki, shevalar umumxalq tilining asosi va muhim manbayi bo‘lib xizmat qilgan. Buning ahamiyatli tomoni shundaki, o‘zbek xalq shevalari bo‘yicha tuzilayotgan lisoniy xaritalari tadqiq etilayotgan shevalar lug‘aviy birliklar funksional belgilarining tarqalish areallarini aniqlashga, shevalararo hududiy farqlarni belgilashga, shuningdek, tilning boshqa tillar bilan munosabatini, ichki tasnifini berishga xizmat qiladi. Yana bir muhim tomoni borki, ular o‘zbek tilining lug‘aviy me’yorlarini belgilash, turli sohalarning ilmiy terminologiyasini tartibga solib, tilning imloviy va orfoepik qoidalarini takomillashtirish kabi masalalarni hal

etishda yordam beradi. Shuningdek, o‘rganilayotgan hudud etnografiyasini o‘rganishda, o‘zbek dialektologiyasi, o‘zbek tili va turkiy tillar tarixini o‘rganish uchun qimmatli ilmiy-nazariy xulosalar berishiga shubha yo‘q.

Bugungi kunda dialektologiya, lingvistik geografiya, arealogiya sohasida amalga oshirilgan juda katta ilmiy tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikning lingvoareal paragdimasi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

## Ushbu darslikda qo'llanilgan transkripsiya

Unli tovushlarni ifodalash uchun foydalanilgan transkripsion belgilar:

**a** – umumturkiy orqa qator, quyi-keng, lablanmagan, singarmonizmni saqlagan barcha o‘zbek shevalariga xos unli.

**ə** – old qator, quyi-keng, lablanmagan unli tovush, o‘zbek shevalarining ko‘pchiligida mavjud. Bu unli turkiy tillarning deyarli barchasida qo’llaniladi.

**ɔ** – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unli tovush, bu tovush o-lovchi o‘zbek shevalarida keng tarqalgan.

**ye** – old qator, o‘rta-keng, lablanmagan unli tovush bo‘lib, o‘zbek shevalarining barchasida mavjud.

**e** – old qator, lablanmagan ochiq e unlisi, qipchoq shevalarida qo’llaniladi.

**ɛ** – old qator, o‘rta-keng, lablanmagan e unlisining ochiq varianti. ə va e unlilari o‘rtasida talaffuz qilinadi.

**i** – old qator, tor, lablanmagan i unli tovush bo‘lib, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi. Barcha o‘zbek shevalarida mavjud.

**ı** – oraliq qator, tor, lablanmagan, singarmonizmli shevalarda qo’llaniladi

**‘** – indifferent orqa qator, oldingi qator **i** va orqa qator **ı** unlilari orasidagi tor unli, lablanmagan, shahar va shahar tipidagi shevalarda mustaqil unli sifatida uchraydi.

**ı** – orqa qator, lablanmagan indifferent unlisi, qisqa talaffuz qilinadi, **ı** tovushiga teng emas. Shevalarda chuqur til orqa **q**, **g‘**, **x** tovushlari bilan yondosh kelganda uchraydi.

**y** – old qator, yuqori-tor, lablangan unli bo‘lib, singarmonistik shevalarda qo’llaniladi.

**u** – old qator, tor, lablangan unli: Barcha o‘zbek shevalarida uchraydi o – orqa qator, lablangan turkiy o unlisi. Singarmonizmli shevalarda qo’llaniladi.

**ø** – fonemasi-lablangan til oldi unli, turkiy (ə) unlisidir. Turkiy tillarda øunlisi alohida fonema sifatida qo’llaniladi.

**o‘** – yarim keng, lablangan unli tovush. **o‘** umumturkcha old qator e bilan orqa qator o tovushlariga nisbatan oraliq tovush bo‘lib, e va o unlilarining konvergensiysi (**e X o=o‘**) natijasida paydo bo‘lgan.

Undosh tovushlarni ifodalash uchun foydalanilgan transkripsion belgilar **ñ** (**ng**) – fonemasi til orqa, burun, sonor undoshi. Bu undosh so‘zning o‘rtasida va oxirida keladi:

**ñ** undoshi qo‘srimcha tovush (g yoki k) bilan aytildigan qorishiq undoshdir. So‘z o‘zak-negizining oxiri [ñ] fonemasi bilan tugaganda -ga, -gan qo‘srimchalari qo‘silsa, takrorlanuvchi [ññ] fonemasi talaffuz etiladi: senga – сəнгə, bo‘lingan – bol’ññən. **ñ** fonemasi shart-istik fe’li ko‘rsatkichi va egalik qo‘srimchalari bilan kelganda ba’zan [y] bilan almashadi. əlsəññ’z~əlsəy’z (olsangiz), əysəññ’z (aytsangiz) kabi.

**dj** – afrikat (qorishiq) undosh. O‘zbek shevalarining barchasida [dj] affrikati mavjud. Bu qipchoq shevalarida ko‘proq qo‘llaniladi. Bu [dj] undosh fonemasining tarkibidagi elementlari d+j alohida emas, u bir tovush kabi talaffuz etiladi.

## Diakritik belgilar

- > **belgisi** – o‘tish hodisasini ko‘rsatadi.
  - > **belgisi** – o‘zgarish hodisasini ko‘rsatadi.
  - ~ **belgisi** – moslikni bildiradi.
- [ ] – **o‘rta qavs** – umumiylar matndan transkripsiya qilingan so‘zlarni ajratib ko‘rsatish uchun ishlataladi.
- ... (**ko‘p nuqta**) – so‘z birikmasi yoki gap umumiylar matndan ajratib olinganda qo‘llaniladi.
- // **belgisi** – tovushlarning almashinishi va ikki faktning parallel qo‘llanishini ko‘rsatadi.
- : (**ikki nuqta**) – cho‘ziqlikni bildiradi.
- X belgisi** – konvergensiya (birlashish) hodisasini ko‘rsatish uchun tovushlar orasiga qo‘yiladi.

## 1-§. AREAL LINGVISTIKANING MAQSAD VA VAZIFALARI

---

### Reja:

- 1.1. Fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va o‘rganish usullari.
- 1.2. “Areal lingvistika”ning fan sifatida OTMlarda o‘qitilishi zaruriyati.
- 1.3. Uning dialektologiya, geografiya va areologiya fanlarini umumlashtirish xususiyatlari.
- 1.4. “Areal lingvistika” fani bo‘yicha amalga oshiriladigan o‘quv vazifalari.

**Tayanch tushunchalar:** *Areal lingvistika, areal, maydon, hudud, tillar ittifoqi, shevalar, dialektologiya, lingvistik geografiya.*

**Areal lingvistika** lisoniy hodisalarning ma’lum hududlarda tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni o‘rganuvchi fandir. Ma’lumki, “Areal” atamasi lotincha “area” so‘zidan olingan bo‘lib, “maydon, hudud” degan ma’nolarni bildiradi.

Areal lingvistika muayyan hududlarda tarqalgan til xususiyatlarini umumlashtirib, areal umumiylig – tillar ittifoqi, shevalar izoglossalarini aniqlash va ularni xaritalashtirish ishlarini amalga oshiradi. Shuni aytish lozimki, areal lingvistika lingvogeografik metodlar orqali ma’lum hududda tarqalgan til hodisalarini aniqlaydi, hududiy til xususiyatlarini xalq tarixi, til tarixi bilan aloqador holda qiyoslab, ularning o‘rni, tarqalish chegarasini xaritalar orqali ko‘rsatadi. Areal lingvistika lingvistik makonning hududiy differensiatsiya tuzilishi haqidagi bilimlarni nazarda tutadi, bu esa areal tilshunoslikka xos sistematika, taksonizatsiya orqali amalga oshiriladi.

M.A.Borodina areal lingvistikani dialektologiya, lingvistik geografiya va arealogiyaning izchil rivojlanishi ekanligini va uning o‘ziga xosligi quyidagi omillar bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi: intralingvistik-sinxrolingvistik va diaxroniyadagi strukturaviy xususiyatlar, turli til darajalarining me’yorlashuv darjasи; tashqi lingvistik – milliy til va uning funksional-stilistik va hududiy variantlari (dialektlar, shevalar) nisbati, ularning lisoniy holati; areal lingvistika o‘zining kartografik ko‘rinishida ma’lum bir lingvistik vaziyatni modellashtiradi.

Lingvistik geografiya dialektologiya va arealogiya o‘rtasida bo‘g‘in vazifasini bajaradi, ammo undan uning maxsus o‘rganish predmeti mavjudligini olib tashlab bo‘lmasligini, xaritalash izoglossalarni berishda hududiylikka olib kelishi, shuning uchun ham maydon va izoglosssa areal lingvistikaning ikkita asosiy tushunchasi ekanligi to‘g‘risidagi fikrlari o‘rinlidir. (Borodina, 1980. 7-9). Olim tomonidan ilgari surilgan areal lingvistikaning sintetik konsepsiysi avvalgi konsepsiyalardan areal bilimlarning evolyutsion taraqqiyotini hisobga olinganligi bilan farqlanadi. Borodinaning konsepsiysi N.Gadjiyeva, O.N.Moroxovskaya kabi bir qator tadqiqotchilar tomonidan qo‘llab quvvatlangan.

Areal lingvistika o‘zaro munosabatga kirishgan tillarni, shuningdek, sheva va lahjalarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning alohida sohasi ekanligi bilan xarakterlanadi. A.Jo‘rayev ta’kidlaganlaridek, areal tilshunoslik lingvistik makonni, uning tuzilishi, shakllanish xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi, shuningdek, tillar va dialektlarning o‘ziga xos (real) tasnifini tuzadigan tilshunoslikning mustaqil tarmog‘idir. Areal tilshunoslik dialektologiya, lingvistik geografiya va areologiyaning elementlarini birlashtiradi, ularning har biri lingvistik makonni o‘rganib, o‘z obyektini lingvistik makonga xos bo‘lgan cheksiz to‘plamidan o‘ziga xos va cheklangan belgilar ro‘yxatiga muvofiq belgilaydi. Ushbu fanlarning atama va tushunchalari bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, o‘ziga xos galaktikani tashkil qiladi (A.Jo‘rayev, 1991. 4).

Areal lingvistikada til va shevalarni lingvogeografik usulda o‘rganish qator dolzarb masalalarini hal etishga yordam beradi. Shuni aytish lozimki, lisoniy birliklarning tarqalish hududini tadqiq etish tillarning o‘zaro aloqasini ochib berishga, til hodisalarining tarixini, ularning taraqqiyot bosqichlarini belgilashga yordam beradi. Shu bois o‘zbek tilshunoslida, jumladan, turkiyshunoslida til va shevalarni o‘rganishdagi an‘anaviy tadqiqot paradigmasini yangi lingvoareal paradigmaga o‘tishi yangi tadqiqot paradigmasi markaziga makon va zamon g‘oyalarini o‘tkazish zaruratini yuzaga keltirdi. Har qanday ilmiy yo‘nalish uchun nazariy zamin qo‘yishda, asosiy tarkibiy qism sifatida refleksivlik, ya’ni Yudin ta’kidlaganidek, bilimlarda o‘z mezonlarini tanqidiy tahlil qilish va u qurilayotgan

asosni chuqurlashtirish impulsining mavjudligi bo‘ladi (Yudin.1986,196). Shuning uchun ham yangi lingvoareal paragdigmani rivojlantirishda til va shevalarni o‘rganishdagi an’anaviy paradigma asosiy manba vazifasini o‘taydi.

Areal lingvistika fanining maqsadi ham quyidagilarni e’tiborga olish lozimligini belgilaydi: Til hodisalarining taraqqiyot darajasini ochib berish uchun, birinchidan, shu sheva vakillarining tarixi orasidagi mavjud aloqani hisobga olish zarur. Ikkinchidan, shevalar voqeligining hozirgi chegaralarini to‘g‘ri talqin etish uchun bu chegaralar taraqqiyotning barcha bosib o‘tgan yo‘li, natijasi faqat qadimda emas, balki keyingi davrlarda ham yuz bergan lisoniy jarayonlarning natijasi ekanligini o‘rganish lozim. Uchinchidan, shevadagi leksik-semantik farqlar, makon va zamondagi lisoniy o‘zgarishlar lisoniy omillarning murakkab o‘zaro aloqasining natijasi ekanligini, aloqalarning susayishi va lisoniy uyushmalarning nisbatan ajralib qolishi, fizik-jug‘rofik to‘siqlar, hududlarni ma’muriy chegaralash va boshqalar sheva farqlarining vujudga kelishidagi muhim sabablardan biri ekanligini unutmaslik kerak. Areal lingvistika shunday maqsadlarga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilab oladi:

- areal lingvistikaning asosiy vazifasi til xususiyatlarini hududiy bo‘linishini tavsiflash va izoglossalarni talqin qilish;
- dialektlar, tillar va til itifoqlari o‘rtasidagi areallarini aniqlash;
- lisoniy hodisalarning qaerda shakllanganligi, vujudga kelganligini va uning tarqalish yo‘llarini xaritalar orqali ko‘rsatish;
- til va dialektlarning o‘zaro aloqalaridagi umumlashmalarining qismlarga ajratilishi bo‘yicha tarixiy jihatdan o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash;
- areal tipologiya qonuniyatlarini ishlab chiqish.

Lingvistik makondagi differensiatsiyani va integratsiyani ifodalovchi ekstensional va intensional taksonlarga taalluqli region, til ittifoqi, til massivi, dialekt zonasasi, izoglossalar kabi tushunchalarni izohlash.

Til birligini o‘rganish ham areal lingvistikaning vazifalariga kiradi. Til birligi bir tilning shevalarida ham, turdosh va aloqador bo‘lmagan geografik qo‘shti tillarda so‘zlashuvchi tillarning orttirilgan tarkibiy o‘xhashligini bildiradi

va u chambarchas bog‘liq bo‘lishi shart emas. Sababi til birligi tillar o‘rtasida yagona emas.

Ma’lum bir mintaqadagi o‘zaro ta’sir qiluvchi tillar va dialektlarning hududiy o‘ziga xosliklari, areal tipologiya tamoyillarini yaratish, toponimik sohalarini aniqlash ham areal lingvistikaning vazifalaridan biridir.

Areal tilshunoslik vazifalariga, shuningdek, hududiy qo‘shni tillarda lingvistik aralashuv va lingvistik jalb qilish, etnolingvistik va sotsiolingvistik tipologiya muammolari kiradi. Ikki tillilik va ko‘p tillilik muammolari, hamda xalqlarning etnografiyasi, joylashishi va madaniyatining tarqalishi masalalarini o‘rganishda ham areal tilshunoslikning metodlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma’lum bir mintaqadagi o‘zaro ta’sir qiluvchi tillar va dialektlarning areal xususiyatlari; til aloqalarining namunalarini ochib berish; areal tipologiyasi tamoyillarini ishlab chiqish; lingvistik kontaktologiya va til birlashmalari nazariyasini yaratish; toponimik areallarni aniqlash kabi masalalar bilan ham shug‘ullanadi.

Areal tilshunoslikda yaratilgan xaritalarda lingvistik hodisalarni belgilashda izoglossalar qo‘llaniladi. Lingvistik xaritalarda izoglossa belgilari orqali dialekt va tillar o‘rtasidagi munosabatlar ularning areali o‘rganiladi. Lingvistik atlaslar materiallariga asoslangan areal tadqiqotlar yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga yordam beradigan omillarni aniqlash, tovush va shakllarning rivojlanishidagi oraliq bo‘g‘inlarni ochib berish imkoniyatini beradi. Tilshunoslar ular orqali qaysi markazlarda tilshunoslik innovatsiyalari paydo bo‘lganligi, keng tarqalganligi, rivojlanishiga nima to‘sinqinlik qilganligi haqida xulosa beradi. Areal tilshunoslikning vazifasi so‘zlarning areal tarqalishi va tillarda paydo bo‘lish vaqtin o‘rtasida ma’lum munosabatlarni o‘rnatishdan iborat.

**Areal lingvistika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.** Areal lingvistika tilshunoslik fanlaridan biri bo‘lib, dialektologiya, lingvistik tipologiya, geografiya kabi fanlar bilan ham yaqin aloqada bo‘lib, ularning materiallariga asoslanadi.

Dialektologiya alohida tilning tuzilishiga, uning hududiy variantiga tavsif beradi. Shuningdek, dialektologik tadqiqotlar areal tilshunoslikning asosi sifatida xizmat qiladi va uning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda areal bilimlarning evolyutsion rivojlanishining ilmiy paradigmaсини qabul qiladigan bo‘lsak, areal tadqiqotlarning tarixiyligini hisobga olish lozim bo‘ladi. Bu jihatidan areal lingvistika tarixiy va tavsifiy dialektologiyaga tayanadi. Har qanday til va dialektlarni areal o‘rganishda ularning tarixiyligi jihatidan tarixiy dialektologiyaga tayanilsa, shevalar tarixini yoritishda ularni tavsifiy dialektologik, kontaktologik va lingvogeografik tadqiqotlarsiz talqin qilib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda aytish joizki, dialektologiyaning o‘rganish obyekti Y.Cheyembers, P.Tradgill ta’kidlaganlaridek, juda keng, dialektologiya har qanday metodologiya orqali lingvistik o‘zgaruvchanlikni o‘rganishdir. Ular dialektologiya paradigmaсида tarixiy va tavsifiy dialektologiyani ham, dialect geografiyasini ham, til birlashmalari to‘g‘risidagi ta’limotni ham ko‘rib chiqadilar. Dialektologiyaning shakllanishi tilshunoslikda kartografik tadqiqot usullarini qo‘llashning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, lingvogeografiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Lingvistik geografiyada yaratilgan dastlabki xaritalar til vositalarini tasvirlovchi sifatidagi yordamchi vosita bo‘lgan. Qachonki xaritalardagi til hodisalari sharhlay boshlangandan so‘ng lingvistik geografiya taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi.

Shuni aytish mumkinki, areal tilshunoslik lingvistik geografiya bilan ham uzviy aloqada bo‘ladi. Sababi davrlar o‘tishi bilan ma’lum bir tilda so‘zlashuvchi etnik guruhlar turli hududlarga tarqalib o‘troqlashganlar. Demak, tillarning ham tarqalish o‘rinlari mavjud, ularning tarqalish joylarini xaritalashtirish lozim. Shunday ekan, tilshunoslik bilan geografiya o‘rtasida bunday munosabat bo‘lishi tabiiy. Bunday munosabat ayniqsa, muayyan lingvistik hodisalarning tarqalish zonalarini belgilashda, lingvistik va dialektik xaritalar tuzishda yorqin namoyon bo‘ladi. Ko‘pgina til hodisalarini izohlashda geografik omillarning o‘rni bor. Sababi tillar yoki dialektlar o‘rtasidagi genetik aloqalarga tillar tarqaladigan geografik muhitning ta’siri bor. Geografik muhit (hududiy chegaralar: suv to‘sislari, tog‘lar) ko‘pincha tillar o‘rtasida aniq chegaralarni hosil qiladi.

Geografik to'siqsiz hududda o'sha hudud vakillari bir-birini yaxshi tushunadilar va o'ziga xos dialekt zanjiri kuzatiladi. Hududiy jihatdan bir-biridan uzoqroqda joylashgan hududlarda bir-birlarining shevalarini tushunish qiyinroq bo'ladi. Geografik omillar bunday o'zgarishlarning mohiyatini tushuntirishi mumkin. Masalan, lingvistik xaritalar orqali ular bir-biriga solishtirilib sharhlanganda, tilshunoslik innovatsiyalari qaysi hududlarda paydo bo'lganligi va keng areal tarqaganligi, ularning rivojlanishiga nimalar to'siq bo'layotganligi to'g'risida xulosalar chiqaradi. Albatta, bunday holda, nafaqat til hodisalarining chegaralari, balki iqtisodiy, siyosiy, etnogafik chegaralar ham hisobga olinadi. Tilshunoslik bilan geografiyaning ana shunday munosabatiga e'tibor qaratilishi natijasida lingvistik geografiya va areal lingvistika maydonga kelgan.

Areal tilshunoslik lingvistik tipologiya bilan ham bog'liq. Bu fanlarning tutashgan o'rnida til birligi tushunchasi paydo bo'lgan. Til birligi tillar o'rtasida ko'p o'xshashliklarning mavjudligini bildiradi. Masalan, bolgar, makedon, rumin, moldavan, alban va zamonaviy yunon tillarini birlashtirgan. Bolqon tillari ittifoqini aytish mumkin. Shuningdek, Volga tillar ittifoqi ham fin-ugor tillari (mariy, udmurt) va turkiy tillarni (boshqird, tatar, chuvash) o'z ichiga oladi. N.S.Sharafutdinova til birligi to'g'risida shunday fikrlarni bildirgan: odatda tillar o'zaro ta'sirining murakkab tarmog'i mavjud bo'lib, ular ba'zan bir-ikki qo'shni tillar bilan chegaralanib, ba'zan katta areallarni qamrab oladi. Shuning uchun ba'zi olimlar ko'pincha konvergent zonalar yoki til sohalari to'g'risida fikr bildirganlar. Janubiy Osiyoni, ya'ni Hindiston yarim orolini lingvistik konvergent areal sifatida o'rGANISH keng tarqagan. Bunday lisoniy hodisalar tipologik tahlil usullari bilan aniqlanadi. (N.S.Sharafutdinova, 2011. 94)

Areal lingvistikani tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida vujudga keltirgan ijtimoiy zarurat ham, areal lingvistikaning maqsadi ham til va dialektlarni hududiy o'rGANISH, lingvistik xaritalar tuzish va o'zbek tili lug'at fondini mukammal o'rGANISHdan iborat.

## **2-§. AREAL LINGVISTIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA O'RGANILISHI**

---

### **Reja:**

- 2.1. Areal lingvistikaning tayyorgarlik davri.
- 2.2. Lingvistik geografiya tilshunoslikning alohida sohasi.
- 2.3. Areal lingvistikaning yangi davri.
- 2.4. Turkiy lingvistik atlaslar.
- 2.5. O'zbek areal lingvistikasi va lingvistik geografiyası.

**Tayanch tushunchalar:** *Dialektologiya, lingvogeografiya, arealogiya, lingvoareal geografiya, sheva, lahja, dialektologik lug'at.*

Areal lingvistika tushunchasi va atamasi XX asrning 40-yillarida kiritilgan bo'lsa-da, ammo arealogik tadqiqotlar o'zining uzoq tarixiga egadir. Areal lingvistika fanining shakllanishida nemis tilshunosi I.Shmidtning nomi alohida tilga olinadi. Uning "Hind-yevropa tillarining qarindoshligi" nomli monografiyasida birinchi marta areal lingvistika haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, tilshunoslikka areal atamasi ilk marta 1943-yilda italyan olimlari M.Bartoli va Dj.Vidossi tomonidan kiritilsa-da, aslida tilshunoslikka areal tahlil elementlarini G.Shuxardt, I.Shmidt, G.Venker kabi olimlar olib kirganlar.

Dunyo tilshunosligida areal lingvistika atamasi quyidagi ta'limotlar bilan bog'lab o'rganilgan. Italian tilshunoslarining neolingvistik ta'limotlari bilan M.Bartoli, G.Bonfonte, T.Aliyeva, V.M.Jirmuniskiy, B.N.Golovin, shuningdek, lingvistik geografiya bilan Y.Koseriu, D.I.Edelman, V.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjiyeva, M.A.Borodina, til ittifoqlari ta'limoti bilan M.Emene, Yu.S.Maslov, I.Balaj, V.Vinter kabi olimlarning ilmiy izlanishlarini alohida o'rni bor. Jahon tilshunosligidagi tadqiqot natijalariga asoslanib, ko'pgina olimlar millat tilini, dialektal materiallarini lingvogeografik va lingvoareal usulda bir butun, yaxlit holda o'rganish yaxshi samara berishini o'z tajribalari orqali isbotladilar. Areal lingvistika hozirgi til hodisalarini qadimgi tarqalish yo'nalishlari bo'yicha

o‘rganuvchi soha ekanligini D.I.Edelman talqin etadi. Areal lingvistika terminini qo‘llashda boshqa qarashlar ham mavjud edi. B.A.Serebrennikov areal lingvistika atamasi o‘rniga lingvistik geografiya atamasini qo‘llash mumkinligini lozim topadi.

M.A.Borodinaning fikricha, areal lingvistika sohasi dialektologiya va lingvistik geografiyaning o‘zaro munosabati va mantiqiy davomi sifatida yuzaga kelgan. Shuningdek, olim lingvistik geografiyani lingvistik atlaslar tuzish amaliyoti sifatida ,areal lingvistikani areallar teoriyasiga (arealogiya) sifatida qarash to‘g‘ri deya ta’kidlaydi. Shuni aytish joizki, **arealogiya** (lot. are – maydon, hudud otdan yasalgan sifatning yunoncha logikos – so‘z, tushuncha, ta’lim so‘zi bilan birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z) keng tushunchaga ega bo‘lib, ma’lum bir hududda ma’lum bir hodisalarning tarqalish xususiyatlarini o‘rganishga oid fan bo‘lib, bir necha fanlarda (jumladan, botanika, zoologiya, geologiya, etnografiya, filologiya va boshqalar) arealogik yo‘nalish shaklida mavjuddir. Shuning uchun muayyan fanlarda bu tushuncha (areal lingvistika (tilshunoslik), areal botanika, areal geologiya va boshqalar) o‘z aksini topgan. Shu bois ham dialektologiyaning davomi sifatida yuzaga kelgan tilshunoslikning yangi sohasi – areal lingvistika nomi bilan shakllandi.

Ma’lumki, dastlab tillar bilan bog‘liq hududiy masalalarini o‘rganuvchi yo‘nalish areal lingvistika emas, lingvistik geografiya yo‘nalishida mashhur edi. Tilshunoslikda haqiqatan, dialektologiya va tillarning tasnifi jarayonidagi geografik tushunchalar (tillarning tarqalishi va qo‘llanish hududlari) bo‘yicha katta tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Jo‘rayevning ta’kidlashicha, arealogiyaning yangi fan sifatida vujudga kelishi lingvistik makonda faoliyat yurituvchi avval noma’lum bo‘lgan qoliplarning kashf etilishini bildiradi. Yangi bilimlarning o‘sishi bilan birga bo‘lgan hududiy fanlarning rivojlanishi umumlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq. Shu bilan birga, areal tilshunoslik nazariyasi tarkibida bo‘ysunuvchi tizim (dialektologiya – lingvogeografiya-arealogiya) shaklida umumlashtirishning ma’lum bosqichlarini ajratib ko‘rsatish tobora kuchayib bormoqda, bunda har bir bosqich (an’anaviy paradigmadan yangi lingvoareal paradigmaga o‘tishda) oldingi

bosqichning amalga oshirilgan, to‘plangan ilmiy manbalarni o‘z ichiga oladi. Yangi bosqichga o‘tish esa, umumlashtirishning yangi bosqichiga tilshunoslikning nazariy konsepsiyasiga kiritilgan mavjud tushunchalarni aniqlashtirish va yangi tushunchalarni shakllantirish bilan birga keladi (A.Jo‘rayev, 1991. 10).

Areal lingvistikaning yuzaga kelishi uzoq tarixga ega. F.de Sossyur tillarning geografik jihatdan xilma-xilligi birinchi navbatda tilshunoslik tomonidan izohlangani, bu yunonlar orasida til sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning dastlabki yo‘nalishini belgilab bergani, yunonlar faqat turli ellin dialektlari o‘rtasidagi tafovutlarga e’tibor berishgani, ammo bu ularning manfaatlari Yunonistonning o‘zidan tashqariga chiqmaganligi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

Antik davrda ham, o‘rta asrlarda ham Sharq va G‘arb mamlakatlarida ma’lum bir tildagi hududiy farqlanish inobatga olingan. Eramiz boshlarida Yan Syun tomonidan yaratilgan “Fan’yan” dialektologik lug‘atida dialektlar o‘rtasidagi farqlar xitoy lahjalarining geografik tarqalish hududlari bilan aloqador ekanligi ta’kidlanadi.

Turkiy tillarning tasniflari ham juda ko‘p hollarda hududiy (arealogik), geografik tarqalish tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. XI asrda turkiy tillarning ilk tasnifini bergen Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlar va shevalar tasnifida ularning tarqalish hududlarini “Rumdan Chingacha” (Kichik Osiyodan Xitoygacha) shaklda geografik (hududiy) chegaralarini ko‘rsatadi yoki 1284-yilda Bernat d’Aurtik tomonidan taklif qilingan fransuz lahjalarini toifalarga ajratish, Trevisaning 1387-yilda ingliz lahjalarini tasniflashga bo‘lgan harakatlarida ham ma’lum bir tillardagi hududiy farqlanishlar e’tiborga olingan.

XIX-XX asrlarda turkiy tillarning mukammal tasniflarini bergen akademik V.Radlov, V.Abogorodinskiy, N.A.Baskakov tasniflarida ham hududiy-geografik nomlanish qayd etilgan. V.V.Radlov turkiy tillarning sharqiy, g‘arbiy, O‘rta Osiyo va janubiy kabi guruhlarini, N.A.Baskakov esa g‘arbiy xun va sharqiy xun tarmoqlarini, akademik F.E.Korsh shimoliy, g‘arbiy, sharqiy, aralash tipli guruhlarini, akademik M.Samoylovich janubi-g‘arbiy, janubi-sharqiy, shimoli-g‘arbiy, shimoli-sharqiy kabi guruhlarini ajratadi. Ko‘rinib turibdiki, lingvistik

tadqiq va tasnif jarayonida geografik (hududiy) tushunchalardan foydalanish ancha uzoq tarix hamda an'anaga ega.

Dialektologik tadqiqotlarni tizimlashtirishda nemis tilshunosligida qiyosiy tarixiy tilshunoslikning paydo bo'lishi, rivojlanishi mintaqaviy tadqiqotlarning keyingi bosqichi – lingvistik geografiyaga o'tishi uchun ahamiyati katta bo'ldi.

Dialektologiyaning shakllanishi tilshunoslikda kartografik tadqiqot usullarini qo'llashning boshlanishi bilan bog'liqligi Boduen de Kurtene, J.Jileron, M.Bartoli tadqiqotlarida keng tahlil qilingan. Nemirovskiy ta'kidlaganidek, lingvistik geografiya til faktlarini kartografik tasvirlash bilan chegaralangan bo'lsa-da, u tilshunoslik uchun faqat yordamchi, tasvirlovchi vosita qiymatiga ega edi. Ular lingvistik xaritalarni sharhlay boshlagan, bu xaritalarda tasvirlangan til hodisalarini tushuntira boshlagan paytdan lingvistik geografiya taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. (Nemirovskiy, 1926. 23). Areal tilshunoslikning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Lingvistik xaritalashtirish dastlab, etnografik tarzda xaritalash bo'lgan, shu sababli ham ilk lingvistik xaritalar etnolingvistik xaritalar darajasida tuzilganligi tadqiqotlarda qayd etilgan.

Lingvistik geografiya XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Fransiyada J.Jil'erona, Germaniyada B.Martin, V.Miskalar tomonidan lingvistik atlaslarning yaratilishi bilan rivojlangan. J.Jil'erona tomonidan yaratilgan mukammal lingvistik xaritalarni talqin va tahlil qilish til va dialektlarni lingvoareal o'rghanishni rivojlanish bosqichiga ko'tardi.

Lingvistik geografiya tilshunoslik tadqiqotlarida uzoq an'anaga ega bo'lsa-da, XX asrning o'rtalarida areal lingvistika sohasi rivojlandi. Areal lingvistika dialektologiyadan ham, lingvistik geografiyadan ham farq qiluvchi lingvoareal tadqiq metodidan foydalanadi. Lingvistik geografiya, dialektologiya hamda areal lingvistika tilshunoslik fanining ayni bir tarmog'ining turlicha nomlanishi emas, inson tilining turli tomonlarini turli xil usullar bilan o'rGANUVchi sohalardir. J.Jil'erona boshlagan lingvistik xaritalarni talqin qilish va bir-biriga bog'liq holda tahlil qilish, shuningdek, kartografik modelllashtirish lingvoareal yo'nalishni yangi

rivojlanish bosqichiga ko‘tardi. Agar lingvistik geografiya o‘z mohiyatiga ko‘ra faktografik fan bo‘lsa, uning M.A.Borodina tomonidan arealogiya deb nomlangan yangi bosqichi kartografik modellar ko‘rinishidagi kognitiv tuzilmalar bilan identifikatsiyalangan til makoni tuzilishining bir parchasi sifatida tushuniladigan soha bilan bog‘liq. Arealogiyaning yangi fan sifatida vujudga kelishi lingvistik makonda avval noma’lum bo‘lgan ma’lumotlarning kashf etilishini bildiradi. Yangi fanlarning rivojlanishi bilan birga hududiy fanlarning rivojlanishi umumlashtirish jarayonlari, bilimlarni ifodalashning tobora umumlashtirilgan shakllarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Hududiy fanlar tizimidagi dialektologiya – lingvistik geografiya – arealogiya shaklida umumlashtirishning ma’lum bosqichlarini ajratib ko‘rsatish keng talqin qilinmoqda va har bir bosqich oldingi bosqichdagi ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga olmoqda. Yangi bosqichga o‘tish esa umumlashtirishning yangi bosqichiga tilshunoslikning nazariy konsepsiyasiga kiritilgan mavjud tushunchalarni aniqlashtirish va yangi tushunchalarni shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi.

Dialektologiya, lingvogeografiya va arealogiya sohasidagi har bir yirik taraqqiyot areal lingvistika tadqiqoti metodologiyasini yaratishga qaratilgan harakat edi. Bunga J.Jil’eron, G.Venker, M.Bartoli, N.Trubeskoy, R.Yakobson, Ye.D.Polivanov, V.M.Jirmunskiy, G.Kurat, T.Frings, R.I.Avanesov, B.A.Serebrennikov, N.I.Tolstoy, J.Segi, M.A.Borodina, A.V.Desniskaya, E.A.Makayev, N.Z.Gadjiyeva, G.F.Blagova, G.A.Sixun, N.A.Baskakov, Y.Cheyim-bers, P.Tradgil va boshqa olimlar katta hissa qo‘shganlar.

Tilshunoslikda areal bilimlarning rivojlanishi areal tilshunoslik hamda qiyosiy tarixiy tilshunoslik metodlarining birlashishiga olib keldi. Areal tilshunoslik atamasi O.N.Moraxovskaya ta’kidlaganidek, tillar va dialektlarni ham tavsifiy, ham tarixiy jihatdan o‘rganadigan keng ma’noga ega bo‘lgan atama bo‘ldi. Keyinchalik areal lingvistik tadqiqotlarning doirasi kengaydi. Bu soha bo‘yicha XX asrda juda katta ilmiy tadqiqot ishlari qilindi. Areal lingvistika sohasidagi tadqiqotlar hind-yevropa tillari (E.A.Makayev), slavyan tillari (R.I.Avanesov, N.I.Tolstoy), german tillari (V.M.Jirmunskiy), roman tillari

(M.A.Borodina), turkiy tillar (N.Z.Gadjiyeva), bolqon tillari (A.V.Desniskaya) materiallari asosida davom ettirilib, salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Turkiyshunoslikda N.Gadjiyevaning “Turkiy areal lingvistika muammolari O‘rta Osiyo mintaqasida” kitobini keltirish ham o‘rinli. Xususan, ishning “Areal lingvistik tadqiq metodlari” masalalariga bag‘ishlangan uchinchi bobি arealogik tadqiqotlar mohiyati va metodlari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Shuningdek, turkiy tillar, jumladan, o‘zbek lingvoarealogiyasi bo‘yicha G.F.Blagovaning “Turkiy tillarda turlanishning areal-tarixiy tadqiqi” (janubi-sharqiy mintaqada) nomli tadqiqoti diqqatga sazovordir (Blagova, 1982. 304).

O‘zbek tilshunosligida areal lingvistikaning asosiy tushunchalari A.B.Jo‘rayevning “O‘zbekzabon mintaqani areal o‘rganishning nazariy asoslari” nomli monografiyasida keng tadqiq qilingan. Bu monografiyaning “Turkiy tillar areal lingvistikaning ayrim metodologik masalalari”; “Refleksiya”; “O‘zbek tilshunosligida lingvoareal tadqiqotlarning shakllanishi va rivojlanishining asosiy omili sifatida” deb nomlangan I va II boblari lingvoareal tadqiq maqsadi va usullarini sharhlagani bois tanishish hamda o‘rganish materiali sifatida ahamiyatlidir. Bu monografiyada refleksiya (tajalli) deganda o‘zbek shevalarining va yozma yodgorliklarini emperik (fahmiy, tavsifiy) o‘rganish natijasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda ma’lumotlarni yangi maqsadlarga erishish uchun qayta guruhlash hamda tahlil etib baholash tushuniladi. Shuning uchun A.Jo‘rayevning tadqiqoti XX asrning 30–80-yillarida o‘zbek shevalarining mahalliy-hududiy tavsifi natijasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni, areal tadqiq metodi nuqtayi nazaridan qayta baholash va tahlil etishga qaratilgan.

Bugungi kunda areal lingvistikaning rivojlanishi va fan sifatida shakllanishigacha bo‘lgan davrdagi ilmiy tadqiqotlar bu fanning taraqqiyoti uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

### **3-§. AREAL LINGVISTIKANING TADQIQ METODI VA TADQIQ MANBAYI**

---

#### **Reja:**

- 3.1. Til va dialektlarni o‘rganish metodlari va lingvistik geografiya.
- 3.2. Til va sheva faktlarini qayd qilish va sharhlash.
- 3.3. Innovatsion markazni aniqlash. Substrat hodisasini belgilash.

**Tayanch tushunchalar:** *Til, dialect, usul, metod, innovatsion markaz, substrat hodisa, areal tarqalishi, xarita, makon.*

Areal lingvistika o‘zining tadqiq maqsadi, usuli (metodi) va manbayiga ega bo‘lgan tilshunoslikning alohida bir tarmog‘idir. Areal lingvistikaning tahliliy usuli ma’lum hududda tarqalgan til hodisalarini aniqlab, hududiy til xususiyatlarini xalq tarixi, til tarixi bilan aloqador holda qiyoslaydi va ularning o‘rni, tarqalish chegarasi hamda usullarini ko‘rsatadi, tillarning o‘zaro aloqa paytida til elementlarining baqarorlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, turli mintaqalardagi shevalarda uchraydigan lingvistik hodisalarini aniqlash va ularning qo‘llanish maydonini aniq belgilash, areal tarqalishini xaritada ko‘rsatishdan iborat. Shuning uchun xaritalashtirish areal lingvistikaning ham usuli, ham natijasidir.

Areal lingvistikaning tadqiqot usullari tillarning o‘zaro aloqa paytida til elementlarining barqarorlik darajasini aniqlashga yordam beradi.

Areal lingvistikaning o‘ziga xos tadqiq metodi, ya’ni ish usuli va tadqiq obyekti mavjud bo‘lib, tadqiq manbayi sifatida til va shevalarda u yoki bu lisoniy birlikning tadqiqi bilan ish ko‘radi hamda qiyosiy tilshunoslik metodlari asosida o‘rganadi. Qiyosiy tilshunoslik, tarixiy tilshunoslik, areal lingvistika har bir lisoniy hodisalarning tadqiq va tavsifiga alohida yondashadi.

Shuni aytish mumkinki, areal lingvistik tadqiqotda makon tushunchasi ham mavjud. Arealogik makon dialektologik makon tushunchasidan batamom farq qiladi. Dialektologiyada makon tushunchasi ma’lum bir hudud ma’nosida

qo‘llanilgan: Xorazm shevasi, Andijon shevasi, Jizzax shevasi kabi. Dialektologik tadqiqotda bir hududdagi turli xil til birliklari yaxlit holda tadqiq etiladi. Areal lingvistikada bir lingvistik hodisaning turli hudud va mintaqalarda areal tarqalishi o‘rganiladi. Shuning uchun areal lingvistikada makon geografik hudud emas, ma’lum bir lingvistik hodisaning tarqalish hududi tushuniladi. Dialektologiyada lingvistik hodisa makon orqali tavsiflansa, areal lingvistikada makon lingvistik hodisa orqali beriladi .

Areal tadqiq usuli qiyosiy, xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikdan farqlanadi. Qiyosiy tilshunoslikda tipologik jihatdan o‘xhash va noo‘xhash hodisalar chog‘ishtirilsa, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda faqat o‘zaro o‘xhash hodisalar turli davrlar asosida qiyoslanadi. Areal lingvistikaning tadqiq usuli orqali esa bir hodisaning ma’lum bir davrdagi o‘xhashligi tadqiq etiladi. Ular o‘rtasidagi bunday farqlar uning tafsifiy, qiyosiy, tarixiy tilshunoslik bilan bir qatorda areal lingvistika ham til haqidagi fanning o‘ziga xos alohida tarmog‘i mavqeyida ekanligini asoslaydi.

Areal lingvistikaning ish usullaridan biri izoglossa (gr. “isos” – o‘xhash, bir xil va gr. “glossa” – til hodisasi) ayni bir lisoniy hodisaning tarqalish chegaralarini belgilovchi chiziq, hudud chegaralaridir. Lingvistik xaritalarda ma’lum bir hodisalarning areal tarqalishi, uning markazini aniqlashda izoglossalardan foydalaniladi. Xaritalarda ko‘rsatilgan izoglossalar orqali lingvistik hodisalarning areal tarqalishi to‘g‘risida xulosalar beriladi. Lingvistik xaritada bir xil hodisalar bitta yoki bir xil izoglossalar bilan beriladi. Geografik xaritaga qarab, uni o‘qiy oladigan kishi, relef (tug‘, ko‘l, daryo, tekislik va boshqalar)ning Afrika, Osiyo, Yevropa yoki Amerikaning qaysi hududlarida joylashganini tushuna olganidek, lingvistik xaritani o‘qiy oladigan shaxs izoglossalar orqali o‘zini qiziqtirgan lisoniy hodisa qaysi hududlarda qanday tarqalganligini bemalol o‘qiy oladi.

Areal tilshunoslik o‘ziga xos usullardan tashqari xaritalash usullari, innovatsiya zonalarini aniqlash va tilning tizim ichidagi xususiyatlarini, til jarayonlarini ochib beradigan genetik usullardan foydalanadi. Areal tilshunoslik mutaxassislari xaritalarda ko‘rsatilgan lingvistik hodisalarni bir-biri bilan

solishtirib, ularni sharhlab, innovatsiyalar qaysi markazlarda paydo bo‘lganligi va ular qanchalik keng tarqalganligi, ularning rivojlanishiga nima to‘sinqinlik qilayotgani to‘g‘risida xulosalar berishda til hodisalarining chegaralari bilan birga iqtisodiy, siyosiy, etnografik va madaniy chegaralari ham inobatga olinadi. Bu ma’lum bir tilning tarixini etarli darajada bilish va hududiy qo‘shti tillar haqida ma’lumotga ega bo‘lish, tillarning divergensiya va yaqinlashuv qonuniyatlarini tushunishda yordam beradi. Shuningdek, areal tilshunoslik tilning tuzilishini o‘rganishda tipologik va tizimli tadqiq qilish usullariga asoslanadi va birgalikda til tipining fonetik va grammatik xususiyatlarini aniqlaydi. Bu usullar alohida tillarning xususiyatlarini to‘liqroq ohib beradi. Uning maqsadi tilning tarqalish sohalarini tavsiflovchi kesishgan izoglosslar massasida ushbu xususiyatlarni tilning barcha sathlarida o‘ziga xos tomonlarini aniqlashdir. O‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashda tashqi bir xil xususiyatlar bilan tavsiflangan holatlarni farqlash juda muhim: bu xususiyatlar bir xil sharoitda yoki ular turli sharoitlarda sodir bo‘lganmi aniqlanadi. Xuddi shu shartlar va bir xil impulslar bilan tavsiflangan til o‘zgarishlari odatda lingvistik jamoa kontekstida sodir bo‘ladi. Boshqa impulslar ta’sirida turli sharoitda kuzatiladigan bir xil o‘ziga xos xususiyatlar, qoida tariqasida, turli til jamoalarida paydo bo‘ladi. Bunday hollarda areal tadqiqot usullari: genetik tadqiqot usullari va tizimli tahlil usullari bilan birgalikda o‘ziga xos xususiyatlarni ajratib ko‘rsatishga yordam beradi. Tashqi tomondan mutlaqo bir xil bo‘lganlar o‘ziga xos tasniflash belgilari sifatida ishlatalishi mumkin, ammolar boshqa chastota darajasiga, ya’ni har xil taqsimotga ega bo‘lishi mumkin. Chuvash tilidagi qisqartirilgan **а** ning hajmi, masalan, tatar va boshqird **о** orf. hajmidan kattaroqdir. Shuning uchun chuvash tilida turli hajmdagi kichraytirilgan unlilarning mavjudligi aslida birlashtiruvchi xususiyat emas, balki ajratuvchi xususiyatdir. (N.Gadjiyeva, 1984, 59). Areal lingvistikaning bir qator xarakterli usullari, masalan, ma’lum bir hodisaning yangilanish markazlarini belgilash yoki ushbu hodisalarning zaiflashuv zonalarini aniqlash bilan qiyosiy grammatika ustida ishlaydi. Areal tilshunoslik arxaizmlar va innovatsiyalarni aniqlashda yangi usullarni ham tavsiya etadi. Arxaizmlarni ochib beruvchi areal rivojlanish usullari

chuqur tahlilni talab qilishiga asoslanadi. Bu qiyosiy-tarixiy, tipologik tahlil usullari bilan izohlanadi.

Ma'lumki, areal tilshunoslikda bog'langan va konvergent izoglosslar mavjud: birinchisi yagona genetik jamoaga tegishli tillarda rivojlanadi, ularni o'rghanishda qiyosiy-genetik tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Konvergent izoglossalar ma'lum bir hududiy tillarning aloqalari natijasida yoki alohida, hududiy jihatdan qo'shni bo'lmaning parallel rivojlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu tipologik tahlil usullari orqali amalga oshiriladi.

Areal tilshunoslik tarixining turli bosqichlarida lingvoareal metodlarning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etdi. Bu o'rghanilayotgan takson haqidagi bilimlarning kengayishi va tilni makonda o'rghanishning maqsad va vazifalarini ishlab chiqish orqali etakchilik qildi. Areal tadqiqotlarda qo'llanilgan usullar va uslublar bir xil xususiyatga ega edi.

Hozirda lingvoareal tadqiqotlarni amalga oshirishda dialektal-lingvistik hodisaning hududiy ko'lamenti aniqlash imkonini beradigan, og'zaki, keyin kartografik tavsiflarda namoyon bo'lgan qiyosiy-areal yondashuv zarurati yuzaga keldi. Lingvoareal tadqiqotning yangi usullari doimiy boyib boradi. Hozirgi bosqichda bu jarayon tilni makonda o'rghanishda yangi maqsadlarning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. O'zbek tilida so'zlashuvchi massivni o'rghanishda dialekt zonasini haqidagi nazariy g'oyalarning rivojlanishini tadbiq etish lingvoareal metodologiyaning o'zgarish an'analarini ham belgilaydi.

## **4-§. UMUMIY VA TAKSONOMIK AREAL LINGVISTIKA**

---

### **Reja:**

- 4.1. Lingvistik hududning yagonaligi va turli-tumanligi, taksonlar.
- 4.2. Areal lingvistika turlari: umumiy areal lingvistika va taksonomik areal lingvistika.
- 4.3. Taksonomik areal lingvistikaning (taksonlarni o‘rganish jihatidan) turlari.
- 4.4. Ekstensional va ekzistensional taksonlar.
- 4.5. Ekstensional (*uzunlik, kenglik, yoyilish*), intensional va ekzistensional taksonlar, ularning er yuzida tarqalishi, lingvistik hudud, til massivi, landshaft, til guruhi.

**Tayanch tushunchalar:** *Lingvistik hudud, umumiy areal lingvistika, taksonomik areal lingvistika, takson, ekstensional va ekzistensional taksonlar, til massivi, landshaft, til guruhi.*

Areal lingvistikani umumiy va taksonomik areal tilshunoslik kabi qismlarga ajratish mumkin. Umumiy areal tilshunoslik til makoni haqidagi fanning tarkibiy qismi hisoblanadi. Umumiy areal tilshunoslikning asosiy vazifasi ko‘proq qonuniyatlar va nazariyalarni ishlab chiqish hamda takomillashtirishdan iborat. So‘nggi yillarda turli til massivlarini o‘rganish hamda lingvistik atlaslar materiallarini tahlil qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning ko‘payishi munosabati bilan umumiy areal tilshunoslik to‘g‘risidagi tushunchalar kengaydi. Umumiy areal lingvistikaning nazariy xususiyatlarini an’anaviy dialektologiya va lingvogeografiya doirasida echib bo‘lmaydigan yangi muammo va vazifalarni birinchi o‘ringa qo‘ygan zamonaviy ilmiy paradigma ekanligini aytish mumkin. Umumiy areal tilshunoslik o‘rganadigan nazariy tushuncha va qonuniyatlar taksonomik tadqiqotlarda birlashadi.

Tillar va dialektlarning keng obyektda o‘rganilishi natijasida areal bilimlarning rivojlanishi areal tilshunoslikning yaxlit konsepsiyasining

shakllanishiga olib keldi. Uning predmeti, maqsadi va vazifalari, metodlari aniq bo‘lgani uchun ham umumiy areal tilshunoslikni rivojlantirish imkoniyati mavjud bo‘ldi. Areal tilshunoslikning nazariy tarkibiy qismi – umumiy areal lingvistika nafaqat ilmiy jihatdan to‘plangan turli xil ma’lumotlar to‘plamini bog‘lash imkonini beradi, balki ularni tushuntirish va lingvistik makonning noma’lum tomonlarini ham ochib beradi. Shu o‘rinda N.Trubeskiyning til birlashmalari, V.M.Jirmuniskiyning asosiy va ikkilamchi dialekt xususiyatlari va yarim dialekt nazariyasi, R.I.Avanesovning dialekt tili va dialekt shevadagi farqlar nazariyasi, M.A.Borodina tomonidan ishlab chiqilgan areal lingvistika konsepsiyasini aytib o‘tish o‘rinlidir.

Turli til va dialekt massivlarini chuqur o‘rganish, lingvistik atlaslarni tahlil qilish natijasining rivojlanishi areal bilimlarning integratsiyalashuvi va umumlashtirish jarayonlari bilan bog‘liqligi areal tilshunoslikning yaxlit konsepsiysi shakllanishiga olib kelishi umumiy areal tilshunoslik to‘g‘risidagi qarashlarni rivojlanirdi. Ammo umumiy areal tilshunoslikning mazmuni va tuzilishini tashkil etuvchi aloqa hamda elementlarini aniqlash lozim bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, areal tilshunoslikning nazariy qismi mavjud bo‘lsa-da, u hali ilmiy jihatdan to‘plangan ma’lumotlar to‘plamini bog‘lash imkonini berishi bilan birga ularni tushuntirish va lingvistik makon to‘g‘risidagi ma’lumotlarni etkazish imkonini beradi.

Lingvistik makonning bir xilligi, xilma-xilligi turli o‘lcham va ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab lingvistik taksonlar tomonidan shakllanadi. **Takson** – muayyan sharoitlarda (geografik joylashuvi, atrof muhitga ta’siri, rivojlanish tarixi va boshqalar) shakllangan dialektik lingvistik to‘plamdir. Kengaytirilgan ma’nosida takson hududiy hajmga kiritilishi lozim bo‘lgan barcha obyektlarni ko‘rsatib o‘tish orqali beriladi. Masalan, O‘rta Osiyo mintaqasi takson sifatida bir qancha til massivlarini o‘z ichiga oladi, jumladan, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi massiv takson sifatida dialekt zonalarini, azonal hududlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Taksonomik areal tilshunoslikning maqsadi muayyan lingvistik taksonlarning shakllanish va rivojlanish jarayonlari hamda ularning o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Unda lingvistik takson va lingvistik taksonizatsiya tushunchalari mavjud. Taksonomik areal tilshunoslikda lingvistik takson yuqorida ta’kidlanganidek, dialekt lingvistik to‘plam – aniq individual tuzilishga ega bo‘lgan muayyan sharoitlarda shakllangan hududiy tizimdir. Lingvistik taksonlashtirishdagi maqsadlar lingvistik hududni ma’lum bir kompleks yoki komplekslar guruhi, ularning tuzilishi, xususiyatlari va makondagi farqlarning qonuniyatlarini o‘rganish uchun evristik, ilmiy va kognitiv bo‘lishi mumkin. Taksonizatsiya lingvoareal ma’lumotlarni yanada mantiqiy guruhash maqsadida ham amalga oshiriladi, masalan, turkologiyada turkiy tillarni mintaqaviy o‘rganish allaqachon olib borilayotganini keltirish mumkin.

Taksonizatsiya obyekti aniqlangandan so‘ng, dialekt – lingvistik to‘plamlarni (taksonlarni) aniqlash, ular o‘rtasidagi chegaralarni belgilash, ushbu hududlarning geografik va etnografik omillarini tahlil qilish, ularning sabablarini, tamoyillarini aniqlash, rivojlanish jarayonlarini o‘rganish va tahlil etish kerak bo‘ladi. Takson tushunchasini quyidagi ikkita o‘zaro bog‘liq ma’noda tushunish mumkin. Taksonomik areal tilshunoslik o‘rganilayotgan taksonlarning xususiyatiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi: 1) geterogen (xilma-xil) taksonlarni areal o‘rganish; 2) bir xil taksonlarni areal o‘rganish.

Taksonomik areal tilshunoslikning bo‘linishida bir xillik // geterogenlik prinsipiga kelsak, I.A.Boduen de Kurtene ta’kidlaganidek, yagona sof, aralash bo‘laman lingvistik butunlik mavjud emas va bo‘lishi ham mumkin emas. Bu tillarning genetik va tipologik farqlanishi bilan bog‘liqligidadir. (Boduen de Kutene, 1963. 363) Chunki tillarning bir-biriga ta’sir qilish darajasi har xil. Shuning uchun biz bir xil va geterogen lingvistik taksonlar haqida gapirishimiz mumkin.

Areal tilshunoslikning asosi makon bilan bog‘liqligi uchun ham, albatta, lingvistik makonning hududiy bo‘g‘inlari: mintaqqa, lingvistik massiv, landshaft,

dialekt zonasi, dialekt kontinuum va boshqalar lingvoareal tadqiqotlarda namoyon bo‘ladi.

### **Ekstensional (kengaytmali) va ekzestensional (intensial) taksonlar**


Til hududini avvaldan belgilangan chegaralar doirasida qayta ko‘rib chiqish (ekstensional takson) yoki muayyan dialekt-lingvistik hodisaning (intensial takson) tarqalish chegaralarini belgilashga asoslangan lingvistik taksonlarni o‘rganishning mumkin bo‘lgan ekstensional va intensial yo‘nalishlari mavjud. Ular ko‘rib chiqiladigan ilmiy tizim dialektologiya, lingvistik geografiya, arealogiya, kontaktologiya bilan belgilanadi. Bu esa lingvistik taksonlarni o‘rganishga va faqat shu faktik materialning o‘zi natijasida turli qarashlar mavjudligining muqarrarligi va bir qator atamalarning noaniq qo‘llanishiga oid turlicha yondashuvlarni keltirib chiqaradi.

Takson tushunchasini quyidagi ikkita o‘zaro bog‘liq ma’noda tushunish mumkin. 1. **Ekstensional** (kengaytmali) takson hududiy massivga kiritilishi kerak bo‘lgan barcha obyektlarni ko‘rsatib o‘tadi: O‘rta Osiyo mintaqasi takson sifatida bir qancha til massivlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi massiv takson sifatida dialekt zonalarini o‘z ichiga oladi. Ekstensional takson (kengaytmali takson) – til hududini oldindan belgilangan chegaralar doirasida qayta ko‘rib chiqish. Ekstensional taksonning chegaralari ma’muriy-hududiy yoki geografik chegaralar bilan belgilanadigan chegaralardir. Areal tilshunoslikning kengaytmali taksonomik tushunchalari genetik tilshunoslik tushunchalari guruhi bilan bog‘liq.

Tillarning butun dunyo bo‘ylab tarqalish hududi ajratilgan. Shu ma’noda lingvistik makon atamasi ham qo‘llaniladi. Gadjiyeva tadqiqotlarida “Janubiy-sharqiy hudud”, “Turkiy tillarning Sibir hududi”, “Osiyo hududi”, “Osiyo tillari maydoni” yoki boshqa tadqiqotlarda ham “Ural Volga maydoni”, “Janubiy Sibir hududi” kabi atamalar qo‘llanilgan. Mintaqalar, til massivlari landshaftlari va dialekt zonalari lingvistik makonning hududiy bo‘g‘inlari, ularni ta’minlashda ishtirok etadigan funksional qismlaridir. Hududlardagi dunyo tillari, til oilasi, til

guruhi, til, dialekt, sheva guruhi kabi tushunchalar ham yuqoridagi makon tushunchalarining tarkibiy qismlari bilan bog'liqdir.

**2. Ekzestensional** (intensional) takson – agar taksonga kiritilgan barcha obyektlar tomonidan hududiy darajada faktik materiallar ko'rsatilgan bo'lsa, takson mavjud deb hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilining Navoiy viloyati dialektal zonasidagi **gilagay** dialektal leksemasi **ғыләгәй**-(Navbahor), **ғылә гәй** (Xatirchi), **ғыләгәй** (Karmana) va boshqalar bilan konturlashadi. (1-xarita).



Intensional taksonning chegaralari – muayyan dialekt-lingvistik hodisalarning tarqalishi bilan bog'liq chegaralardir. Dialektolog o'zi o'rganayotgan hududida taksonning berilgan lingvistik hududi doirasidagi makoni, dialekt – lingvistik

hodisalarning joydan joyga o‘zgarishini ko‘rishni e’tiborga olishi kerak, bu erda yaqinlashuvchi va ajraladigan kuchlarni hisobga olib, o‘rganilayotgan hududning ichki taksonomiyasiga qarashi lozim. Til va dialektlarni o‘rganishning lingvoareal paradigmasiga o‘tish, birinchi navbatda, dialect – lingvistik faktlarning makon-zamondagi aloqasi o‘rtasidagi ichki aloqani oolib berish, ulardan izchil mantiqiy zanjirlar qurish kabi masalalar ustida ishlashni nazarda tutadi.

Barcha taksonometrik birliklar yaxlit tuzilishga ega bo‘lganligi sababli areal sistematika taksonning ichki tarkibini o‘rganishga asoslanadi, turli xildagi tahliliy harakatlarni taqozo etadi va jarayon sifatida ko‘p pog‘onali sanaladi. Lingvistik bo‘shliqni hududlarga, hududlarni til massivlariga, til massivlarini sheva hududlari va azonal maydonlarga ajratish lingvistik taksonlash turlarining bosqichmabosqich amalga oshirilishidan iborat. Sifat jihatdan farqlanadigan lingvoareal taksonlash bo‘shliqda bir-birini ba’zan tezlik bilan, ba’zan esa sekinlik bilan to‘ldirib boradi. Shuni aytish mumkinki, faqat ma’lum bir takson ichidagi dialektlarning tizimli-qiyosiy tavsifi bo‘shliq tushunchasini e’tiborsiz qoldirmaydi, lingvoareal tadqiqotlar uchun yo‘l ochadi. Ma’lum bir takson doirasidagi dialect lingvistik hodisalarning sifat va miqdori, hududiy o‘lchami tilning sohaviy ma’lumotlar to‘plami ekanligini anglatadi. Dialect-lingvistik hodisalarni xaritalash va kartografik modellashtirish areal tilshunoslikning rivojlanishida katta bosqichdir. Buning uchun boshqa rasmiylashtiriladigan vositalardan: dendrogrammalar, sxemalar, shkalalar va boshqalardan to‘liq foydalanish lozim bo‘ladi. Areal lingvistika sohasida kartografik tavsiflar ishlab chiqilsa, ularning lingvoareal mazmuni o‘rganilsa, ma’lum bir taksonning hududiy ma’lumotlar to‘plami aniqlansa, areal lingvistika o‘z oldiga qo‘yan maqsadlarni amalga oshirishi uchun imkoniyat yaratiladi.

## **5-§. IZOGLOSSA VA UNING TURLARI. LINGVISTIK XARITALARDA IZOGLOSSALARING BERILISHI**

---

### **Reja:**

- 5.1. Izoglossa ta'rifi, uning turlari.
- 5.2. Izofonema, izomorfema, izoleksema.
- 5.3. Genetik va konvergent izoglossalar.

**Tayanch tushunchalar:** *Izoglossa ta'rifi, izofonema, izomorfema, izoleksema, genetik izoglossa, konvergent izoglossa.*

Izoglossa – o'zaro o'xshash hodisalarning tarqalish nuqtalarini va bu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqni hamda hodisaning tarqalish chegaralarini xaritada belgilovchi chiziq yoki belgi. Trubinskiy ta'kidlaganidek, izoglossa – hodisaning umumiy ma'noda keng tarqalgan hududini ko'rsatadi. Bunday izoglossa odatda ma'lum mikrotizmning (dialekt) elementi sifatida xaritalangan hodisa nima ekanligini, uning ahamiyati va undagi semantikasini hisobga olmaydi.

I.Cheyembers va P.Tradgillning yozishicha, “izoglossa” atamasi birinchi marta 1892-yilda latviyalik dialektolog J.Q.A.Bielenstein tomonidan ishlatilgan. Ularning ta'kidlashicha, ehtimol, bu atama haqiqatni ifodalash uchun mo'ljallangan bo'lsa kerak, mintqa bo'ylab chizilgan chiziq ikkita hududni ko'rsatishi kerak, bu erda har bir tomon lingvistik qo'llanishning qaysidir jihatni bo'yicha bir-biriga mos keladi, lekin bir-biridan farq qiladi va bir-biriga munosabatda bo'ladi (I.Cheyembers va P.Tradgill 1980. 103). Izoglossa atamasining keng tarqalishiga italyan tilshunos olimi Mateo Julio Bartolli tadqiqotlari sabab bo'lган.

R.Freudenbergnинг “Izoglossa” atamasiga bag'ishlangan ishlarida keng ma'noda bu atama bitta til hodisasi chegaralangan va o'z muhitidan ajratilganda geografik jihatdan til hodisasini boshqalardan ajratib turuvchi chiziq sifatida tushunilgan. Turkologiyada “izoglossa” “maydon” tushunchasining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Aslida ham izoglossa termini grek tilidan olingan

bo‘lib, “isoglosse” isos – “tekislik, maydon” va glosse – “nutq, til” ma’nolaridagi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan.

Hozirga qadar dialektologiya sohasidagi ba’zi tadqiqotlarda izoglossalar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Masalan: Xorazm viloyatining o‘g‘uz guruh shevalari mavjud bo‘lgan areallar bilan qo‘sni Turkmaniston hududining Toshhovuz viloyatidagi umumiyliliklar mazkur areallardagi izoglossalarni tashkil etadi. Shuningdek, Tojikistonning Xo‘jand viloyatidagi ko‘pchilik shevalar O‘zbekistondagi shevalar bilan o‘zaro umumiyligi jihatlariga egaligi ham mazkur areallarning izoglossalarini belgilaydi. Yoki izoglossalar nafaqat chegaradosh hududlarda, balki ancha uzoq hududlarda ham uchrashi mumkinligi aytib o‘tilgan. Jumladan, O‘zbek shevalari o‘g‘uz guruhiga mansub dialektlarning umumiyligi izoglossalari faqat Xorazm viloyatidagina emas, balki Buxoro viloyatining Qorako‘l va Olot tumanlari areallarida mavjud bo‘lgan shevalarda, Samarqand viloyatining ba’zi hududlarida uchraydi. Shuningdek, Qoraqalpog‘istonning Beruniy va To‘rtko‘l tuman markazlarida va ayrim qishloqlarida, hatto Qozog‘istonning Chimkent viloyati Sayram tumanining Mankent, Qoramurt, Qorabuloq, Qizilqishloq singari areallarida va Turkiston tumanining Iqon, Qarnoq qishloqlarida ham mavjud ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Albatta, ba’zi izoglossalarning turli hududlarga tarqalishining o‘ziga xos sabablari bor. Lingvistik hodisalarning areali o‘rganilganda ba’zilari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa, ayrimlari mos kelmasligi mumkin. Bu holda o‘xshash bo‘lmagan ba’zi izoglossalar to‘plamini tashkil etgan areal aniqlanadi. Izoglossalar faqat qo‘sni geografik areallardagina mavjud bo‘lmaydi. Agar muayyan bir dialekt faqat o‘ziga mansub chegaralarda qolsa, bunday til landshaftini “til orollari” deb qarash mumkin.

Tilshunoslikda “Til orollari” atamasini A.I.Domashev o‘zining “Til oroli – tillarning tarqalish areallari sifatida va lingvistik tadqiqot obyekti” deb nomlangan ilmiy ishida qo‘llaydi. Bu atama zaminida muayyan til arealida boshqa til yoki shevalar amal qilayotgan lingvistik izoglossalar tushuniladi. Masalan: Afg‘onistonda mavjud o‘zbek tilini va shevalarini xuddi shu tipga oid deb hisoblash mumkin. Sababi u erda amalda bo‘lgan o‘zbek tili o‘zining asosiy

markazlaridan hududiy jihatdan ajralib qolgan, boshqa tillar hukmron bo‘lgan areallar bilan o‘ralgan, shuning uchun uning rivojlanishiga ham ta’sir etadi. Asosiy markazda iste’molda bo‘lgan lingvistik hodisalar tez o‘zgarib boradi. Bu Afg‘onistonidagi o‘zbek tili orolida arxaik shakllarning uzoq vaqt saqlanib qolishiga olib kelgan. Yoki o‘zbek shevalarining O‘rta Osiyo xalqlari tillari va shevalari bilan o‘zaro ta’siri natijasidagi orollar, Yuqori Qashqadaryo, Xorazm, Janubiy Qozog‘iston va boshqa dialekt zonalaridagi o‘tish davri shevalari orollarini aytish mumkin.

Izoglossalar qarindosh va o‘zga tillarga munosabati jihatidan ikki guruhga ajratiladi:


1) O‘zaro aloqadagi izoglossalar. Bunday izoglossalar genetik umumiylilikka ega bo‘lgan tillarga aloqador bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tili bilan qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, turkman tillari bilan aloqadagi izoglossalar misol bo‘la oladi. Ularni tahlil qilishda qiyosiy genetik tadqiqot usullaridan foydalaniлади.

2) Konvergent izoglossalar. Bunday izoglossalar turli sistemadagi tillarning uzoq muddatli hududiy aloqalari orqali yuzaga keladi. Bunga o‘zbek-tojik tili munosabatidagi umumiy izoglossalar misol bo‘la oladi. Konvergensiya izoglossalari tipologik tahlil usullari bilan aniqlanadi. Ma’lumki, tillarning o‘zaro aloqa va munosabatda bo‘lishi har qanday til taraqqiyoti jarayonining asosiy xususiyatlaridan biridir. Xalqlarning o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lishi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy aloqalari tillarning o‘zaro hamkorligi va aralashuviga sababdir.

Dialektologiya sohasida ma’lum bir hududdagi sheva xususiyatlaridan 100-200 turdagи o‘ziga xosligi qayd etilsa, areal lingvistikada shu hodisalardan eng ahamiyatli ma’lum bir shevaning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi bir nechta hodisani izoglossa mazmuni sifatida tanlaydi va shu hodisaning tarqalish arealini belgilaydi.

Izoglossalarning xaritalarda berilishi turli xil ko‘rinishda bo‘lgan. A.Jo‘rayevning yuqorida qayd etilgan monografiyasida Yuqori Qashqadaryo shevalari bo‘yicha tuzilgan xarita misolida izoglossa quyidagicha izohlangan. Bir biriga bog‘liq kartografik modellashtirishda (3-4 xaritalarda) -nin dan

foydalanslik zonasiga -dan foydalanslik zonasiga to‘g‘ri kelishi aniqlangan. Ammo -ga.. // -da ...ning parallelilik maydoni -nin..//..parallelilik maydoni bilan ustma-ust tushgan. Xaritalardagi ushbu izoglossalar chiziqlar orqali ko‘rsatilgan (A.Jo‘rayev, 1991).



**3-xarita-sxema.** Dialektlarning tarqalish hududi:


1-tojik; 2-o‘tish davri; 3-qipchoq; 4-qarluq .

Qaratqich va tushum kelishigining ko‘rsatkich areallari

I parallelizmning yuqori chastotal izolyatsiyasi -nin // -ni...

II - nksiyali -nin izolyatsiyasi;

III - sporadik parallelizm izolyatsiyasi nin/ni ma’nolarida -nin va -ni...ustunlik qiladi.



**4-xarita.** Dialektlarning tarqalish hududi:

1-tojik; 2-o‘tish davri; 3-qipchoq; 4-qarluq.

Jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari ko‘rsatkichlarining areallari:

I – parallizmning yuqori chastotali izolyatsiyasi **-ga// -da..;**

II – o‘rin kelishigi ko‘rsatkichining izolyatsiyasi;

III – **ni -ga** sporadic qo‘llanish izolyatsiyasi;

IV – **da ning** sporadic foydalanishning izolyatsiyasi.

Lisoniy hodisaning tabiatiga ko‘ra izoglossa har xil: izofonema (fonetik) masalan: O‘zbek shevalari fonetik jihatdan o‘zining murakkab xususiyatlariga egadir. O‘zbek shevalari o‘zaro unli va undoshlarning miqdori, sifati, fonetik jarayonlari bilan farqlansa-da, ayrim jihatlari orqali o‘xshashdir. Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbek shevalarida farqli tomonlarning mavjudligi shevalar

tarqalgan hududning joylashuv o‘rni, tarixiy sharoitlari, aholi etnik tarkibining turliligiga bog‘liq. Shu bois ham o‘zbek shevalaridagi unli va undoshlarning miqdori, sifati ancha murakkab va munozaralidir. Shu o‘rinda aytish joizki, o‘zbek shevalarini areal yo‘nalishda o‘rganish orqali bunday masalalar o‘z echimini topishi mumkin.

An’anaviy paradigmadagi tadqiqotlarda juda ko‘plab fonologik, fonetik hodisalar o‘rganilgan va keng talqin qilingan. Ularning ba’zilari izoglossa mazmunini berishi mumkin.

O‘zbek shevalari, turkiy tillar orasidagi o‘xshashlik va farqlar juda ko‘p. Ammo ularning hammasi ham izoglossa mazmuni, vazifasini o‘tay olmaydi. O‘zbek shevalaridagi qipchoq, o‘g‘uz lahjalarini o‘ziga xos xususiyati – so‘z boshida **y~j**, **k~g** almashinuvi bilan ajrata olish ham shevalar orasidagi muhim belgi sanalishi mumkin.

So‘z boshida jarangsiz “t” tovushining jarangli “d” fonemasiga o‘tishi to‘g‘risida turkiyshunosligida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: Jaranglilashish turkiy tillarning o‘g‘uz guruhiга mansub tarmoqlari uchun xos hodisa sanalsa-da, umumturkiy t~d hodisasi, birinchidan, o‘g‘uz guruhiга kiritiladigan turkiy tillarining juda ko‘plarida qadimgi turkiy “t”ni “d”ga o‘tmasligi qayd etilgan. Ikkinchidan, umumturkiy “t”ning “d”ga o‘tish hodisasini o‘g‘uzlardan ancha uzoq bo‘lgan totor, boshqird, qirg‘iz, o‘zbek tilining amalda bo‘lgan mintaqalaridagi shevalarida ham uchratish mumkin.

Umlaut hodisasi uyg‘ur tili va hozirgi o‘zbek tilining Namangan shahar, Uychi, Chortoq, Uchqurg‘on, Yangiqo‘rg‘on tumanlarining ayrim qishloq shevalariga xosligi qayd qilingan. Umlautning uch ko‘rinishi: palatal, labial, va lingval kabi turlari umlautli shevalarda uchraydi. Namangan umlautlashgan shevalarida umlautning birinchi va ikkinchi turlari mayjud. Birinchi tur: [təsh]-toshi, [qəsh]-qoshi, [məl-mol, məl’m-molim] kabi; ikkinchi tur: [tonyr]-tandır, [ədə yldy] – ado bo‘ldi kabi. Umlautning uchinchi turi uyg‘ur tiligagina xosdir: katti-ketdi, kasish-kesish va b.sh.k.

O‘zbek shevalarida diftonglashish hodisasi mavjud bo‘lib, qipchoq shevalariga xosdir. Diftong bir tovushda boshqa bir tovushning qatnashishi bilan yuzaga keladi. So‘zning boshida o‘rta-keng [e (e), Ε, Ο] unlilari qipchoq shevalarida [y (e), və] shaklida diftonglashadi: **echki** (echki), **elək** (elak), **vot’n** (**o’tin**), **vosmə** (**o’sma**) kabi. Bu diftonglashish hodisasi Janubiy Xorazm, Samarqand viloyati g‘arbiy shevalari, Navoiy, Nayman, G‘allaorol, Yuqori Qashqadaryo qipchoq tur shevalarida hamda Janubiy Orolbo‘yi shevalarida ham uchraydi. Shuningdek, qoraqalpoq, qozoq tillari uchun ham xosdir. So‘z boshida e, Ε, Ο unlilarining diftonglashuvi qoraqalpoq tilini boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi. Bu hodisa qo‘miq, gagauz, qarachay, balqar tillarida ham kuzatiladi. [o], [ε] unlilari ham [e] unlisi kabi so‘z boshida diftonglashadi. [uo], [uε] kabi. **uoyla**, **uotov** (**o‘yla**, **o‘tov**), **uərdak**, **uətk’r** (**o‘rdak**, **o‘tkir**). [i] unlisi diftonglashadi. [iyt-i: t] [i:t] kabi. O‘zbek shevalaridagi iyt so‘zida uchraydigan i unlisi qozoq va qoraqalpoq tillaridek talaffuz etiladi.

Ba’zi izomorfema (morfemik)lar ham izoglossa mazmuni sanalishi mumkin. O‘zbek shevalari morfologiyasi ham o‘zida qadimiy lug‘aviy birliklarni saqlab kelayotgan noyob manbadir. O‘zbek shevalarida morfologik shakllarni qo‘llashda o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu, albatta, u yoki bu sheva tarqalgan hududning o‘rni, tarixiy sharoitlari, aholi etnik tarkibiga bog‘liqholda yuzaga kelgan va turli ko‘rinishlarda uchragan. Masalan: Qipchoq lahjasiga oid shevalarda ko‘plik kategoriyasining [-lar // -ar // -yer // -zar // -zer] formalari uchraydi. Masalan: **siler**, **bizler**, **bizar**, **bular** kabi. Aslida biz < bi+z, siz < si+z (z ko‘plik ko‘rsatkichi) bo‘lib, bularga [-lar] qo‘shilishi tufayli bizlar, sizlar formasida qo‘shaloq ikki qatlamlı ko‘plik shakli vujudga kelgan Shuning uchun ham shevalarda [-a] qo‘shimchasini ko‘plik formasi deymiz. Chunki uning o‘zi yakka holda hech qachon ko‘plik ifoda qila olmaydi, [a] unlisi o‘zidan oldin kelgan qadimiy ko‘plik ko‘rsatkichi -z (b+z+a) tufayli sodir bo‘lgan. O‘zbek shevalarida qaratqich kelishigining [-] shakli mavjud. Masalan, **o‘zm+ ukam**, **o‘zm+ uym**. Qaratqich kelishigining [-] shakli Andijon, Qo‘qon, Farg‘ona, Pop, O‘zgan, Jalolobod – Suzoq shevalarida ham qo‘llaniladi. Masalan: Qo‘qon: **km+ qz**. O‘zgan: **bz+ uy**;

Pop (Sangqishlog‘i) dadam + etg, buvam + bog‘; Vodil: ko‘zm+ yosh; Baliqchi: men + ukam, sen + ukang. Qipchoq lahjasida qaratqich kelishigi qo‘shimchasining [-ning //пынг//-ding//-дынг//-ting//-тынг-tung] kabi variantlari mavjud. Qaratqich kelishigining bu variantlari Samarqand, Buxoro, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston o‘zbek shevalarining qipchoq lahjasida qo‘llaniladi. Qaratqich kelishigining -t’н//-тын affikslari Qozog‘istonning Turkiston shevalarida ham qo‘llaniladi: yurttын oz’ b’ledi kabi.

O‘zbek xalq shevalarida tushum kelishigining [-n, -ын, -in] tarzida qo‘llanishi ham uchraydi: qo‘lin yuvdi, belin boyladi kabi. Bu qo‘shimcha Jo‘sh, Nayman, shevalarida, Nayman, Qashqadaryo (qipchoq), Namangan (qipchoq), Xorazm (qipchoq), Iqon, Sayram, Laqay, Qorabuloq, Qarnoq shevalarida ham qo‘llaniladi. O‘zbek shevalarida jo‘nalish kelishigining [-ə // -a] shakllari ham uchraydi. she: r+ə, e: r+ə, be: r+ə. Ravishlarning bu tartibda shevalarda qo‘llanilishi jo‘nalish kelishigining [-ə] formasi bilan ifodalanishi Buxoro dialektida, Jo‘sh, Baxmal, Xorazm (qipchoq), Beruniy, Gurlan, Turkiston, Qashqadaryo, Kattaqo‘rg‘on, Qarnob, Namangan shevalarida ham uchraydi. Jo‘nalish kelishigining bu formasi o‘zbek shevalarining ko‘philigida bir xil [-ə, -a] tarzida bo‘lsa ham, ular turli xil so‘zlarning tarkibida kelib, shevalarning bir-biridan farqlovchi belgisiga aylangan. Masalan: Xorazm shevasida сөз’м+а, yan’м+а; Qorako‘l shevasida qishlog‘+а, Shahrisabz: oy+а kiring kabi so‘zlarning tarkibida kelgan jo‘nalish kelishigining [-ə, -a] shakllari har bir shevaning o‘ziga xos qonuniyatları asosida qo‘shilgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek shevalari morfologik jihatdan har bir hududning o‘ziga xos ichki xususiyatlari asosida taraqqiy etgan va shakllangan uzoq tarixiy jarayon mahsuli sanaladi. Shevalarda -b (-ib) ravishdosh qo‘shimchasi [v] formasida qo‘llaniladi: ket’ved’, eyt’vedi, bar’vi: d’m kabi. Bu holat Forish shevalarida ham uchraydi. yuruv edi: otuv edi. Buni Xorazm (qipchoq) shevalarida ham uchratish mumkin: bar’bi: d’m, bar’vi: d’ng, bar’vi: d’, bar’vi: d’k, bar’vi: d’ngler, bar’vi: d’ (ler) kabi. Bunday lingvistik hodisalarni juda ko‘plab keltirish mumkin. Turkiy tillarda ham bunday lingvistik vositalarning arealini juda ko‘plab keltirish mumkin. Areal lingvistika

ulardan eng asosiysini, turkiy tillar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun ahamiyatlilarini izoglossa hodisasi sifatida tanlaydi.

Arealogik tadqiqot o‘tkazishdan oldin tadqiqotchi har bir izoglossa mazmuninining til tizimidagi taksonomik ahamiyatini asoslab bermog‘i lozim. Izoleksemalarni lingvogeografik usulda yaratilgan xaritalar orqali quyidagicha izohlash mumkin. Xaritalar N.Murodovaning “O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini” mavzusidagi tadqiqotidan olindi (N.Murodova, 2006). Xaritalarda izoleksema (leksik) -larning areali tadqiq etilgan. Odatda izoglossa bitta hodisa asosida belgilanadi. **1-3-xaritalar** tadqiqotchining tadqiq etgan areali haqida etnografik ma’lumot beradi. Jumladan, **3-xaritada** tadqiq manbayi bo‘lgan 200dan ortiq oykonimning aniq joylashuvi va nomlanishi beriladi. **5-xaritada** ettita izoglossaning shu mintaqada tarqalishi ko‘rsatilgan. Barcha leksik izoglossalar bitta tushuncha og‘iz suti qo‘shma so‘zining ushbu mintaqada qanday berilishi asosida izohlanadi. Xaritada o‘z aksini topgan izoglossalar (**gilagay, dalama, uvuz, dalama//palla, palla, qog‘onoq//gilagay, jak, palla**) ichida **gilagay** izoglossasining etakchi ekanligini ko‘rish mumkin. Izoglossalarni sanab o‘tish, ro‘yxatda berish, ma’lum bir diagramma, geometrik shakllar, chiziqlar bilan ham ifodalash mumkin. Xaritalashtirilgan izoglossa areali haqiqiy lisoniy manzarani – **lingvistik lanshaftni** beradi. Mohiyatan atama bo‘lgan landshaft (nemis. manzara, ko‘rinish) atamasi areal lingvistikada juda keng qo‘llaniladi. Haqiqatan ham, **5-xaritaga** diqqat bilan qarasak, xarita izoglossalari uchun asos bo‘lgan ettita so‘zdan qay birining qaysi hududlarda qo‘llanilishi xaritada ma’lum bir geometrik shakllar orqali o‘z aksini topgan.

Izoglossalar yaxlit (lingvistik hodisa muayyan bir mintaqada qo‘llanilib, undan tashqarida uchramasa), uzuq (bir-biridan uzilgan turli mintaqalarda uchrasa), yopiq (chegaralangan arealdan boshqa joyda uchramasa), ochiq (turli mintaqalarda uchrasa) bo‘lishi mumkin.



Areal lingvistik xarita namunasi sifatida berilgan 5-xaritadan ko‘rinib turibdiki, izoglossa, albatta, chiziq shaklida berilmasa-da, ular xaritalarda turli xil belgilar, shakllar bilan berilgan.

Ba’zi tadqiqotlarda, jumladan, G.Blagova o‘z xaritalarida izoglossalarni berishda quyidagi qisqartmalardan foydalangan. Masalan: Arab raqamlari (1-6) qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rin, chiqish, vosita kelishiklarining tartib raqamlari;

A – egalik qo‘shimchasi bo‘lman otlarning tuslanishi;

B – I, II shaxs egalik qo‘shimchalariga ega bo‘lgan otlarning tuslanishi;

V – III shaxs egalik qo‘shimchali otlarning tuslanishi;

X – ikki kelishikning shaklan mos kelishi;

M – olmoshlarning tuslanishi;

a<sup>1</sup>, b<sup>1</sup>, v<sup>1</sup> – egaliksiz va egalikli otlarning o‘g‘uz turlanishi tipi;


a<sup>11</sup>, b<sup>11</sup>, v<sup>11</sup> – egaliksiz va egalikli otlarning qipchoq turlanishi tipi;

a, b, v – egaliksiz va egalikli otlarning qarluq turlanishi tipi;

daraja (ö) belgisi bilan eskirgan, qadimgi forma shakllari. Boshqa lingvistik hodisalar ham xaritalarda xuddi shunday berilgan.

Ozarbayjon Fanlar Akademiyasida yaratilgan lingvistik xaritalar ham o‘ziga xos tomonlari bilan farqli xususiyatlarga ega.

Ozarbayjon Ilmlar akademiyasining Nasimiy nomidagi Tillar instituti tilshunos olimlari tomonidan “Ozarbayjon dialektologik atlasi” 2022-yilda yaratildi. Xaritalar hududlar kesimida yaratilgan. Xaritada izoglassalarning areali geometrik shaklda berilgan.



Dialektologik tadqiqotlarda ma'lum bir shevaning chegaralari va o'ziga xos hodisalari aniqlanib kelingan bo'lsa, areal yo'nalishdagi tadqiqotlar shevalar orasidagi hududiy chegaralarni olib tashlaydi. Chunki turli mintaqada iste'molda bo'lgan turli shevalarda qo'llangan bir xil hodisa (qonuniyat) arealogik tadqiqotlarda shevalarning qaysi hududga qarashligidan qat'iy nazar bir arealga birlashtiriladi. Dialektologiya sohasida to'plangan faktik materiallardan o'ta ahamiyatlilarini til yoki shevaning eng xarakterli xususiyatlarini izoglossa asosida tanlash va o'rghanish ahamiyatlidir.

## **6-§. AREAL LINGVISTIKANING INNOVATSION MARKAZI MUAMMOSI MASALASI**

---

### **Reja:**

- 6.1. Har bir lingvistik hodisaning paydo bo‘lish o‘rniga doir.
- 6.2. Innovatsiyani aniqlashda tillar va dialektlar hamkorligi.
- 6.3. Muayyan dialektal hodisaning taraqqiyot xususiyatlari.

**Tayanch tushunchalar:** *Lingvistik hodisa, innovatsiya, dialektal hodisa, dialektlar hamkorligi, markaz, periferiya, diffuziya.*

Bugungi areal lingvistikaning oldida ma’lum bir hodisaning vujudga kelish markazini, uning yo‘nalishlarga tarqalishini va bu hodisaning turli mintaqalardagi o‘ziga xosligini (innovatsiyalarini) belgilash vazifalari dolzarb masalalardan biridir.

Innovatsiyalarning paydo bo‘lish sabablari, rivojlanish tarixi, kengayish yo‘nalishini o‘rganish va arxaizmlarning saqlanish sohalarini aniqlashda areal tishunoslikda markaz, periferiya, diffuziya (tebranish) zonalarini o‘rganilayotgan arealda aniqlash muhim bo‘lib hisoblanadi.

Areal tilshunoslik turli hududlarda ko‘plab qayd etilgan hodisalar holatlari sababli ular haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyatiga ega. Shuningdek, bu sohada yaratilgan turli xaritalarni solishtirib, ularni sharhlab, ular qanchalik keng tarqalganligi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Areal tilshunoslikning bir qancha usullari bilan bir qatorda ma’lum bir hodisaning yangilanish markazlarini aniqlash, ba’zilarini zaiflashib borishini o‘rganishda qiyosiy grammatika ustida ishlaydi hamda innovatsion markazlarni o‘rganish bilan birga ma’lum sohalarda izoglossa hodisalari tarixini o‘rganadi. Areal tilshunoslikda arxaizmlar va innovatsiyalarni aniqlashning yangi usuli arxaizmlarni ochib beruvchi hududiy rivojlanish usullari tekshirishni talab qilishiga asoslanadi, bu qiyosiy- tarixiy, filologik va tipologik tadqiqot usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Innovatsiya izoglossalarning tarqalish markazini bildiradi. Innovatsiya

markazini aniqlashda zonaning iqtisodiy, siyosiy, etnografik chegaralanishi va boshqa tillar bilan qo'shnichiligi ham inobatga olinadi. Innovatsiya markazini turli tillar va shevalar mavjud bo'lgan joyda aniqlashda muammolar uchraydi. Bu chuqur ilmiy tahlillarni talab qiladi. Tilshunoslikning ana shunday muammolaridan biri "o"lanish hodisasidir.

Turkiy tillardan, jumladan, o'zbek tilida va uning shevalarida umumturkiy "a"ning "o"ga o'tishi eng keng tarqalgan. Tilshunoslikda "a"ning "o"ga o'tishida quyidagi holatlar ko'rsatiladi. Lab-lab "v" va chuqur til orqa "q"dan oldin kelgan "a" doimiy "o"ga o'tadi. Masalan: sana-sanoq, qayra-qayroq, tirna-tirnoq; -v qo'shimchasi "a" unlisi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda "a" "o"ga o'tadi: so'ra-so'rov, sayla-saylov; "a"ning "o"ga o'tishi shevalarda "g" dan oldin ham uchraydi; yarog', tarog' kabi. Shevalarda onor, bohor adabiy tilda anor, bahor kabilarda "a"ning "o"ga o'tish sabablari turkiyshunoslikda haligacha muammodir. Ba'zi tadqiqotchilar "o"lanishni eroniy tillar ta'siri deb baholashsa, ko'pchilik turkiyshunoslар, jumladan, A.K.Borovkovning o'zi ham, "o"lanish lablangan va chuqur til orqa undoshlarning ta'siri ostida shakllangan, degan fikrlarni bildiradilar. Turkiy areal lingvistikada, jumladan, N.Z.Gadjiyeva, N.A.Baskakov tadqiqotlarida "o"lanish markazi hozirgi o'zbek tili lisoniy areali sanalsa-da, "o"lanish – "a"ning "o"ga o'tishi – o'zbek shevalarining o'zida bir xil emas. Bu hodisa o'zbek tili bilan yondosh bo'lgan qirg'iz, turkman, qozoq, qoraqalpoq tillarining shevalarida, shuningdek, ozarbayjon tili, xususan, Boku shevasida, Shimoliy Kavkazdagi karachay, bolqar va qo'miq tillarida, totor tilida, boshqird tilida, chuvash shevalarida ham uchraydi. Akademik A.N.Kononov ta'kidlashicha, qadimgi turkiy xalqlarning katta bir qismida "a"ning "o"ga o'tish hodisasi qat'iy qonuniyat bo'lgan. Tarixiy yozma yodgorliklarda qayd etilgandan ancha oldin bu qabila turli toifalarga bo'linib ketgan. Ularning kattaroq qismi hozirgi o'zbek xalqi tarixiy asosiga, ba'zilari ozmi-ko'pmi boshqa turkiy xalqlarning tarixiy asosidagi tarkibiga kirgan. Shu sababli "o"lanish siporadik (uzuq yuluq) shaklda xilma-xil sheva va tillarda uchraydi. Turkiyshunoslikda "o"lanish hodisasi qaysi fokus zonadan qaysi yo'naliishlarga yo'nalganligi muammoli bo'lib qolmoqda. Shuni

aytish mumkinki, turkiy tillarda lab va chuqur til orqa undoshlari ta'siri ostida "a"ning lablanishi mustaqil ravishda har bir tilda alohida rivojlangan bo'lishi mumkin. Buni turkiy sheva va tillarda "o"ning bir xil emasligi, "o" tovushining tillarda har bir til uchun o'ziga xos qonuniyat asosida rivojlanganligi to'g'risida aytish mumkindir .

Arab va eron tillaridagi cho'ziq "a" o'zbek tilida doimiy "o"ga o'tadi: Allah-Oolloh, kitab-kitob, katib-kotib kabi. Ammo bu o'rinda aytish mumkinki, agar "o"lanishning manbai qadimgi turkiy birlamchi "a" bo'lganda, bu "a" "o"lanish xususiyatiga xos bo'lgan til va shevalarning barchasida "o"ga o'tishi lozim edi. Lekin tahlillar bunday emasligini ko'rsatadi. Jumladan: a:d, a:y kabi qadimgi birlamchi cho'ziq "a"li so'zlar doimiy "o"lovchi til va shevalarda "o"ga o'tmaydi. XI asrdayoq Mahmud Koshg'ariy bu hodisani: ikki alif bilan berilgan az, al, at kabi so'zlarni qattiq va qisqa talaffuz qilish ma'qul deb ta'kidlagan hamda shu o'rinda tovushlarning talaffuziga alohida e'tibor bergenligi ahamiyatlidir.

Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida "o"lanish hodisasi qo'shni eroniyligida ta'sirida yuzaga kelgan, – degan qarashlar ham mavjud. Gap shundaki, "o"lanishni boshqa bir tilning ta'siri deb baholash asosli emas. Chunki, tojik tili eroniyligida "o"lovchidir. Bu hodisa eronshunoslikda xuddi turkiyshunoslikda bo'lgani kabi o'zbek tilining ta'siri deb izohlashadi. Ammo eron tillaridagi cho'ziq "a"ni o'zbek tilida "o"ning boshqa unlilardan ko'ra bir oz cho'ziqligi asosida, arab va fors tillaridagi cho'ziq "a"ning muntazam ravishda "o" bilan berish o'zbek tilida "o"lanishning keng tarqalishiga to'g'ri keladi, – degan qarashlar ham mavjud bo'lsa-da, biroq bu o'zbeklarda "o"lanish eroniyligida va arab tilining ta'sirida yuzaga kelgan deb aytishga asos bo'la olmaydi. Shu sababli "o"lanish turkiy tilshunoslikning ham tarixiy fonetikasi uchun, ham areal yo'nalihsining muammolaridan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbek tili va boshqa turkiy tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqli tomonlari ularning lug'at tarkibida ham ko'rinadi. O'zbek tili lug'at tarkibiga kiruvchi so'zlar boshqa turkiy tillar lug'at fondiga kiruvchi eng muhim hayotiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar bilan o'xshashdir. Ammo ba'zi so'zlar ayrim turkiy tillarning

o‘z fonetik xususiyatlariga ko‘ra boshqacharoq talaffuz qilinishi mumkin. Bunday fonetik hodisalardan qat’iy nazar o‘zbek va boshqa turkiy tillar lug‘at tarkibida umumiy o‘xshashlik saqlangan.

## **7-§. AREAL LINGVISTIKADA MARKAZ, CHEKKA, RADIATSIYA VA IRRADIATSIYA TUSHUNCHALARI**

---

### **Reja:**

- 7.1. Areal lingvistik tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
- 7.2. Markaz va chekka areal lingvistikaning muhim tushunchalaridan biri sifatida.
- 7.3. Areal lingvistikada markaz tushunchasining sinxron talqini.
- 7.4. Radiatsiya va irradiatsiya tushunchalari.

**Tayanch tushunchalar:** *Areal lingvistik tadqiqotlar, markaz, chekka, radiatsiya, irradiatsiya, diaxron, sinxron.*

Areal lingvistika muayyan hududlardagi lingvistik hodisalarining qayerda shakllanganligi, vujudga kelganligi va uning tarqalish arealini o‘rganish uning eng muhim masalalaridan biridir. Bu holatni aniqlashda areal lingvistikaning markaz, chekka kabi asosiy tushunchalaridan foydalaniladi. Markaz – ma’lum bir hodisa keng tarqalgan va nisbatan katta hududni o‘z ichiga olgan mintaqadir. Ma’lumki, hodisa shakllangan hudud – markaz, u erdan tarqalgan mintaqalar chekka sanaladi. Bu haqda H.Ne’matov quyidagilarni qayd etadilar: turkiy tillarda bir tomondan turkiy, ikkinchi tomondan forsiy va arabiyo so‘zlar sinonimiya hodisasi (et ~ go‘sht, esh ~ do‘sst ~ yor, kishi ~ odam va h.) O‘rta Osiyoning qadimiy markaziy o‘lkalari (Mahmud Koshg‘ariy ta’biri bilan aytganda, So‘g‘d, Arg‘u) mintaqasida VIII-IX asrlarda shakllandı. Saljuqiylar X-XI asrlarda g‘arb Kichik Osiyoga (Vizantiyaga) yurish boshlagan paytida bu hodisa So‘g‘d, Qashqar mintaqasida shakllangan edi. Shuning uchun turkiy va noturkiy (eroniyo va arabiyo) sinonimiya markazi ayrim tadqiqotchilar taxmin etganlaridek, saljuqiylar va usmoniylar davlati mintaqasi emas, hozirgi O‘zbekistonning markaziy va janubi-sharqiy arealidir. Mahmud Koshg‘ariy Koshg‘ar sharqi va Tibetda xuddi shunday turkiy ~ chiniy leksik sinonimiya markazini qayd etadi. VIII asrda yashagan To‘nyuquq VI-VII asrlarda Oltoy sharqida, Mo‘g‘uliston g‘arbida, Tibet va Xitoyning shimoliy qismida xuddi shunday turkcha ~ xitoycha sinonimiya markazlari shakllanganligi haqida

ma'lumot beradi. Jumladan, yuqorida qayd etilgan N.Murodova ishining 5-xaritasida adabiy tildagi og'iz suti shevalarda **gilagay, dalama, qog'anoq, palla/falla, uvuz, dalama/palla, jak/palla** variantlari bilan (Navoiy viloyati o'zbek shevalari xaritasi asosida) Olchin, Qoracha, Galabek, Xatirchi, Olchinobod, Xonaqa, Chilosh, Yangi yo'l, Ijand kabi mintaqalariga tarqalganligini ko'ramiz. Navoiy viloyati o'zbek shevalarida taom nomlaridan **gilagay** shaklining qo'llanilish markazi deganda ana shu hududlar tushuniladi. Xaritaga qarab **qog'onoq** izoglossa markazi G'azg'on, Dehibaland, Qizilcha hududlari ekanligini aniqlash mumkin. **Dalama** izoglossasi markazi esa Yangiobod, Konimex, Telman, Arabsaroy, Beshrabot mintaqasidir. Demak, sinxronik areal markaz deganda, ma'lum bir hodisa o'ziga xos ma'lum bir izoglossani tashkil etadigan mintaqa tushuniladi.

Sinxronik markaz ayni bir hodisa uchun ikki va undan ortiq ham bo'lishi mumkin. Chunonchi, 5-xarita asosida **dalama/palla** izoglossasining Qiziltepa va Toshrabot kabi ikki bir-biridan ancha uzilgan markazlarini ko'rish mumkin. Areal lingvistikada sinxronik markaz tushunchasiga sinxronik chekka tushunchasi qarama-qarshi turadi. Lingvistik hodisa tarqalishining chekka nuqtasi ma'lum bir hodisaning markazdan boshqa hududlarda onda-sonda uchrashi yoki kam uchrashi xos bo'lgan mintaqasi orqali belgilanadi. 5-xaritaga diqqat qilsak, **gilagay** izoglossasining o'z markazidan ancha g'arbda joylashgan mintaqalarida uchrashini ham ko'ramiz. Mana shu hudud **gilagay** izoglossasining sinxronik chekka mintaqasi sanalishi mumkin. Chekka arealogiyada hamisha bir nechta bo'ladi. Chunonchi, **gilagayning** chekka areali tarzida 18, 19, 20, 30, 36, 58, 60, 61 aholi punktlarini ko'rsatish mumkin. Yoki **dalama, palla** sinxronik markazi, asosan, Qiziltepa mintaqasida joylashgani holda uning chekkalarini Toshrabot, G'azg'onda uchratish mumkin.

Izoglossa markazidan hodisa, yuqorida sanab o'tilgan sabablar vositalarida tevarak-atrofga yoyiladi. 5-xaritaga e'tibor bersak, buning yorqin namunasini ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, **gilagay** zonasiga markazi Langar – Zarafshon – Qoracha – Olchinobod mintaqasi bo'lsa, shimoli-g'arba – Ijand, Yangiyo'l,

Olchin, Besrabot yo‘nalishida va janubi-g‘arba Narpay, Uyrot, Karmana, Do‘rman tomonga tarqalgan.

Shuningdek, areal lingvistikada diaxronik markaz va chekka tushunchalari ham mavjud. Diaxronik markaz deganda, ba’zi bir hodisaning ma’lum hududda shakllanganligi va shu hududdan boshqa hududlarga tarqalganligini bildiradi. Diaxronik markazlar qiyosiy-tarixiy tadqiqot natijalari sinxronik kesmalarda berilgan shakldagina shu kesmalarni qiyoslash asosida aniqlanishi mumkin. Diaxronik markazdan ma’lum bir hodisaning boshqa mintaqalarda tarqalgan joylari diaxronik chekka tushuniladi. Jumladan, totor va boshqird tillarida turkiy ~ forsiy ~ arabiylar sinonimiya shunday chekkalardan biri hisoblanadi.

O‘zbek tilida turkcha ~ mo‘g‘ulcha sinonimiyaning uchrashi ashchi ~ bakavul, oshpaz ~ bakavul kabilar diaxronik markaz areali bo‘lsa, buning soqchi ~ qaravul shakli diaxronik chekka areali sanalishi mumkin. Turkiy tillar bo‘yicha, jumladan, ot va olmoshlarning tarqalishi bo‘yicha diaxronik markaz va chekkalarni aniqlash bo‘yicha qilingan asosiy ilmiy ishlardan biri G.F.Blagovaning yuqorida keltirilgan tadqiqotidir. Ayrim o‘zbek shevalari uchun xos bo‘lgan hodisalar markaz va chekkalarini aniqlash bo‘yicha jiddiy izlanishlardan biri A.B.Jo‘rayevning yuqorida keltirilgan tadqiqotidir.

Turkologiya, jumladan, o‘zbek tilshunosligida areal tadqiqotlar shakllanayotgani sababli turkiy tillar uchun xos bo‘lgan hodisalarning (qorluq, o‘g‘uz, uyg‘ur, qipchoq, qirg‘iz, bulg‘or, yoqut kabi guruhlarni har birining o‘ziga xos fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlari – izoglossalari) tarixiy markaz va chekkalarini aniqlash, bu markaz va chekkalarning turli davrlardagi mavqeyi hamda holatini aniqlash ishlari endigina amalga oshirilmoqda.

A.Jo‘rayev ta’kidlaganlaridek, areal lingvistika paradigmasida fokus nuqta – zonadagi maxsus lingvo-areal tizim – markaz yoki zonaning asosiy qismi – dialektlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari aloqalar orqali zonani o‘z-o‘zini tartibga solishni ta’minlaydigan, zonani shakllantira oladigan yirik shahar dialekti, hudud atrofidagi aholi punktlaridir. Bunday bog‘lanishlar lingvoareal yondashuvlarda markazlashtirilgan nuqtalarni belgilash uchun ahamiyatlidir.

Olimning “O‘zbek tilida so‘zlashuvchi massivni dialektal zonalashtirish konsepsiyasida” ko‘rsatilgan 11ta dialekt zonalari uchun 17ta markazlashtirilgan nuqtalar aniqlangan: Andijon–O‘sh, Namangan, Qo‘qon–Marg‘ilon–Farg‘ona, Toshkent, Turkiston–Chimkent, Xiva–Urganch, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz–Kitob, Termiz kabi.

Shuning uchun areal lingvistikada fokus zonasini deganda hodisa konsepsiysi ko‘p bo‘lib, boshqa mintaqalarda tarqalgan hudud tushuniladi.

Areal lingvistikaning maqsadi ham u yoki bu hodisaning tarixiy va hozirgi markazlarini aniqlash hamda tarix, etnografiya, arxeologiya va boshqa fanlarning ma’lumotlariga tayangan holda lingvistik hodisalarning areali to‘g‘risida aniq xulosalar berishdan iborat.

## **8-§. O‘ZBEK TILI MASSIVINI DIALEKT ZONALASH METODIKASI**

---

### **Reja:**

- 8.1. O‘zbekiston va unga chegaradosh bo‘lgan til va dialektlarni zonalashtirish.
- 8.2. O‘zbek tilining 11 dialektal zonasini talqini.
- 8.3. Azonalashtirish (a-zona) tushunchasi.

**Tayanch tushunchalar:** *Dialektlarni hududlashtirish, hududiy o‘xshashlik, dialekt guruhlari, makon, dialektal zona, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz dialektlari.*

O‘zbek tilining dialekt va shevalari uzoq o‘tmishda o‘zbek xalqining tarixiy sharoiti bilan bog‘liq tarzda o‘zaro umumxalq tili bo‘lib birikib borgan va uning ajralmas qismiga aylanib qolgan. Lekin o‘zbek tilining lahjalari va ayrim shevalari orasidagi ko‘pgina farqlar hozirgi vaqtgacha ham saqlanib kelmoqda. Hozirgi kunda o‘zbek shevalari, ularning o‘ziga xos fonetik va morfologik, leksik xususiyatlariga ko‘ra o‘xshash hamda bir-birlaridan farq qiladigan xususiyatlari haqida ma’lumotga egamiz.

O‘zbek shevalari bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda til hodisalari bir makon (hudud) doirasida yaxlit o‘rganilgan va ularning o‘xshash va farqli jihatlari hisobga olinib tasnif qilingan. Shu bois ham dialektologiyada makon hudud ma’nosida bo‘lgan. Areal lingvistikada makon til hodisalarining tarqalish hududlarini belgilaydi. Shuningdek, dialektologiyada bir hududdagi til hodisalarining barchasi, areal lingvistikada bir hodisaning turli hududlarga tarqalishi o‘rganiladi. Bunday farqlanish til hodisalarini ikki yo‘nalishda o‘rganilganini belgilaydi.

O‘zbek shevalarini areal o‘rganish o‘zbek tili shevalari tizimini tashkil etishda hududlardagi qarluq, qipchoq, o‘g‘uz dialektlarini o‘rganish va dialekt zonalari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash zaruratini yuzaga keltirdi. Buning natijasi o‘laroq, ijtimoiy-tarixiy jihatdan dialektal zonadagi asosiy shevalar yirik shahar dialektlari – markazlashgan nuqtalari ekanligi aniqlandi. Shu sababli til

massivining dialektal-geografik tabaqalanishi va turli shevalarning yirik madaniy va iqtisodiy markazlar atrofida to‘planishi uzoq tarixiy jarayonlar bo‘lib, til massivida hududiy farqlarning shakllanishi murakkab tarixiy, etnografik jarayonlar bilan bog‘liq. Shuning uchun til massivida lingvistik hodisalar o‘rganilganda o‘sha mintaqalarning tarixi, etnogeografik ma’lumotlari ham nazarda tutiladi.

Ma’lumki, til zonasi yaqin tillarni yaqinlik darajasi va bir fokus nuqtasiga ko‘ra birlashtiradigan hududdir. Dialekt zonasi – u yoki bu tarixiy va etnografik hududga ko‘proq yoki kamroq to‘g‘ri keladigan markaz bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi turli xil dialektlarning doimiy to‘plamidir. Dialekt zonalari zanjiri-yaqin o‘zaro ta’sir va moslashish natijasida dialect zonalari zanjirga birlashishi mumkin –bu dialect zonalarining o‘ziga xos xususiyatidir. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi massivda ana shunday ikkita uyushma-zanjir tarixan rivojlangan. 1. Sharqiy yoki Farg‘ona (Janubi-Sharqiy Farg‘ona, Shimoliy Farg‘ona va Janubi-G‘arbiy Farg‘ona dialect zonalari); 2. Markaziy-Janubiy (Buxoro, Samarqand, Yuqori Qashqadaryo, Quyi Qashqadaryo va Surxondaryo dialect zonalari). Bu hudud shevalarining lingvistik xususiyatlari alohida yaxlit tarzda dialectologlar tomonidan tavsif etilgan, ba’zi hududdagi shevalar bo‘yicha lingvistik xaritalar yaratilgan.

O‘zbek tilli massivni hududiy tartiblanishi lingvoareal taksonlarni joylashtirishda ularning o‘zaro ta’siri va evolyutsiyasi natijasida o‘zbek tilida so‘zlashuvchi massivning tizimliligi ushbu massivni tashkil etuvchi taksonlarning o‘zaro bog‘liqligidadir.

A.Jo‘rayev ta’kidlaganlaridek, o‘zbek tilli massivning ekstensional takson sifatidagi asosiy xususiyatlarini quyidagi belgilar xarakterlaydi: o‘zbek tilli massivning murakkabligi; massivning areal turli-tumanligi; areal tartiblanishi; tizimliligi, butunliligi, til va dialectning makon va zamonda uzluksizligi, lingvoareal taksonlarning o‘zaro ta’siri, til massivida lingvoareal jarayonlarning zamon sathida tartiblanishi kabi. O‘zbek tili massivi maydoni turli xil ko‘rinishga ega. Buning birinchisi til massivini dialektal mintaqa, ikkinchisi nomintaqaviy (azonal) qismlarga ajratilishidir.

Til va dialektning makon va zamonda uzlusizligi va diskretligini inobatga olish lingvistik – sohaviy taksonlarning makon va zamonda o‘zgaruvchanligi haqidagi ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish imkonini beradi. Lingvoareal taksonlarning evolyutsiyasi doimiy va uzlusizdir. O‘zbek tilli massivdagi lingvoareal taksonlarning o‘zaro ta’siridagi muhim bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

Dialektlarni zonalashtirishning asosiy usullari dialect zonalarni makon va zamonda ma’lum bir lisoniy hududdagi yaxlit tizim sifatida aks ettirishi kerak.

Til massivining dialect zonalashtirish jarayonida quydagilarga e’tibor berish lozim: a) ishchi gipotezani yaratish; b) dialectlarni zonalashtirish sxemasini asoslash; v) aniqlangan dialect zonalarini o‘rganish. Lingvistik massivning dialectal zonalligi to‘g‘risidagi qoidani yagona va universal deb hisoblash mumkin emas, uning doirasida lingvistik massivning barcha dialectal xilma-xilligi joylashtirilishi mumkin. Ideal shaklda dialect zonaliligi saqlanmaydi, chunki tillar qatorida bir vaqtning o‘zida “azonal” umumiyligi nomi ostida birlashtirilgan “pozitsiyalar” qonunlari mavjud ekanligini ta’kidlaydi. (A.Jo‘rayev, 1991. 62).

Til massivi dialectining ishchi gipotezasini yaratishda ushbu lingvistik hududning dealektik va geografik farqlanishi, ma’muriy bo‘linishning tarixiy evolyutsiyasi, mavjud bo‘lgan tarixiy-etnografik mintaqalarga tayanishi inobatga olinadi. Ushbu tarixiy-etnografik mintaqalarda turkiyzabon tillarning qaysi mintaqaviy tizimiga kirishini ham hisobga olish kerak. Masalan: O‘rta Osiyo, Kavkaz, Markaziy Osiyo va hokazo. Geografik muhitni tarixiy-etnografik hamda dialect-tilga oid jarayonning harakatlanish va namoyon bo‘lish maydoni sifatida ham qabul qilsa bo‘ladi. Dialect hududlarining farqlanib ajratilishi mintaqaviy va mahalliy omillar sababli sodir bo‘lgan.

Dialektlarni zonalashtirish sxemasini aniqlashda zona hosil qiluvchi kuchlarni – zona shakllanishining markaziy nuqtasini aniqlash lozim bo‘ladi.

Ma’lumki, turkiy til makonining o‘zbek tilli massivi O‘rta Osiyo mintaqasida joylashgan. O‘rta Osiyo va Kavkaz turkiy tillarini o‘rgangan N.Z.Gadjiyeva ular o‘rtasidagi farqlarni ham ko‘rsatib o‘tgan. O‘rta Osiyo

mintaqasi tarixiy-geografik jihatdan bir butunlikni tashkil qilsa-da, ichki jihatdan bir-biridan farqlanadi. O‘rtal Osiyoning markaziy qismida tekisliklar, chekka qismida tog‘lar mavjud. O‘zbek tilli massivi cho‘zilgan Markaziy Osiyoning markazidagi ushbu tilning o‘ziga xosligiga ham shular sabab bo‘lgan.

O‘zbek tilida so‘zlashuvchi massivning tuzilishi va rivojlanishi lingvoareal dialekt-lingvistik munosabatlar usullarining murakkab uyg‘unlashuvi natijasidir. A.Jo‘rayevning dialektlarni zonalashtirish konsepsiyasida markazlashtirilgan nuqtaning tavsifi zonani shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan shahar dialektining tavsifini nazarda tutishi, lingvoareal yondashuv fokus nuqtasini zonadagi maxsus lingvoareal tizim-markaz sifatida tushunish imkoniyatini berishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, konsepsiada zonalar ichidagi markazlashtirilgan nuqtaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari aloqalari ushbu zonaga kiritilgan dialektlarning tizimli qiyosiy tavsifdan so‘ng to‘g‘ri o‘rganilishi, o‘xshash, lekin zonadan tashqariga chiqib, nafaqat berilgan dialekt zonasiga, balki qo‘sni dialekt zonalari va azonallariga ham kiruvchi dialektlarni tizimli va qiyosiy tavsiflash mumkinligi ta’kidlangan. Dialekt zonasida o‘zaro ta’sir qiluvchi dialektlarning farqlovchi belgilari markazlashtirilgan nuqtalar va zonaning yaxlit tashkil etilishi ta’sirida rivojlanish jarayonida o‘zgarishlarga uchraydi.

## **9-§. O‘ZBEK TILIDA SO‘ZLASHUVCHI MASSIVNI DIALEKTAL ZONALASHTIRISH**

---

### **Reja:**

- 9.1. Fokus nuqtasi.
- 9.2. Tillar zonasi.
- 9.3. Dialektal zona.
- 9.4. Jahan tillarini zonalashtirish masalasi.
- 9.5. Zona va til oilasi munosabati.

***Tayanch tushunchalar:*** *Fokus nuqtasi, tillar zonasi, dialektal zona, jahon tillarini zonalashtirish masalasi, zona va til oilasi munosabati.*

Til massivining dialektal-geografik bo‘linishi va turli shevalarning yirik madaniy va iqtisodiy markazlar atrofida yagona jamoaga birlashishi uzoq tarixiy jarayondir. Bu ajratilmas obyekt hududiy farqlarining shakllanishi murakkab tarixiy, etnogeografik jarayonlar bilan bog‘liq. Shu sababli ham ma’lum bir zonani til va dialektlarini nafaqat lingvistik, balki tarixiy, etnogeografik jihatdan ham o‘rganishni talab qiladi. Shuni e’tiborga olgan qator olimlarimiz, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi massivning dialekt zonalashtirishning usullarini yaratishga harakat qilishgan.

Dialektlarni zonalashtirish dialektal lingvistik muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini mukammalroq bilish, hududiy o‘xshashlik sabab-natijalarini aniqlash imkoniyatini beradi. Zonalashtirish til massivining turli qismlarida dialekt guruhlari farqlanishini ko‘rsatuvchi belgilar haqida etarli ma’lumot to‘planganda amalga oshiriladi. O‘zbek tili ko‘p dialektli tillardan hisoblanadi. Bu hol uning o‘ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti va o‘zbek millatining o‘tmishdagi xilma-xil etnik guruhi bilan izohlanadi.

Areal lingvistikada sinxron dialekt zonalashtirish quyidagilarga amal qiladi. Asosan hozir amalda bo‘lgan omillarni, ya’ni yaqinda paydo bo‘lgan va ularning izlari dialekt zonalari tarkibida saqlanib qolganligini, dialekt–til tizimini tashkil

qiluvchi zonaning markazlashtirilgan nuqtasi mavjudligini, bu erdag'i shevalar birikmasining tabiatini, o'zaro ta'sir qiluvchi dialektlarni hisobga oladi.

Hatto geografik olimlar ham O'zbekiston'dagi tarixiy, geografik va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olib, 5 ta hududni ajratadilar: Shimoliy-Sharqiy (Sirdaryo va uning irmoqlari Chirchiq va Angrenning o'rta oqimi), Sharqiy (Farg'onan vodiysi), Markaziy (Zarafshon vodiysi, Qizilqum), Janubiy O'zbekiston (Qashqadaryo, Sheroboddaryo va Surxondaryo vohalari), Shimoliy-G'arbiy (pastki Amudaryogacha etib boradi).

O'zbek shevalarini amaliyotdagi paradigmasi asosida tasniflashda juda katta ilmiy tadqiqotlar bajarilgan. Jumladan, o'zbek dialektlarini hududiy-ma'muriy tamoyillar asosida tasniflashda G.Vamberi, Ser Ali Lapin, I.I.Zarubin; tarixiy-madaniy va hududiy-ma'muriy yondashuvlar A.N.Samaylovich, Ye.D.Polivanov, G.O.Yunusov, V.V.Reshetov; tarixiy-madaniy va hududiy-ma'muriy yondashuvlar hamda fonetik hodisalar bilan birgalikda K.K.Yudaxin, A.K.Borovkovlar tomonidan tasniflangan. Shuningdek, K.K.Yudaxin tasnifida etnogenetik yondashuv, A.K.Borovkov tasnifida dialektal ma'lumotlar inobatga olingan. Shuningdek, V.V.Reshetov o'zbek shevalarini qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalari asosida tasnif qilgan. Bu tasnif asosida o'zbek shevashunosligida katta tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek shevalari tasniflari haqidagi juda ko'plab ma'lumotlar adabiyotlarda keltirilgan. Shuningdek, "O'zbek dialektologiyasi" darsliklarida ham o'zbek shevalarining tasniflari keng izohlangan. O'zbek dialektlarining mazkur tasniflari zamonaviy tilshunoslikda o'zbek shevalarini zonalashtirish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Areal lingvistikaning yangi paradigmasi asosida o'zbek tilli maydonni mintaqalashtirish: dialektal mintaqqa (dialektnaya zona) va nomintaqaviy (azonal) qismlar rivojida tadbiq etish usullari keng tahlil qilinib, o'zbek tilli massivning dialekt-geografik farqlanishi, shevalarning turli tasnif va tavsiflarda o'z aksini topganligi, O'zbekiston'dagi hududiy ma'muriy bo'linishning tarixiy ma'lumotlari va tarixiy geografiyasiga oid materiallar asosida o'zbek tilining dialektal zonalarini quyidagicha belgilaydi (A.Jo'rayev, 1991. 66).

1. Janubi-Sharqiy Farg‘ona dialektal zonasi. Zonaning markazlashgan nuqtalari: Andijon, O‘sh shevalari (qarluq dialektlari), Andijon va O‘sh viloyatlarida joylashgan .
2. Shimoliy Farg‘ona dialektal zonasi. Zonaning markazlashgan nuqtasi: Namangan shevasi. Namangan viloyatida joylashgan.
3. Janubi-G‘arbiy Farg‘ona dialektal zonasi. Zonaning markazlashgan nuqtalari: Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona shevalari (qarluq dialektlari), Farg‘ona viloyati hududida joylashgan.
4. Toshkent dialektal zonasi. Zonaning asosiy nuqtasi Toshkent shevasi (qarluq dialekti), Toshkent viloyati hududida joylashgan.
5. Janubiy Qozog‘iston dialektal zonasi. Zonaning markazlashgan nuqtalari: Chimkent va Turkiston shevalari (qipchoq belgilari qorishgan qarluq shevalari), Qozog‘istonning Chimkent viloyati hududida joylashgan.
6. Xorazm dialektal zonasi. Zonaning markazlashgan nuqtalari: Urganch va Xiva shevalari (o‘g‘uz shevalari), Xorazm viloyati, Janubiy Qoraqalpog‘iston va Turkmanistonning Tashavuz viloyati hududlarida joylashgan.
7. Buxoro dialektal zonasi. Zona markazi: ikki tilli (o‘zbek-tojik ikki tilliligi) Buxoro shevasi. Buxoro viloyati hududida joylashgan.
8. Samarqand dialektal zonasi. Zonaning markazlashgan nuqtasi: Samarqandning ikki tilli (o‘zbek-tojik ikki tilliligi) dialekti. Samarqand viloyati hududida joylashgan.
9. Yuqori Qashqadaryo dialektal zonasi. Zonaning markazlashgan nuqtalari: Shahrисабз va Kitob shevalari (qarluq dialektlari) Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida joylashgan.
10. Quyi Qashqadaryo dialektal zonasi. Zonaning markazlashgan nuqtasi: Qarshi shevasi (qarluq shevasi). Qashqadaryo viloyatining g‘arbiy qismida joylashgan.
11. Surxondaryo dialektal zonasi. Zonaning markazlashgan nuqtasi: Termiz shevasi (qarluq shevasi). Surxondaryo viloyati hududida joylashgan.

Shuningdek, o‘zbek tilli massivning asosiy azonal zonalarini ko‘rsatib o‘tgan.

a) Jizzax-Sirdaryo azonal zonasasi. Toshkent va Samarqand dialekt zonalari oralig‘ida. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududini egallaydi. Ushbu hudud shevalari yuzasidan o‘rganilgan tadqiqotlarda qipchoq va qarluq shevalariga xos bo‘lgan holatlar o‘g‘uz shevalarida ham kuzatilgan, shuningdek, o‘zbek va tojik, o‘zbek va qozoq tillarining o‘zaro ta’sir orollari qayd etilgan.

b) Chorjo‘y azonal zonasasi. Buxoro sheva zonasidan janubi-g‘arbda joylashgan. Turkmanistondagi Chorjo‘y viloyatining bir qismini egallaydi. Bu hududda ikki tilli o‘zbeklarning shevalari mahalliy turkman shevalari o‘zaro qo‘silib ketgan.

d) Shimoliy Qoraqalpoq azonal zonasasi. Xorazm shevasi zonasining shimoli-g‘arbida joylashgan. Qoraqalpog‘iston hududining shimoliy qismini egallaydi. Mazkur hududda qipchoq shevasi tipidagi o‘zbek shevalari mavjudligi tadqiq etilgan.

e) Uchquduq-Zarafshon azonal zonasasi. Buxoro shevasi zonasining shimolida joylashgan. Bu erda Buxoro, Navoiy va boshqa viloyatlardan ko‘chib kelgan qarluq, qipchoq, ikki tilli sheva vakllarini qayd etish mumkin.

f) Leninobod-Ko‘lob-Qo‘rg‘ontybansk azonal zonasasi. U Tojikistonning uchta viloyati: Leninobod, Ko‘lob va Qo‘rg‘ontybansk hududida joylashgan. Bu hududda qarluq va qipchoq shevalari tipidagi o‘zbek shevalari, o‘zbek va tojik tillarining o‘zaro ta’sir jarayoni mavjud.

g) Alabuqa-AktamTu-ktagul azonal zonasasi. Qirg‘izistonning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan. Ushbu hududda qarluq shevasi tipidagi shevalar va ularning qirg‘iz shevalari bilan o‘zaro ta’siri jarayonlari uchraydi.

h) Jambul azonal zonasasi. Qozog‘istonning Jambul viloyati hududida joylashgan. Bu erda qipchoq va qarluq shevalari vakllari qayd etilgan. Shuni aytish kerakki, dialektal zona bilan azonal zona o‘rtasidagi farq shundaki, dialektlar mavjud bo‘lgan zonada markaz-fokus nuqtasi shaklida ajralib turadi. Sheva

zonalarining markazlashgan nuqtalarida shevalarning qadimiy shakllari , boshqa tillarning ta'siri mavjudligi aniq sezilib turadi.

Dialektal zona bilan azonal zona o'rtasida umumiyoq o'xshash xususiyatlar bo'lsa-da, azonal zonada yuqorida ta'kidlangan markaz – fokus nuqta yo'q.

Ma'lumki, dialekt zonalardagi til hodisalari yaxlit holda 100 yildan ortiq vaqt jarayonida dialektologiyaning tahliliy usullari asosida o'rganilgan. Shunday muhim faktlar til hodisalarini areal lingvistikaning tahliliy usullari asosida o'rganish uchun muhim manba bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham o'zbek shevalarining ko'plab tasniflari o'zbek tilida so'zlashuvchi massiv dialekt zonalarining tarixan shakllangan zanjirlarini ajratib ko'rsatish imkonini bergan. Bunday dialekt zonalari zanjirlaridan: Markaziy-Janubiy zanjiri va Sharqiy (Farg'ona) zanjiri bo'yicha juda katta ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelgan. Bu zanjirlarni quyidagicha izohlash mumkin.

1. Markaziy-Janubiy zanjiri besh dialekt zonasini birlashtiradi: Buxoro, Samarqand, Yuqori Qashqadaryo, Quyi Qashqadaryo va Surxondaryo (birinchi ikkitasi Markaziy dialekt zonalariga, oxirgi uchtasi esa shu zanjir doirasidagi Janubiy dialekt zonalariga kiradi).

2. Sharqiy (Farg'ona) dialekt zonalari zanjiri uchta sheva zonasini birlashtiradi. Janubiy-Sharqiy Farg'ona, Shimoliy Farg'ona va Janubiy-G'arbiy Farg'ona.

Markaziy sheva zonalari (Buxoro va Samarqand shaharlari) markazlashgan joylarda tarixan shakllangan o'zbek-tojik ikki tilliligi keng tarqalgan. Buxoro sheva zonasini uchun mazkur hudud shevalarini o'rgangan M.Mirzayev bunday ikki tillilik shahardan tashqarida ham mavjud ekanligini o'z tadqiqotlarida ko'rsatib quyidagi hududlarni qayd etganlar: Shahar atrofidagi – Shergiron, Chorbakir, Shirbudun aholi punktlarida; Vobkent tumanida – Peshku, Qal'ai Mirishkor, Zandani qishloq fuqarolar yig'ini hududida; Shofirkon tumanida – Chandir, Denov, Quli Hovli qishloqlarida; G'ijduvon tumanida – Sarmijon, Firishkent, Fayzullo Yusupov, Zangar hududlarida, shuningdek, Kogon, Romitan, Sverdlov tumanlarining bir qator qishloqlarida uchraydi.

Samarqand sheva zonalari Samarqand shahri, Urgut, Nurota tumanlarida ikki tillilik keng tarqalgan. Janubiy dialekt zonalari makazlarida (Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Termiz shaharlari) bunday ikki tillilik mavjud emas. Quyi Qashqadaryo va Surxondaryo dialekt zonalarda o‘zbek-tojik ikki tillilik markazdan tashqarida kuzatiladi. Quyi Qashqadaryo sheva zonasiga A.Shermatovning tadqiqotida ko‘rsatilishicha, o‘zbek-tojik ikki tillilik hududlariga Fazli, Qamashi, Parg‘uz, Narti Baland, Mig‘jagul, Koson (Koson tumani), Gulshan, Qo‘shkul, Mobika, Yashilko‘l, G‘uzor (G‘uzor tumani), Xo‘jaibrohim, Beshqutan, To‘dacharbog‘, Boshcharbog‘ (Dehqonobod tumani) qishloqlari kiritilgan. Bu haqdagi ma’lumotlar Quyi Qashqadaryo shevalarini o‘rgangan olim A.Shermatovning tadqiqotida keng tahlil qilingan. Yuqori Qashqadaryo dialekt zonalarda o‘zbek va tojik tilida so‘zlashuvchilar bo‘lsa-da, yuqoridagi tarzda ikki tillilik kuzatilmaydi.

S.Raximovning ta’kidlashicha, Surxondaryo sheva zonasiga uchun o‘zbek-tojik ikki tilliliги asosan Sarosiyo, Toqchiyon, Burapush, Poshxurt, Zarabog‘, Arikusti, Poyg‘aboshi qishloqlari va Boysun markazida kuzatiladi.

Markaziy-Janub dialekt zonalari zanjirida o‘zbek-tojik ikki tilliliги kuzatilishi tabiiy. Chunki bu zanjirning dialekt zonalari o‘rtasida tarixiy, madaniy, iqtisodiy aloqalar bo‘lgan.

A.Shermatov sheva sinonimlari haqida gapirar ekan, sharqiy-janubiy – Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shevalarini qamrab olgan hududni ajratib ko‘rsatdi. Samarqand-Buxoro shevalari atamasini bunday tushunish A.Jo‘rayevning Markaziy-Janubiy sheva zonalari zanjiri haqidagi talqiniga yaqindir. Sababi bu zanjir Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi o‘ziga xos umumiyligini xususiyatlarga ega bo‘lgan dialekt zonalarini birlashtiradi.

O‘zbek tilida so‘zlashuvchi massiv dialekt zonalarda markazlashgan nuqtalarning har birini o‘ziga xos xususiyatlari borligi, fonetik, grammatik, leksik jihatdan yaqinligi, sheva zonalarining qo‘shniliği bilan birlashtirilgan. Buni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

- Buxoro va Samarqand shevalarida / f / fonemasining mavjudligi va Qarshi, Shahrisabz, Kitob shevalarida / p / fonemasi bilan almashtirilgani kabi;

- Toshkent, Navoiy v.sh., Buxoro, Samarqand va Qarshi shevalaridagi /h/ va /x/ fonemalarining farqlanishi;

- Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Kitob shevalarida **kim-nime** elementi bilan olmoshlar ishtirokida yaqinlashish: **kimnime** – bir narsa, **kim qanneq**, bir narsa kabi;

- fe'l shakllarining yaqinlashishi: **kelepti// keloptu** – kelayapti; **boropti** – **borayapti** kabi;

- (i)sh tovush affiksining ustun qo'llanilishi: **kerishtile** – salomlashishdi kabi.

Bu kabi shevalarning hududlararo o'xhash va farqli tomonlari leksika sohasida ham kuzatiladi:

Navoiy v.sh. **nozbo'y**, Bux. **nozbo'y**, Sam. **nozvo'y**, Qashq. **nozvoy**, Xor. **nazvay** – ad. orf. rayxon gul.

Sam., Bux., Nav. v.sh., Yu. Qashq. **tovun**, Toshk. **tovon** – ad. orf. taalluqli.

Nav. v.sh., Qashq. **optova**, Bux., Surx. **oftoba** – ad. orf. obdasta.

Nav.v.sh., Qashq., Bux., Sam. **g'elak**, **g'elakcha** - ad. orf. **Qiyma** (do'maloq yong'oqday qilib ovqatga solinadigan qiyma go'sht).

Sam., Bux., Nav. v.sh., Qashq. **'zz'- chuv** – ad.orf. shovqin-suron.

Nav.v.sh., Qashq., Bux., Sam. **kultaposhak** – o'rta va keksa yoshdag'i xotin-qizlar kiyadigan bosh kiyim.

Bunday tahlillarni ko'plab keltirish mumkin. Bularning barchasi Markaziy-Janubiy dialekt zonalari zanjirining turli dialektlar bilan bog'liqligi natijasida sodir bo'ladi.

Mavjud tavslif va shaxsiy kuzatishlarni umumlashtirib, shuni qayd etamizki, umuman olganda Surxondaryo sheva zonasiga Quyi Qashqadaryo va Yuqori Qashqadaryo sheva zonalariga yaqin; Quyi Qashqadaryo sheva zonasiga Buxoro sheva zonasiga; Yuqori Qashqadaryo zonasiga Samarqandga yaqinroq, o'z navbatida Samarqand va Buxoro sheva zonalari o'zaro chambarchas bog'langan.

Sharqiy (Farg‘ona) dialekt zonalari zanjiri uchta: Janubi-Sharqiy Farg‘ona, Shimoliy Farg‘ona va Janubi-G‘arbiy Farg‘ona sheva zonasini birlashtiradi. Ushbu hududlar bo‘yicha maxsus tadqiqotlar mavjud.

Sharqiy (Farg‘ona) dialekt zonalari zanjirini Radlov Qo‘qon shevalari bilan birlashtirgan. Ser Ali Lapin Farg‘ona shevasini bir butun sifatida ajratib ko‘rsatadi. A.K.Borovkov o‘zining o‘zbek shevalarining ikkinchi tasnifida Farg‘ona shevalarini o‘rta o‘zbek shevasiga kiritgan. Farg‘onaning qipchoq-qoraqalpoq shevalarini shayboniy-o‘zbek shevasi tarkibiga, Namangan shevasining “umlaut” shevalarini alohida tarkibga kiritgan. V.V.Reshetov o‘zbek shevalarini qarluq-chigil-uyg‘ur shevasi tarkibiga kirgizishda Farg‘ona shevalari guruhini ajratib ko‘rsatib, uni to‘rt dialektga ajratgan: 1) Namangan; 2) Andijon-Shahrixon; 3) O‘sh-O‘zgan; 4) Marg‘ilon-Qo‘qon. V.V.Reshetov shu tasnifida o‘zbek tilining qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilarining Farg‘ona vodiysi yashashini qayd etgan. A.Aliyev Namangan shevalari ostida “umlaut”, Toshkent tipi, Farg‘ona tipi va qipchoq-qoraqalpoq shevalarini ajratadi. Bu talqin A.Jo‘rayevning Shimoliy Farg‘ona sheva zonasi haqidagi qarashlariga yaqin turadi. Shuningdek, E.D.Polivanov o‘z tasnifida Farg‘ona vodiysi uchun chig‘atoj shevalari guruhi tarkibida shevalarning uch turini: Marg‘ilon-Qo‘qon, Andijon-Shaxrixon va Namangan viloyatining “umlaut” shevalarini, qipchoq guruhida esa Farg‘onaning qoraqalpoq shevalarini ajratib ko‘rsatadi. A.Jo‘rayev Ye.D.Polivanov tasnifiga tayangan holda mahalliy shevalarning uch guruhini markazlashgan nuqtalar atrofida birlashtirgan. 1) Andijon-O‘sh; 2) Namangan; 3) Qo‘qon-Marg‘ilon-Farg‘ona.

Sharqiy (Farg‘ona) sheva zonalari zanjirida Markaziy-Janubiy sheva zonalaridagi asosiy markazlashgan nuqtani topib bo‘lmaydi. Ushbu zonaning markazlashgan nuqtalari Andijon, Namangan, Qo‘qon shevalari eng kuchli bo‘lsada, markazlashgan nuqtalar (Andijon-O‘sh)-(Namangan)-(Qo‘qon-Marg‘ilon-Farg‘ona) kabi katta zonalararo ekvivalentdir. Mazkur zanjir dialekt zonalariga tegishli markazlashtirilgan nuqtalarining munosabati o‘rganilmagan. Ammo, ularning ba’zi va o‘ziga xos belgilari dialektologlarning tadqiqotlarida kuzatiladi.

V.V.Reshetov uyg‘ur tilining o‘ziga xos belgilari, umlaut unsurlari to‘g‘risida shunday fikrlarni bildiradi: Andijon, O‘sh va boshqa dialektlarning genezisi, Namangan viloyati shevalar negizida joylashgan o‘sha nutqni til osti sifatida tan olmasak tushuntirib bo‘lmaydi (Reshetov, 1963. 39.) Sh.Nosirovning fikricha, Qo‘qon shevasi uchun umlaut hodisasi xos emas. Uning fikricha, Qo‘qon shevasini Andijon va Marg‘ilon shevalariga yaqinlashtiruvchi uni Toshkent tipidagi shevalardan ajratib turuvchi hodisa chuqur tillilar (q, g‘, h)dan oldin (a) etimologik unlining qo‘llanishidir. O‘sh shevasida esa a/o unlilarining parallel ishlatalishi (Nosirov, 1960. 171.).

Mazkur hudud shevalarining morfologik xususiyatlaridan Farg‘ona vodiysi shahar shevalarining yaqinlashishi va divegensiyasi jihatidan eng muhimi sifatida hozirgi zamon ko‘rsatkichi -yep (Andijon, O‘sh, Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona) va masalan, Namangan, Shimoliy Farg‘ona (Namangan) dialekt zonasining markazlashgan nuqtasi hozirda **borotti// borutti // boryapti// kelyapti** shakllarining yonma-yon mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bu zanjirning dialekt zonalari nuqtalari bilan ta’siri ekanligidadir.

S.Ibrohimov Andijon shevasiga atrofdagi qipchoq shevalarining ta’sirini qayd etgan. Andijon shahri atrofida joylashgan qipchoq-qoraqalpoq shevalarida -digan fe’l shakli - **borodog‘on**, Andijon shevasining o‘zida **borad’gen** va **boradog‘on** ikki xil shaklda talaffuz qilinadi. S.Ibrohimov va A.Mamatovlarning ko‘rsatishlaricha, Andijon shevalarida qipchoq shevalariga xos xususiyatlarning yonma-yon yashashida namoyon bo‘lgan “j”lanish holatlari ham uchraydi: **yur//jur, yomon//jomon; p>v o‘tishi teve-tepalik, tap//tovip-toping** va b. Janubi-Sharqiy va Janubi-G‘arbiy Farg‘onaning markazlashgan nuqtalarida **anov-u, manov** mana bu ko‘rsatish olmoshlarining qo‘llanilishi, tushum kelishigi qo‘shimchasi -ni -di, -ti tarzida qo‘llanilishi kuzatiladi: **uydi ichi** – uyning ichki qismi kabi.

Sharqiy (Farg‘ona) dialekt zonalari zanjiri qipchoq shevalari Markaziy-Janubiy zanjirning janubiy dialekt zonalaridagi qipchoq shevalari bilan qiyoslaganda ancha kuchsizlangan. Barcha sheva zonalarida qipchoq va qarluq shevalari tipidagi dialektlarning o‘zaro ta’siri, shuningdek, o‘zbek va uyg‘ur

shevalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, asosan, Janubi-Sharqiy va Shimoliy Farg‘ona zonalarida mavjud, shuningdek, o‘zbek va tojik shevalari zanjirning barcha dialekt zonalarida, ayniqsa, ushbu hududlarda turli darajalarda bo‘ladi. Bu zanjir dialekt zonalarining markazlashgan nuqtalari qarluq tipidagi shevalar bo‘lib, ularda Buxoro va Samarqand kabi o‘zbek-tojik ikki tillilik keng tarqalmagan.

A.Jo‘rayevning o‘zbekzabon massivni dialekt zonalashtirish konsepsiyasida dialekt zonalari, alohida dialekt zonalari va azonal hududlari zanjirlarini taksonomiya uchun ajratib ko‘rsatish, qarama-qarshi vazifasi qo‘yilgan, shuningdek, empirik ma’lumotlarning hududiy talqini, evolyutsion hodisalarining qaysi doirasini tushunishga imkon berishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, dialekt zonalari zanjirli rivojlanishining mohiyati shundan iboratki, u yoki bu zanjirga kirgan sheva zonalari yagona o‘zgarish va rivojlanish bosqichlarini ifodalaydi.

## **10-§. DIALEKTAL KONTINUUM: GEOGRAFIK VA IJTIMOIY DIALEKTAL KONTINUUM**

---

### **Reja:**

- 10.1. Geografik dialektal kontinuum.
- 10.2. Ijtimoiy dialektal kontinuum.
- 10.3. Markaziy, marginal (arxaik), oraliq, diasistema, klaster, til kompleksi.

**Tayanch tushunchalar:** *Geografik dialektal kontinuum, ijtimoiy dialektal kontinuum, markaziy, marginal (arxaik), oraliq, diasistema, klaster, til kompleksi.*

Dialektal kontinuum (lotincha continua to‘xtovsiz, muhit degan ma’nolarni bildiradi) shevalarning kichik lingvistik xususiyatlari bilan farqlanishidir. Bu jarayon uzoq yillarning mahsuli va ma’lum bir hudud bilan bog‘liq. Dialektal kontinuumning ikki turi kuzatiladi:

**Geografik dialektal kontinuum** bir geografik zonada joylashgan shevalarning va kelib chiqishi umumiy bo‘lgan xalqlar shevalari doirasida belgilanadi. Masalan: Zarafshon vohasida joylashgan Buxoro dialekti, Samarcand dialekti, Navoiy dialekti tarkibidagi shevalarning ma’lum farqlar bilan ajralib turishi yoki boshqa hududlarda uning uzoq va yaqinligi, joylashishiga qarab ular haqida areal yondashuvlar asosida xulosa qilish mumkin. Ko‘pgina til hodisalarini tushuntirishda geografik omillar nihoyatda muhimdir. Shunday qilib, tillar tarqaladigan geografik muhit turi paydo bo‘lgan tillar yoki dialektlar o‘rtasidagi genetik aloqalarning tabiatiga tubdan ta’sir qiladi. Hududiy chegaralar (suv to‘siqlari, tog‘lar) bo‘lgan geografik muhit ko‘pincha tillar o‘rtasida aniq chegaralarni hosil qiladi. Geografik to‘siqsiz hududda til va sheva vakillari bir-birini juda yaxshi tushunadi, o‘ziga xos dialekt zanjiri hosil bo‘ladi. Shevalardagi farqlar ham hududlarning joylashish o‘rni bilan yuzaga keladi. Dialektlarni hududlashtirish jarayonida bu xususiyatlar yuzaga chiqadi.

Kontinuumning bu turida shevalar bir-biridan hududiy jihatdan uzoqlashgani sari dastlabki shevadan farqli tomonlari ham ortib boradi. Oxirgi sheva mustaqil

dialekt yoki til bo‘lib shakllanishi mumkin. J.K.Chambers va P.Trudgill geografik dialektal kontinuum to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildirganlar: geografik hudud tashqi qirralaridagi shevalar o‘zaro tushunarli bo‘lmasligi mumkin, ammo ular o‘zaro tushunarli zanjir bilan bog‘lanadi. Geografik jihatdan bir-biriga yaqin shevalar o‘zaro tushunarli bo‘lmasligi uchun biron bir joyda to‘liq uzilish bo‘lmaydi, geografik bo‘linish qanchalik katta bo‘lsa, tushunish qiyinligi shunchalik katta bo‘ladi. Vaziyatning bu turi geografik dialektal uzlusizlik deb nomlanadi. Bunday uzlusizlik juda ko‘p. Masalan: Yevropa dialektal uzlusizligiga G‘arbiy Germaniya uzlusizligi kiradi, u odatda nemis, golland va flamand deb ataladigan barcha dialektlarni o‘z ichiga oladi; Norvegiya, shved va daniya shevalarini o‘z ichiga olgan skandinaviya shevasi uzlusizligi; rus, ukrain, polyak va chexlarni o‘z ichiga olgan shimoliy slavyan shevasi uzlusizligi; sloven, serb, makedon va bolgar tillarini o‘z ichiga olgan janubiy slavyan uzlusizligi. Turlicha lingvoareal taksonlar o‘rtasida shartli chegaralar qo‘yilmaydi, yagona til kontinuumi alohida bo‘laklarga ajratiladi. Bu bir-biridan farqlanuvchi so‘zlashuv uslublari aniqlanganda, buning sabablari o‘rganilganda, yagona til massivini qismlarga ajratish uchun zarur bo‘ladi. O‘zbek tilli massivini aniqlashtirish uchun ham chuqur ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilishi zarur.

**Ijtimoiy dialektal kontinuum** tarixiy sharoitlar tufayli qarindosh va qarindosh bo‘lмаган tillar orasida yuz berishi mumkin. Buni boshqa tillardagi kabi o‘zbek tilida ham kuzatish mumkin. Masalan, bu o‘zbek- tojik, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-qoraqalpoq, o‘zbek – turkman xalqlari aralash va qo‘sni yashagan joylarda uchraydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Quyi Qashqadaryo sheva zonasasi Buxoro sheva zonasiga; Yuqori Qashqadaryo zonasasi Samarqandga yaqinroq, o‘z navbatida Samarqand va Buxoro sheva zonalari o‘zaro chambarchas bog‘langan. Shuning uchun ham bu hududlarda tojik – o‘zbek ikki tillilik boshqa hududlarga qaraganda iste’mol doirasi keng. Ikki tillilik va ko‘p tillilik muammolarini o‘rganishda areal tilshunoslikning ayrim metodlaridan foydalaniladi. O‘zbek shevalari bo‘yicha yaxlit holda amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘sha hududning shevasiga xos xususiyatlar keng tadqiq etilgan. Biroq o‘sha hodisaning areali, ular

o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlari, ularning sabablari ko‘rsatib berilmagan. Buning uchun etnografiya va arxeologiyada xalqlarning joylashishi va madaniyatlarning tarqalishi masalalarini o‘rganish zarur bo‘lib, bunda areal usullar qo‘llaniladi.

Dialektal kontinuumning uchta asosiy zonasini ajratish odatiy holdir: 1) markaziy zona; 2) marginal zona (uzoq zona, bu erda kuzatilgan izoglosslar kamroq aniqlanadi). Borodina ta’kidlaganidek, marginal zona markaziy hududga qarshi turadi, shuningdek, u qo‘sni hududlarga qarama-qarshidir. Bu ikki tomonlama qarama-qarshilik ham marginal maydonlarning turlarini aniqlashda tarkibiy qismlardan biridir. Agar birinchi qarama-qarshilik har doim sodir bo‘lsa (kamroq yoki ko‘p darajada), ikkinchisi hech narsa bo‘lmasi ligi mumkin, uchinchisi o‘tish zona bo‘lishi mumkin. Shunga muvofiq lingvistik faktlarning tarqalish sohalari ham belgilanadi – innovatsion, arxaik va tarqoq (o‘tish). Areal tilshunoslikdagi yangiliklar va arxaizmlarni aniqlashda Italiya neolingvistika maktabi tomonidan ishlab chiqilgan areal me’yorlar metodlariga tayanadi.

Zamonaviy areal tilshunoslikning maqsadlarida belgilangan quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur bo‘ladi: Muayyan hududdagi o‘zaro ta’sir qiluvchi tillar va dialektlarning areal xususiyatlarini, areal tipologiyasi tamoyillarini ishlab chiqish, toponomik areallarni aniqlash, hududiy qo‘sni tillar uchun etnolingvistik va sotsialingvistik tipologiyani ishlab chiqish va boshqa shukabilar.

## **11-§. LINGVISTIK GEOGRAFIYA: LINGVISTIK ATLAS**

---

### **Reja:**

- 11.1. Lingvistik karta va atlaslar.
- 11.2. Ularning tuzilishi xususiyatlari.
- 11.3. Masshtab, landshaft.
- 11.4. Kontur kartada ishslash.

**Tayanch tushunchalar:** *Lingvistik karta va atlaslar. Ularning tuzilishi xususiyatlari. Masshtab, landshaft. Kontur kartada ishslash.*

Lingvistik geografiya tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u ma’lum territoriyada tarqalgan til hodisalari (tovushlar, grammatik formalar, so‘zlar)ni aniqlaydi, territorial til xususiyatlarini xalq tarixi, til tarixi bilan aloqador holda qiyoslab, lingvistik xaritalarini yaratish bilan shug‘ullanadi.

Lingvistik geografiya ham dialektlarni hududiy tarqalishini lingvogeografik usulda o‘rganadi Uning eng asosiy xususiyatlaridan biri ma’lum til hodisalarining o‘rni va tarqalish chegarasi xaritalar, atlas vositasida aniq belgilab beriladi. Xarita ham, atlas ham lingvistik geografiyaning ifoda vositasi bo‘lib, uning asosiy maqsadi tilning taraqqiyot qonuniyatları va yo‘llarini, ma’lum bir dialektlarni paydo bo‘lishi va hozir iste’molda qo‘llanish sabablarini, dialect xususiyatlarining adabiy til bilan o‘zaro aloqasi masalalarini yoritib berishdan iborat. Muayyan hududning ma’lum bir lingvistik xususiyatlarining xaritalari yaratilib, to‘plami asosida atlaslar yuzaga keladi.

Lingvistik geografiya XIXasrning o‘rtalarida dialektologik kuzatishlar rivojlangan dialektologlar dialektlar va ularning xususiyatlari to‘g‘risida etarli faktik materiallar to‘plagan joylarda paydo bo‘ldi. Ayrim til hodisalarining hududiy bir-biriga mos kelmaslik holatlarining kuzatilishi lingvistik geografiyaning maydonga kelishiga asos bo‘ldi. Bu bilan bog‘liq dialektal chegaralarning mavjud emasligi haqidagi tasavvur vujudga keldi.

Lingvistik geografiya XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Fransiyada J.Jil’eron va Germaniyada B.Martin, V.Miskalar tomonidan lingvistik atlaslarning yaratilishi bilan rivojlangan. Lingvistik xaritalashtirish dastlab, etnografik xaritalash tarzida bo‘lgan, shuning uchun ham ilk lingvistik xaritalar etnolingvistik xaritalar darajasida tuzilganligini qayd etish mumkin. (Suxachev, 1974. 33).

M.A.Borodina ta’kidlaganidek: lisoniy geografiya faqat tilning ichki tarkibi bilangina bog‘liq emas, u ba’zan tadqiqotchini mamlakat xalqlari, savdo yo‘llari va ayrim aholi punktlari tarixi bilan bog‘liq tilning tashqi tarixi yuzasidan ham kutilmagan natijalarga yo‘liqtiradi. Shuning uchun sheva voqeligining tarqalish chegarasi tadqiq etilayotgan hududni ayrim ma’muriy birliklarga qadimiy bo‘linishi, u yoki bu joylarda dehqonchilik, chorvachilik tarqalish zonasini, shuningdek, aholining turli davrlarda ko‘chishi, uning hududlararo aloqasi kabilar bilan belgilanishi mumkin.

XX asr boshlarida tillar bilan bog‘liq hududiy masalalarni o‘rganuvchi yo‘nalish areal lingvistika emas, lingvistik geografiya yo‘nalishida mashhur edi. Bu masala dialektolog olim A.Shermatovning “Lingvistik geografiya nima?” risolasida keng yoritib berilgan.

Turkiy tillar, jumladan o‘zbek tilining tasniflari ham hududiy va geografik tarqalish tushunchalari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, turkiy tillarning ilk tasnifini bergen Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlar va shevalarining tarqalish hududlarini “Rumdan Chingacha” shaklda geografik chegaralarini ko‘rsatadi.

Lingvistik geografiya, dialektologiya, areal lingvistika tilshunoslik fanining ayni bir sohasining turlicha nomlanishi emas, balki tilning turli tomonlarini turli xil usullar bilan o‘rganuvchi sohadir. Lingvistik geografiya yuzasidan olib borilgan birinchi tajribalar tilni bu yangi metod orqali o‘rganish qanchalik natijali ekanini ko‘rsatdi. Lingvistik geografiya muammolari nazariy rivojlanishining boshlanishi M.Bartoli ilmiy asarlari bilan bog‘liq. Uning neolingvistik (real) ta’limoti til uzluksizligi jihatidan J.Jil’eron, G.Shuxardt, J.Schmidt, A.Shleyxerning qarashlariga to‘g‘ri keladi. M.Bartolining areal nazariyasi bir tomondan, ekstralingvistik omillarning o‘rnini baholab, qiyosiy tarixiy tilshunoslik asoslarini

qayta ko‘rib chiqsa, ikkinchi tomondan lingvistik geografiyaga chuqur nazariyalar kiritganligi tilshunoslikning rivojlanishida o‘rni borligini ko‘rsatadi. Bu bilan olim lingvogeografik tadqiqotlarda makon tushunchasining talqin etilishiga o‘z hissasini qo‘shti. **XIX-XX** asrda tilshunoslikdagi bu yangi yo‘nalishning rivojida juda katta ta’sir ko‘rsatgan. Yevropa lingvogeograflarining alohida o‘rni bor. Lingvistik geografiyaning asoschilari: Fransiyada Jan Jil’eron, Germaniyada Georg Venker, F.Vrede, P.Meyerlar; rus tilshunosligida I.I.Sreznevskiy, A.I.Sobolevskiy, A.A.Shaxmatov kabilardir. Ularning ilmiy asarlari tufayli lingvistik geografiya sohasiga til hodisasining hududiy tarqalishini ko‘rsatuvchi lingvistik kartaga tushirilgan belgi “izoglassa”(izofonema – fonetik belgi, izomorfema – morfologik belgi, izoleksika – leksik belgi) tushunchasi olib kirildi. Bu davrda rus, belarus, ukrain, bolgar, moldavan tillarining dialektologik atlaslari, “Karpat dialektologik atlasi” nashr etildi.

Shuni aytish mumkinki, lingvistik geografiya dialektologiya materiallariga tayanadi. Ammo lingvogeografiya keng hududga ega bo‘lishi va bir vaqtida ko‘plab faktlarni qamrab olishi umumlashtirish hajmining kengligi bilan tasviriy va tahliliy xususiyatga ega bo‘lgan dialektologiyadan ajralib turadi. Buni tilning barcha hodisalarini tarqalishi bo‘yicha mavjud xaritalarda kuzatish mumkin. Lingvogeografiyani o‘rganish obyekti ma’lum bir hududda tarqalgan izoglossalar yig‘indisi yoki landshafti orqali belgilanadi. Lingvistik geografiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tildagi dialektal farqlanishlarni kartalashtirish va dialektologik atlaslar yaratish bilan bog‘liqdir. Bunday atlaslar xilma-xil bo‘lishi mumkin: ayrim hududni aks ettiruvchi atlaslar, turli sistemaga mansub bo‘lgan tillarning tarqalishini aks ettiruvchi va boshqalar.

Lingvistik geografiyaning shakllanishi va rivojlanishida ko‘plab olimlarning jahon tilshunosligida, turkiyshunoslik va o‘zbek tilshunosligida qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, R.I.Avanesov, V.M.Jirmuniskiy, B.A.Larin, M.A.Borodina, N.Z.Gadjiyeva, M.M.Sheraliyev, N.V.Burganov, G.B.Bakirova, N.A.Baskakov, L.A.Pokrovskaya, Ye.V.Severtyan, V.Reshetov,

Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatovlarning lingvistik geografiyaga, lingvistik atlas tuzish muammolariga bag‘ishlangan qator asarlari maydonga keldi.

**Lingvistik atlas.** Lingvistik atlas – ma’lum bir hudud shevaviy o‘xhash va farqlarni o‘zida aks ettiruvchi xaritalar majmuasi. Lingvistik atlas yuzlab, hatto minglab xaritalarni o‘z ichiga oladi. Buning sababi lingvistik atlasning har bir xaritasi alohida bir izoglossa asosida tuziladi. Dialektologiya shevaviy farqlarni qayd qiladi va tavsiflaydi. Areal lingvistika hodisalarini xaritada ko‘rsatadi. Shuning uchun xaritalashtirish arealogik tadqiqotlarning ham usuli, ham natijasidir. Ma’lum bir mintaqa (davlat, til) lingvistik atlasini tuzish areal lingvistikating so‘nggi maqsadidir.

Ma’lumki, ilk marta Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlar yashaydigan hududlardagi urug‘-qabila tillarining hududiy tarqalishi bo‘yicha materiallar to‘pladi va ularni qiyosiy tahlil qilib, xaritada ularning yashash hududini ko‘rsatib berdi. Mahmud Koshg‘ariy bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qilganligini ta’kidlaydi. Bu asarda ayrim shahar va qishloqlar aholisining etnik tarkibi, ijtimoiy tuzumiga oid qisqacha ta’riflar, etnotoponimikasi va ayrim qabila hamda urug‘larning joylashishi to‘g‘risida noyob ma’lumotlar keltirilgan .

A.Shermatovning asarlarida qayd etilishicha: Lingvistik atlas xaritalari 2 xil prinsipga asoslanib tuziladi. (Shermatov,1991,9).

- 1) Dialektologik prinsip;
- 2) Umumilingvistik yoki areal-lingvistik prinsip.

Lingvistik atlas tuzishdagi umumilingvistik va dialektologik prinsip hamma atlaslarda barobar saqlanadi, ularning o‘zaro munosabati dastlab material tanlashda ham, xaritalashtirishni amalga oshirishda ham asosiy o‘rin tutadi. Lingvistik atlas uchun material keng ko‘lamdagи savollar majmuasi asosida to‘plansa, dialektologik atlas materiali uchun ma’lum dialektal xususiyatlarni modellashtiruvchi programma asos bo‘ladi. Lingvistik atlas, asosan, 2 xil bo‘ladi: 1) Regional atlas; 2) Zonal atlas.

Regional atlasning vazifasi – u yoki bu regiondagi shevalar tuzilishining eskiz-sxemasini aniqlash va detallashtirishdan iborat. Roman-german tillari

lingvogeografiyasida milliy atlas, regional atlas, makro va mikro atlas terminlari ham qo'llaniladi. O'zbekiston hududini o'z ichiga olgan o'zbek shevalari atlasi tuzilsa, u regional atlas bo'ladi. Yirik zonadagi bir til xususiyatini o'zida to'la aks ettirgan atlas – zonal atlas hisoblanadi. Masalan, Rumin tilining lingvistik atlasi bolqon-roman massivining umumzonal atlasidir. O'rta Osiyo zonasi hududidagi o'zbek shevalari materiallarini qamrab olgan o'zbek tili atlasi yaratilsa, u zonal atlas hisoblanadi.

Tilshunoslik tadqiqotlarida kartalashtirish metodini qo'llash, dastlab XIX asrga to'g'ri keladi. 1821- yilda K.de Monbre tomonidan tuzilgan fransuz shevalari chegaralarini belgilovchi karta Fransiya qirollik jamiyatiga taqdim qilinadi. 1823-yilda D.Mone o'zining lingvistik karta tuzish g'oyasini oldinga suradi. Shuningdek, Venkker, Vrede tomonidan tuzilgan nemis tili atlasi (1876–1926), Marburgdagi nemis dialektologiyasi Markaziy instituti nashr etgan “Nemis leksikologik atlasi”ni ham keltirish mumkin.

Jahon tilshunosligida eng yaxshi dialektologik atlas XX asrning boshlarida tuzilgan Jan Jil'eron, Edmonlarning 12 jildli “Fransuz tili atlasi” (1902–1912) deb topilgan. K.Yaberg va Ya.Yudning 8 jildli Italian-shveysar atlasi (1928–1940) o'sha davrda maydonga kelgan.

Rus tili dialektologik atlasini tuzish XIX asrning ikkinchi yarmida I.I.Sreznevskiy, keyinchalik A.I.Sobolevskiylar tomonidan boshlangan edi. Rus tilshunosligi lingvistik geografiysi ustida 1903-yildan boshlab A.A.Shaxmatov tashabbusi bilan tuzilgan Moskva dialektologik komissiyasi reja asosida ish olib bora boshlaydi. Ular tomonidan 1915-yili “Rus tili Yevropa qismi dialektologik kartalaridan tajriba” nomli karta nashr ettiradi. Bu kartada hozirgi Sharqiy slavyan (rus, ukrain, belarus) tillari va bu tillarning har qaysisining lahjalarga va sheva gruppalariga bo'linishi ko'rsatib berilgan. 1935-yilda B.A.Larin, F.P.Filin boshchiligida Moskva FA rus tili institutida “Rus tili atlasi “tuzishga kirishiladi. 1944-yilda R.I.Avanesov, B.A.Larin boshchiligida rus tili dialektologik atlasini yaratish ishi boshlanadi. 1951-yilda “Moskva sharqidagi Markaziy oblastlar rus

xalqi shevalari atlasi”, 1952-yilda “Shimoli-g‘arbiy oblastlar rus xalq shevalari atlasi” tuzib chiqildi.

Dialektolog olim A.Shermatov ta’kidlaganlaridek, lingvistik atlas natijasida aytilgan xulosalar undagi alohida kartalar darajasidan va ularning o‘zaro bog‘lanishidan kelib chiqadi. Lingvistik atlas o‘zida ma’lum tilning hamma aspekti bo‘yicha material mavjud bo‘lishi bilan shu tilning nazariy va amaliy fonetikasi, grammatikasi va leksikologiyasi taraqqiyotini chuqur o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi.

Lisoniy xaritalarda belgilangan til hodisalari tarqalgan hududlarni tadqiq etish lisoniy hodisalarning tarixini belgilaydi, tillarning o‘zaro ta’sirini ochib beradi, ularning taraqqiyotini davrlashtirish imkoniga ega bo‘lishga ko‘maklashadi. Shuning uchun ham xalq shevalarini lisoniy jug‘rofiy usulda o‘rganish til taraqqiyotining yangi-yangi qirralarini ochib berishiga imkon yaratadi. Bunga erishish uchun til hodisalari tarqalgan hududni tadqiq etish katta yordam beradi. Sheva hududlarining mohiyati esa, ularni belgilovchi sheva chiziqlariga mos keladi. Sheva chiziqlari har xil ko‘rinishga ega bo‘ladi. Sheva chiziqlarini birlashtiruvchi ko‘rinishlar ajratib ko‘rsatilgan hududlarning xususiyatlari bo‘yicha taqqoslashga asoslanadi. Shuning uchun tadqiq etilayotgan hudud uchun xos bo‘lgan, xaritalarda aks etgan obyekti ma’lum dialektal tasnifotga tayanadi.

Lingvistik atlaslar tuzish ishiga ma’lum bir til yoki mintaqa shevalarining hududiy mintaqaviy tavsifi yakunlangandan keyingina kirishish mumkin. Chunki shundan keyingina ma’lum bir til shevalarning yoki tillar oilasi yo guruhidan u yoki bu tilning bir-biridan farq qilishiga xizmat qiladigan eng asosiy fonetik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik, derivatsion o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Har bir o‘xshashlik va farqning (innovatsiyaning) qaysi hududlarda, qaysi shevalarda qo‘llanilishi aniq tavsiflanadi. Shundan keyingina arealogik tadqiqotlarga va lingvistik (dialektologik) xaritachilikka kirishish mumkin.

Areal lingvistika hodisalarni xaritada ko‘rsatadi. Shuning uchun xaritalashtirish arealogik tadqiqotlarning ham usuli, ham natijasidir. Ma’lum bir mintaqa (davlat, til) lingvistik atlasini tuzish areal lingvistikaning so‘nggi

maqsadidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday atlas geografik atlasga o'xshab bir turdag'i xaritadan iborat bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, lingvistik atlas yuzlab, hatto minglab xaritalarni o'z ichiga oladi.

Lingvistik xaritada ma'lum bir umumiylintaqa mana shu yuzlab yoki minglab xaritalarda aynan takrorlanadi. Chunonchi, darslikka ilova qilingan **3-ilovaga** e'tibor qiling. Bu ilovada Navoiy viloyatida urug'-qabila, millat oykonimlari (yashash joylari) 208 nuqtasi ko'rsatilgan. Navoiy viloyati o'zbek shevalarining leksik xususiyatlariga bag'ishlangan N.Murodovaning doktorlik dissertatsiyasida 100 ta xarita ilova etilgan va 4-100-xaritalarda mana shu **3-ilovada** ko'rsatilgan mintaqa aynan takrorlanadi. **3-xaritani** ilova etilayotgan **5-xarita** bilan qiyoslasangiz bunga amin bo'lishingiz mumkin. Buning sababi shundaki, lingvistik atlasning har bir xaritasi alohida bir izoglassa asosida tuziladi. Areal tadqiq va umumlashtirish uchun qancha ko'p tadqiq va tavsif birliklari olingan bo'lsa, xaritalar soni shuncha ko'p va lingvistik atlas shuncha mukammal bo'ladi.

Lisoniy xaritalarda belgilangan lisoniy birlıklarning tarqalish hududini tadqiq etish, tillarning o'zaro aloqasini ochib berishga, til hodisalarining tarixini, ularning taraqqiyot bosqichlarini belgilashga yordam beradi. Lisoniy jug'rofik vazifalarni hal etish tanlangan lisoniy materialning qadimiyligiga bog'liq. Masalan, sheva leksikasining mavzuiy guruhlari obyektni tekshirish uchun muhim manba hisoblanadi, chunki uning ko'pchilik tarkibiy qismlari qadimiyydir. Shu bois ham ular qadimiyy hududiy leksik oppozitsiyalarning paydo bo'lishiga imkon yaratishi, tabiiy.

Bugungi kunda o'zbek shevalari hududini lisoniy-jug'rofik tadqiq etish qator dolzarb muammolarni hal etishga yordam beradi. Shevalarning tashqi chegarasini, ichki tasnifini tadqiq etish, tahlil etilayotgan shevalarning umumo'zbek dialektal mikrohudud tizimidagi o'rnini belgilash ana shu muammolardan eng muhim hisoblanadi.

O'zbek shevalarining areal tarqalishini o'rganishda o'zbek tilli massivini tashkil etuvchi barcha hududlarida ilmiy izlanishlar olib borish lozim. Chunki

o‘zbek shevalari tarqalgan hududlar areal yo‘nalishda o‘rganilmagan. Shu bois ham “O‘zbek shevalarining lingvistik atlasi” yaratilmagan. Bunday xarita o‘zbek tilshunosligida, albatta, yaratilish zarurligi davr talabidir.

O‘zbek shevalarini areal o‘rganish va ularning lingvistik xaritalarini yaratish shevalarning tarqalish o‘rinlari, tilning taraqqiyot qonuniyatları va yo‘llarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, “O‘zbek shevalarining dialektologik atlasi”ni yaratilishi uchun asos bo‘ladi. Albatta, buning uchun o‘zbek shevalarini areal o‘rganish bo‘yicha hali juda katta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, xaritaning lisoniy materiallari tadqiq etilayotgan hududdagi o‘zbek shevalari tizimining tashqi dialektal chegarasi va o‘zbek tilining boshqa dialektal zonasini bilan aloqasini aniqlash imkonini beradi.

Lingvistikatlasning ahamiyatli tomoni shundaki, birinchidan, u ma’lum mintaqaning, jumladan, O‘zbekistonimizning lisoniy manzarasini yorqin aks ettiradi. Ikkinchidan, adabiy til me’yorlarini to‘g‘ri belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan, adabiy til xazinasini o‘zbek xalqi hayoti va turmush tarzi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan minglab voqeanning hodisalari nomlarini adabiy tilga olib kirish, shu bilan adabiy til lug‘at boyligini keskin oshirishga manba bo‘ladi. Chunonchi, Navoiy viloyat shevalarida oyoq kiyimsiz degan so‘z o‘rnida poyich dialektal lesemasi mavjud. Adabiy tilda shu narsani aniq ifodalaydigan so‘z yo‘q. Yoki Surxondaryo, Qashqadaryo shevalarida voyaga etgan erkak itni atovchi arlon so‘zi mavjud. Bu kabi so‘zlarni ko‘plab keltirish mumkin. O‘zbek adabiy tilida uchramaydigan so‘zlar tavsifiy-hududiy dialektologik ishlarda har bir sheva bo‘yicha qayd etilgan. Lekin bu qaydlar dissertatsiyalarning ilovalarida, maqolalarda qolib ketdi. Lingvistik atlas shunday so‘z va hodisalarni sistemalashtirgan, ulardan qay biri qay darajada tarqalgan, qaysilari umummiliy boylik darajasida xalqqa etkazish ma’qul ekanligi haqida aniq axborot beradigan manba bo‘lardi. Lingvistik atlas til ta’limini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda, shevaviy farq va xatolarning oldini olishda, umummiliy me’yoriy adabiy tilni keng ommalashtirishda ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Lingvistik karta – sinxronik tadqiqot natijasi hisoblangan lingvistik kartada til tarixining hamma davri o‘z aksini topishi mumkin. Lingvistik kartalar 2 xil metodga asoslanib tuziladi.

1) Lingvistik strukturani tadqiq qilish metodi.

2) Til landshaftini o‘rganish metodi.

Bu hol kartalashtirish metodi bo‘yicha va kartalashtirishning asosiy xarakterinhamda lingvistik jihatdan farqlanadigan kartalarning ikki xil asosiy tiplarining tuzilishiga sabab bo‘ldi:

1) Sintetik karta.Bu karta roman lingvogeografiyasida keng tarqalgan bo‘lib,unda har bir regiondagi formalar kartaga bevosita yoziladi.

2)Analitik karta.Bu kartada shartli belgilar sitemasiga,simvollarga suyaniladi va bir-biridan farqlanadigan belgilarning kelib chiqishi taxmin qilinadi.Butip karta nemis shevashunosligi matabiga xosdir.Agar sintetik karta fonetik transkripsiya yoki yozuv bilan farqlansa,analitik karta esa grafik tuzilishi har xil bo‘lishi mumkin.

Har bir kartani tuzishda dastlab kartalashtirilgan til hodisasining tarqalish chegarasi – izoliniyasi aniqlanish kerak. Keyin turli xil sheva va dialektlardagi bir xil til hodisalari izoglossa sifatida kartalashtiriladi.Izoglossalarning keng hududlarga tarqalishidaqadimda aloqa yo‘llari va daryo oqimi katta o‘rin egallagan.

Atlas kartalari til tuzilishida harxil o‘rin tutadigan hodisalarni o‘z ichiga oladi.Ya’ni kartalashtirilgan dialektal farqlar bir-biri bilan qiyoslanadigan yoki qiyoslanmaydigan bo‘lishi mumkin.Atlas kartalari qiyoslanadigan dialektal hodisalarga bag‘ishlangan bo‘lishi,ular kartada aks etgan til hodisasining dialektlardagi bir-biriga chog‘ishtirish mumkin bo‘lgan har xil variantlarini o‘z ichigaolishi lozim.

O‘zbek shevalarini areal o‘rganish va ularning lingvistik xaritalarini yaratish shevalarning tarqalish o‘rinlari, tilning taraqqiyot qonuniyatları va yo‘llarini aniqlashga yordam beradi .Albatta, buning uchun o‘zbek shevalarini areal

o‘rganish bo‘yicha hali juda katta ilmiy tadqiqot ishlari zamonaviy yangi paradigma asosida amalga oshirilishi lozim.

## 12-§. DIALEKT SISTEMATIKASI

---

### Reja:

- 12.1. Til va dialektlar sistematikasi.
- 12.2. Tillarning genealogik va tipologik klassifikatsiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** Dialektologik tadqiqotlar, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz dialektlari.

Dialektologik tadqiqotlarni tizimlashtirish nemis tilshunosligidagi yutuqlarning rivojlanishi bilan yuzaga keldi. Bunga Germaniyada qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, neogrammatik maktab faoliyati, dialektologik tadqiqotlardan lingvistik geografiyaga o‘tish muhim o‘rin egalladi.

O‘zbek shevalari A.N.Samoylovich, Ye.D.Polivanov, G‘.O.Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov tasniflarida o‘zbek shevalari tizimining tarkibiy tuzilishini uch dialekt-qarluq, qipchoq, o‘g‘uz dialektlari asosida bergenlar. Unda o‘zbek tili shevalari tizimining tarixan shakllangan zonal tashkil etilishi tushunchasi dialektologik tasniflarda mavjud bo‘lgan. Bular o‘zbek tilining sheva tizimini katta hajmda o‘rganish imkonini berdi. Biroq dialektologiya sohasidagi tadqiqotlarda dialektlarning o‘zaro ta’siri va o‘zaro bog‘lanishiga, ularni umumlashtirishga ko‘proq e’tibor qaratib, makon tushunchasiga e’tibor berilmagan. Shu bois ham o‘zbek tilshunosligida amaliyotdagi dialekt sistematikasi makon tushunchasiga tubdan mos kelmaydi, yangi lingvo-areal paradigmaga o‘tish dialekt sistematikasini qayta yo‘naltirishni, uni makon tushunchasi bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

Dialekt materialini tizimlashtirishda yangi yo‘nalishda o‘zgartirish bevosa o‘zbek tili shevalari tizimining zonal tashkil etilishi asosli ekanligi bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ham bunga areal tadqiqotlarning ko‘payishi kutilgan natijalarni beradi. Umuman olganda zonal deb aytilayotgan o‘zbek tili dialekt tizimi o‘zbek

tilida so‘zlashuvchi massivning uch dialektga: qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lajhalariga bo‘linishini dialektik jihatdan to‘ldiradi.

Tilshunoslikning areal yo‘nalishi til makonining hududiy tuzilishi haqidagi bilimlarni nazarda tutadi, bu esa areal tilshunoslikka xos sistematika taksonizatsiya orqali amalga oshiriladi. Har qanday dialekt-lingvistik hodisa yoki tillar, dialektlar taksonomik xarakterda bo‘lishi kerak, ya’ni ma’lum bir darajada ko‘rib chiqilishi kerak.

Dialektologiyadan lingvogeografiyaga, lingvogeografiyadan arealogiyaga o‘tishda bu sohalarda qo‘llaniladigan tushunchalar ham o‘z manbasi sifatida taksonomik amaliyotga ega bo‘lishi, lingvoareal sistematika ma’lumotlariga asoslangan bo‘lishi yoki hech bo‘lmaganda hududiy kengayishni dialekt jihatdan tavsiflovchi-lisoniy hodisa yoki alohida til, dialekt // tillar, dialektlar guruhi va boshqalar bo‘yicha taksonomik tekshirishga to‘g‘ri kelishi kerak.

Amaliyotdagи paradigmada turli usullar yordamida o‘rganilgan o‘zbek shevalarining tartiblanishi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan: 1) shevaning qarluq, qipchoq yoki o‘g‘uz shevalariga munosabati; 2) turli tip yoki dialekt guruhlari:

a) Samarqand-Buxoro tipi, Toshkent-Farg‘ona tipi, Samarqand-Qarshi tipi, Toshkent-Namangan tipi, Andijon-Qo‘qon guruhi va boshqalar;

b) qozoq –nayman tipi ,turkiy-barlos tipi,qurama guruhi,qarluq tipi, qipchoq tipi va sh.k.

Yoki qabila nomi bilan yuritiladigan dialektlarning tartiblanishida ham murakkablik mavjud. Bir qabila guruhiga mansub sheva vakllarini o‘zbekzabon massivning turli qismlarida qayd etish mumkin bo‘lib, ular butunlay boshqacha dialekt xususiyatlariga ega. Masalan, M.Mirzayev tomonidan “ikki tilli dialekt” tarkibiga kiruvchi buxorolik naymanlar shevasi va Ye.D.Polivanov tadqiqotida Samarqand naymanlar shevasi, bu M.Valiyev ilmiy ishlarida qipchoq lahjasining turi sifatida tavsiflanadi. So‘nggi yillardagi dialektologik ekspeditsiya natijalariga ko‘ra Nurota tog‘larining shimoliy yon bag‘irlarida yashagan baxrin, jaloir, mitan, nayman qabila vakllari o‘zlarini tojiklar deb ataganlar, ammo ularda turkiy va mo‘g‘ul etnik xususiyatlarining chambarchas bog‘liqligi kuzatiladi. Tadqiqotlarda

qayd etilishicha shu hududlarda qipchoq istiqomat qilishgan. Hozirda ham bu hududlardagi aholi o‘zbek va tojik tillarida teng so‘zlashadi. Yoki: Oranskiyning ta’kidlashicha: 1924-yilda O‘rta Osiyoning milliy chegaralanishi davrida Surxondaryo, Shiroboddaryo, Kofirnigon, Qizilsuv vodiylarida va boshqa ba’zi hududlarda faqat tojik tillarida so‘zlashuvchilar bo‘lgan. Biroq o‘zaro munosabatlarni to‘liq saqlab qolgan aholining anchagina salmoqli guruhlari qayd etilgan. Bek qabila tajribasi (qabila nomlari va boshqalar.) Ko‘lob viloyatida o‘tkazilgan etnografik tadqiqot natijasida faqat tojik tilida so‘zlashuvchi, lekin o‘zlarini turk deb ataydigan aholi guruhlari aniqlangan. Hisor vodiysida shunday guruhlar borligini ta’kidlash lozim. Bu kabi tahlillarni ko‘plab keltirish mumkin.

O‘zbek tishunosligidagi dialekt sistematikasi makon tushunchasi bilan farqlanadi, shuning uchun ham lingvoareal tadqiqotlarga o‘tish dialekt sistematikasini makon tushunchasi bilan uyg‘unlashtirish lozimligini ta’kidlash o‘rinlidir. Dialektlarning tartiblanishida lingvo-areal kengayish fenomeniga qatiy yondashuv kerak bo‘ladi.

Dialektlar tasnifi bilan shug‘ullangan dialektolog olimlar hozirda o‘zbek tili shevalari tizimini tashkil etishning ikki turini uslubiy jihatdan aniq ajratib ko‘rsatish uchun barcha asoslar mavjud bo‘lib, tuzilishi jihatidan (uch dialekt: qarluq, qipchoq va o‘g‘uz dialetlarining aniqlanishi) dialekt mavjud bo‘lishining umumiy shaklini ifodalaydi deb ta’kidlaydilar. O‘zbek shevalari tizimi va zonal massivi uning tarixan shakllangan aniq-mahalliy xususiyatini belgilaydi.

Shevalar bo‘yicha to‘plangan materiallar lingvoareal tadqiqotlar, yangi paradigmaga to‘g‘ri kelishi uchun dialekt ma’lumotlarni yig‘ish bosqichida quyidagilarni inobatga olish kerak:

- o‘z oldiga taksonning berilgan lingvistik hududi doirasidagi makoni ko‘rish, dialekt-lingvistik hodisalarning joydan joyga o‘zgarishini aniqlash, shevalar o‘rganilayotgan hududning ichki taksonomiyasini e’tiborga olish lozim;

- ma’lum bir til massividagi dialektlarda so‘zlashuvchilar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi, ularning ota-onalari, qarindosh urug‘lari, uning ma’lumoti, qayerlarda ishlashi haqida bilishi kerak;

- lingvistik hodisalarning qaysi darajasi asos sifatida tanlanganidan qat'iy nazar, tizimli yondashuv dialekt ma'lumotlarini yig'ish bosqichida namoyon bo'lishi, ularning kontekstidan tashqarida alohida dialekt hodisalari emas, o'zaro bog'liq va o'zaro aloqador hodisalar qayd etilishi kerak.

O'zbek dialektologlarining tadqiqot paradigmasida atlaslash va lingvo-geografik usullarni joriy etilishida biron bir aniq muammoni hal qilishda yagona maqsadga yo'naltirilgan dastur e'tiborga olinmagan. Xaritalarda o'zbek tilida so'zlashuvchi massiv qamrab olinishiga, shevalar orasidagi bo'shliq va makoniy bog'lanishlarga e'tibor qaratilishi kerak edi. Bular lingvo-geografik tadqiqot usullarini targ'ib qilishda e'tiborga olinmadni.

Atlas uchun xaritaga kiritilgan hududlar maxsus dasturlar asosida oldindan belgilanishi kerak. Ushbu kengaytmali taksonlarni belgilashda zonallik hisobga olinadi va sheva zonalarining zanjirli rivojlanish jarayonlari tashkiliy darajada e'tiborga olinishi lozimdir. Shuningdek, xaritalardan yagona kartografik model sifatida foydalanishni shakllantirish ham lozim bo'ladi.

## 13-§. TURKIY TILLARNING AREALI

### Reja:

- 13.1. Turkiy tillar genetikasi.
- 13.2. Turkiy tillarning hududiy tarqalishi.
- 13.3. Turkiy til va shevalari lingvistik kartalari, ularning tuzilish xususiyatlari.
- 13.4. Mahmud Koshg‘ariyning lingvistik kartasi sharhi.

**Tayanch tushunchalar:** Hududiy bo‘linish, qirg‘iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq va boshqa turkiy tillar, mintaqaviy takson, gnoseologik tamoyil.

Tillarning, jumladan, turkiy tillarning genetikasi, til xususiyati jihatidan o‘zaro munosabati masalasiga olimlar juda qadimdan qiziqib kelganlar. Turkiy tillarning areali – ma’lum bir hodisaning qirg‘iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq va boshqa turkiy tillarda hududiy taqalishidir.

Turkiyshunoslikda ham turkiy tillar va ularning shevalari N.A.Baskakov, M.M.Sheraliyev, E.V.Sevortyan, N.Z.Gadjiyeva kabi ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan tadqiq qilinganligini qayd etish mumkin. Ularning tadqiqotlarida turkiy tillarning areal tarqalishini keng tahlil qilganlar.

N.A.Baskakov turkiy tillarning hududiy bo‘linishida to‘rt mintaqani aniqladi: 1. Bolqon va Turkiya Respublikasi. 2. Eron, Ozarbayjon va Afg‘oniston. 3. Xitoy xalq respublikasining Sinszyan viloyati. 4. Sobiq ittifoq besh hududga ega. 1. G‘arbiy; 2. Kavkaz; 3. Volga; 4. O‘rta Osiyo; 5. Sibir. Turkiy til makonining tarixan shakllangan mintaqaviy taksonlashtirish lingvistik makonning tuzilishini tushunishga qaratilgan bo‘lsa-da, taksonlashtirishga urinishning o‘rnini muhim bo‘lgan.

N.Z.Gadjiyeva tadqiqotlarida turkiy til makonining tarixan shakllangan mintaqaviy taksoniga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda gnoseologik tamoyil asoslاب berilgan. Shuningdek, taxminan kamida to‘rtta diapazon mavjudligi

to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. 1. Markaziy Osiyo; 2. Sibir (shimoli-sharqiy va g‘arbiy); 3. Volga bo‘yi; 4. Kavkaz (shimoliy va Kavkaz orti, Kavkaz oldi).

Turkiy tillar areali, uning hududlari va migratsiyasi haqidagi ma’lumotlar qadimgi manbalarda keltirilgan. Tarix qayd eta oladigan davrdan boshlab turkiyzabon areal Oltoy tog‘lari markazida bo‘lib, Shimoliy Xitoy, Mo‘g‘iliston, Yenisey bo‘ylari hozirgi Qirg‘iziston, O‘zbekistonning janubiy qismlari, Qozog‘istonning janubiy qismlarini o‘z ichiga olgan.

Ba’zi tadqiqotlarda turkiy tillarning areali qadimdan o‘troq yashab kelgan turkiy xalqning hududlar bo‘yicha joylashishi bo‘yicha quyidagicha ko‘rsatilgan:

- 1) Sibirda yoqut, xakas, oltoy;
- 2) Markaziy Osiyoda qozoq, qirg‘iz, o‘zbek, qoraqalpoq, turkman;
- 3) Kavkazda ozarbayjon;
- 4) Volga bo‘yida tatar, boshqird, chuvash;
- 5) Qirimda qrim tatarlari, gagauz; Ukraina va Belorusiyada qorayim;
- 6) Kichik Osiyoda turklar;
- 7) Xitoyda uyg‘urlar va boshqalar.

Ushbu hududlardagi turkiy tillar lingvistik nuqtai nazardan o‘rganilgan.

O‘rta Osiyoda, jumladan, hozirgi O‘zbekiston mintaqasida turkiy xalqlar qadimgi davrlardan boshlab yashab kelayotgan xalqlardan biri ekanligi haqida, Xitoy, Yunon, Eron, Arab turkiyzabon manbalar materiallarining umumiyligi tavsifi va bu haqda jahon olimlarining asarlarida keltirilgan.

Tarixiy ma’lumotlarda qayd etilishicha, turkiy qabilalarning O‘zbekistonga ko‘chib kelishlari VI asrdan boshlab VIII va undan keyingi davrlargacha davom etdi. VIII-IX asrlarda ularning o‘troqlashish jarayoni kuchaydi va ular turkiy bo‘limgan xalqlar bilan munosabatda bo‘ldilar. XI asrda qoraxoniylar tarkibida O‘zbekiston hududiga chigil, qarluq, yag‘mo, arg‘ular keldilar. XI-XIII asrdagi yozma manbalarga qaraganda (Nizomil Mulk va Ibn Amr), qoraxoniy xonlari zamonida O‘zbekiston tuprog‘ida qarluqlar bilan chigillar bosh rolni o‘ynaganlar. Ammo turk elementlarining O‘zbekistonga kirib kelishi shu nomlari ko‘rsatilgan qabilalar bilan cheklanmaydi, Sirdaryo tomonlaridan belgili miqdorda o‘g‘uzlar va qipchoqlar kelgan.

Tarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha, eramizdan oldingi IV asrlarda turkiy xalqlarning shimolga – hozirgi Qozog‘iston cho‘llari, Paloje va undan Yevropa –

janubiy Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Qrim, Zakarpatiya, Sharqiy Yevropa, Bolqon va Rimgacha bo‘lgan hududlarga gacha borib etgan. Xasrlarga kelib turkiy areal Yenisey bo‘ylari, Oltoy, Sharqiy Sibir, Ural, Paloje, Janubiy Ukraina, Moldaviya, Shimoliy Kavkaz, Zakavkaz, qisman Bolqon mintaqalarigacha tarqaldi. IX-X asrlarda saljuqlar boshliq o‘g‘uzlarning, qarluqlar boshliq qoraxoniylar, uyg‘urlar va qipchoqlar tarkibi ko‘pchiligini tashkil etadigan g‘aznaviylarning yurishlari turkiy areal chegarasini Hindistondan Konstantinopolgacha, Issiqko‘ldan Zakavkazegacha, Turkmanistondan yaqin sharq va shimoliy Afrika, Arab o‘lkalarigacha kengaytirdi. Tarixiy manbalar asosida aytish mumkinki, XI-XIV asrlarda Bog‘dod va Misr hukmdorlarining ko‘pchiligi etnik kelib chiqishi jihatidan turkiy xalqlardan bo‘lgan. XII-XVI asrlarda, dastlab Chingizzon va Botuxon, keyin Amir Temur va usmonlilarning Yevropa, Yaqin Sharq, Misrga yurishi ikki buyuk imperiya – Amir Temur va usmoniylar imperiyasining Appenindan (Shimoliy Italiya) Mo‘g‘ulistongacha, Misrdan Palovniyagacha yoyilishi turkiy arealni Shimoliy Afrikadan hozirgi Fransiya chegaralarigacha, undan Uzoq Sharqqacha, Misrdan Moskvagacha kengaytirdi. Yuqorida qayd etilgan ulkan mintaqaning barchasida turkiy xalqlar va ularning tillari ta’sirini bugungi kunda ham ko‘rish mumkin.

Mana shu ulkan mintaqani o‘z ichiga olgan hududda turkiy xalqlarning qirg‘iz, bulg‘or, qarluq, uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘uz kabi toifalariga mansub turkiy xalqlarning ajdodlari tarqalgan. Turkiy tilshunoslikda bu olti toifaning har biri uchun xarakterli bo‘lgan lingvistik hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlari ajratilgan. Shuning uchun yuqorida sanalgan bir toifaga xos xususiyatni ozmi-ko‘pmi boshqa toifaga nisbat beriladigan tillarda (shevalarda) uchratish mumkin. Masalan: umumturkiy “q” orqa qator unlilardan oldin kelganda bulg‘or tillarida “g”ga, umumturkiy auslaut bo‘g‘in oxiridagi “r” bulg‘or guruhida “z”ga o‘tishi kuzatiladi. Bu holat o‘zbek shevalarida ham uchraydi: o‘tkazmoq//o‘tkarmoq kabi. Yoki umumturkiy “y”ning so‘z o‘rtasida “r”ga o‘tishi bulg‘or tillari guruhiga xos: ayaq-ura. Bu hodisalar turkiy tillarda ko‘plab uchraydi. Bunday hodisalarning sharhini berish uchun arealogik tadqiqotlar taraqqiyot darajasiga ko‘tarilgandagina

kengroq ma'lumot berish mumkin. Hozirgi kunda turkiy xalqning etnogenezi, ularning migratsiyasi, tili haqida to'liq ma'lumotlar berish uchun turkologik, arealogik tadqiqotlarga ehtiyoj seziladi.

Turkiy tillarning tasniflari ham juda ko'p hollarda hududiy (arealogik), geografik tarqalish tushunchalari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Jumladan, turkiy tillarning ilk tasnifini bergan Mahmud Koshg'ariy ularning tarqalish hududlarini "Rumdan Chingacha" (Kichik Osiyodan Xitoygacha) shaklda geografik chegaralarini ko'rsatadi.

Turkiy tillarning tasniflarini bergan akademik V.Radlov, V.Aborodinskiy, N.A.Baskakov, F.E.Korsh, M.Samaylovich kabi olimlarning ishlarida ham turkiy tillarning arealini ko'rsatishda geografik nomlanishni uchratish mumkin. Ko'rinish turibdiki, lingvistik tadqiq va tasnif jarayonida geografik (hududiy) tushunchalardan foydalanish, tillarning arealini ko'rsatish ancha uzoq tarixga ega.

V.V.Radlov turkiy tillarni shunday guruhlashtiradi:

1. Sharqiy guruh.
2. G'arbiy guruh (g'arbiy Sibir tatarlarining tili, qirg'iz, qozoq, boshqird tillari).
3. O'rta Osiyo guruhi (Yorkent, Chig'atoytilli, shimoliy o'zbek shevasi, Qo'qon shevasi, Zarafshon vodiysidagi o'zbek shevalari, Buxoro va Xiva shevasi).
4. Janubiy guruh (turkman, ozarbayjon, turk va qirim tatarlarni tili) deb to'rt guruhga bo'ladi.

B.A.Bogoroditskiy 1921-yilda hozirgi turkiy tillarni geografik joylashuvi va fonetik xususiyatlarini hisobga olib 7 guruhga bo'lgan. Keyinchalik 1934-yilda o'zining ushbu tasnifiga aniqliklar kiritib uni to'ldirib quyidagicha taqdim etdi.

1. Shimoliy sharqiy guruh: Yoqt, karagas, tuva tillari.
2. Xakas va abakan guruhi: Xakastili, Abakan lahjasи, Sagay, Koybal, Kachin, qizil shevalari, Minusing tatarlari tili.
3. Oltoy guruhi. Bunga oltoy tili o'z shevalari bilan kiritilgan.
4. G'arbiy Sibir guruhi: Chulim, Ishim, Tyumen tatarlari tili.
5. Volga bo'yi va ural guruhi: tatar va boshqird tillari.
6. O'rta Osiyo guruhi: uyg'ur, qozoq, qirg'iz, o'zbek, qoraqalpoq tillari.
7. Janubiy g'arbiy guruh: turkman, ozarbayjon, qumuq, gagauz, turk tillari va chuvash tili, qorachoy tili va bolqar tillari.

F.E.Korsh o‘zining “Классификатсия тюркских племенро языкам” асарида туркий tillarni fonetik xususiyatlaridan tashqari, morfologik xususiyatlarini ham hisobga olib quyidagicha tasnif qilgan.

1. Shimoliy guruh: qirg‘iz, qozoq, qumiq, nog‘oy, qorachoyolttoy, Volga tatarlari, Shimoliy Kavkaz tatarlarining tillari. 2. G‘arbiy guruh: Ozarbayjon, turkman, turk, gagouz, qirim tatarlari. 3. Sharqiy guruh: Urxun Enasoy yodgorliklari yozuvi tili, eski uyg‘ur tili, chig‘atoj, qipchoq kabi o‘lik tillar va jonli tillardan qaragaz va xakas tillari. 4. Aralash guruh: Bu guruhga yoqt va chuvash tillari va O‘rta Osiyodagi ba’zi tillar kiradi. Bu tillarning har biri o‘ziga xos tasnif belgilariga egadir.

V.V.Radlov, F.E.Korsh tasnifini birlashtirib quyidagicha 5 guruhga bo‘ladi.

1. Janubiy-g‘arbiy yoki o‘g‘uz guruhi. Bu guruhga turkman, ozarbayjon, turk, gagouz tillari va qirim tatarlarining ba’zi dialektlari hamda o‘zbek tillining o‘g‘uz lahjasini kiradi.

2. Janubiy sharqiy yoki chig‘atoj guruhi. Bu guruhga hozirgi uyg‘ur tili, o‘zbek tili va uning bir qator shahar dialektlari, quman tili o‘lik chig‘atoj tili kiradi.

3. Shimoliy-g‘arbiy yoki qipchoq guruhi. Bunga tatar, boshqirt, uyrot, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, o‘zbek tilining ayrim qipchoq shevalari, qumuq qorachoy shevalari kiradi.

4. Shimoliy-sharqiy yoki Sibir guruhi. Bu guruhga qadimgi o‘hun, uyg‘ur, qorliq yozuvi yodgorliklari, xakas, char, yoqt tillari kiradi.

5. Chuvash yoki bulg‘or guruhi. O‘lik bulg‘or va hozirgi chuvash tillari kiradi.

N.A.Baskakov turkiy tillarning tasnifini yaratishda faqat har bir turkiy tilning fonetik, grammatik leksik xususiyatinigina hisobga olib qo‘ymasdan har bir turkiy xalqning tarixiy shakllanish jarayoni, uning etnik genizisiga ham alohida e’tibor beradi.


1. Fonetik xususiyatlar asos qilib olingan tasniflar.
2. Fonetik, morfologik, xususiyatlar asos qilib olingan tasniflar.

3. Til xususiyatlaridan tashqari genetik aloqalar ham hisobga olingan tasniflar.

4. Turkiy tillarda gapiruvchi xalqlarning geografik joylashuvi asosidagi tasniflar.

Yuqorida keltirilgan tavsif va tasniflar turkiy tillarning arealini belgilashda manba bo‘la oladi.

Turkiy xalqlar, shu jumladan, o‘zbeklar etnik tarixi va tilini o‘rganishda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” nomli asari alohida o‘rinni egallaydi. Bu asarda ayrim shahar va qishloqlar aholisining lingvistik va etnik tarkibi, qabila hamda urug‘larning joylashishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. O‘rta Osiyo xalqlari tarixida benihoyat muhim manba bo‘lgan bu asar soddacha lug‘at deb mashhur bo‘lsa-da, aslida bu yolg‘iz u davr tilidagi so‘zlarni izohlovchi lug‘at kitobigina emas, balki shu bilan birga o‘sha davrda butun O‘rta Osiyo doirasida, ya’ni Yuqori Chindan boshlab butun Mavarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta territoriyada yashovchi urug‘lar, qabilalar, xalqlarni va ular tillarini, u davr tilining fonetikasi, morfologiyasi haqida to‘liq ma’lumot beruvchi va u davr tilidagi har xil adabiy janrlardan namunalar beruvchi nodir filologik asardir. Shuning uchun bu asar O‘rta Osiyo xalqlari tarixini yoritish uchun, xususan, til tarixini o‘rganish uchun benihoyat muhim asardir. Asarda qo‘llanilgan juda ko‘p so‘zlar bugungi kunda ham tilimizda qo‘llanilmoqda.



## MAHMUD KOSHG'ARIY XARITASI

Shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda o'zbek xalqi orasida saqlangan juda ko'plab urug'-qabila nomlari boshqa ayrim turkiy xalqlar o'rtasida ham uchraydi. Bular turkiy xalqlarning qariyb barchasi etnik guruhlar majmuasidan iboratligi, ularning lug'at jamg'armasi qadimda yagona bo'lganligidandir. Shu bois ham turkiy tillar o'rtasidagi o'xshashlikning bo'lishi, tabiiy. Shuni hamisha yodda tutish kerakki, turkiy xalqlar va ularning tillari bir-biriga yaqin bo'lganligi sababli hamisha qadimgi davrlardan XIX asrning oxirlarigacha o'zaro katta aralashuvda bo'lган.

Turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot yo'llarini belgilashda o'tmishdagi urug', qabila va qabila ittifoqi tillarini o'rganish orqali yuqorida ta'kidlanganidek, ularning juda ko'plab urug'-qabila birliklaridan iborat ekanligini aytish o'rinnlidir. Umumturkiy leksik qatlamni tashkil etgan so'zlarning o'ziga xos muhim xususiyati shundaki, ularning deyarli barcha turkiy tillarda uchrashidir. Bu so'zlar

asrlar davomida turkiy tillar uchun yangi so‘zlar yasash orqali leksikani boyitishda asos bo‘lib xizmat qilgan. Turkiy tillarda o‘xshashlikning muayyan sabablari bor, ya’ni turkiy tillarning aslida bir manbaga,bir genetik asosga ega ekanidan, ularning lug‘at jamg‘armasi qadimda yagona manbaga taalluqli bo‘lganligidandir. A.N.Baskakov ta’kidlaganidek, turkiy tillar asosiy lug‘at boyligining o‘ziga xos xususiyati ularning barcha turkiy tillar uchun umumiyligini mushtarakligidadir. O‘zbek shevalarining lug‘at tarkibini turkiy tillar bilan qiyoslash asosida ba’zi bir fonetik o‘zgarishlar bilan ishlatalayotgan so‘zlar misolida ular o‘rtasidagi umumiylikni ko‘rish mumkin. Buni turkiy tillar bilan qiyoslash orqali quyidagicha ko‘rsatish mumkin. Masalan: O‘zbek shevalari va turkiy tillar. (Murodova N. 2006).

**ədəsh** (moq‘ // =maq) ad. orf. adash (moq) < (ot-dosh) qiyos qiling:  
qad.turk. adaš (do‘st, o‘rtoq) DLT adash, boshq. adash, ozarb. adash, olt. adash.,  
tat. adash, qoz. adas, xak. adas, qirg‘. ayash, turkman atdash, uyg‘ur atdash (jo‘ra),  
turk adas, yoqut atas (do‘st, jo‘ra), tof. adaš (hurmat bildiruvchi so‘z), tuv.  
attash,chulm. atash.

**bavur** // baur ad.orf. bag‘ir; qiyos qiling: DLT. bag‘ir, ozarb. bagyr,  
turkman. bagyr, uyg‘. beg‘ir, qirg‘. boor, no‘g‘. bavyr, tat. ba.vyr, qoz. bauvyr,  
qoraqalpoq. bauvyr, boshq. bauvyr, qorach.baur, qoram. baqur, qum. bavur,  
yoqut. byiar, olt. puur, tuv. baar, xak. paar, shor. paar, chuv. pyover (jigar).

**yomg‘ur** // yamg‘ir ad.orf. yomg‘ir; qiyos qiling: DLT. jag‘mir, qoram.  
yagimur, yamigur, yangiur, yanigiur, uyg‘. yamgur, chulm. yamgur, chamgur, tat.  
yangir, no‘g‘. yamgir, boshq. yamgir, qirg‘. jamg‘ir, qora-q. jamg‘ir, qoz. janbir,  
qum. yangur, qorach. djangur, olt.dvanmir, xak. naqmir, yoqut. samnir, chuv.  
sumar, xor. yag‘ish.

**kiyov** ad.orf. kuyov; qiyos qiling: qad.turk. kydachy, kyzachy, xydachy,  
gyyagy, uyg‘. kuya (o‘g‘il), ozarb. kureken, turkm. kerek, giyev, gag. chuva,  
qo‘m. giyev, qirg‘. kuyøø, qorach. kuyey, qoz. kyjey, qora-q. kuye, no‘g‘. kiyev,  
boshq. keyau, tat. kiyau, olt. kuyu, kuye, tuv. kudee, xak. qide, kuze, shor. kuze,  
yoqut. kutuø, chuv. keru < kerev.

toqcon ad.=orf. to‘qson; qiyos qiling: qad. tyrk. toqquzon, DLT. toqson, yyg‘. toqsan, chylm. toqsan, qirg‘. tokson, tyrkm. togsan. ozarb. doxsan, olt. togyson, xak. togyzon, qoz. toqsan, no‘g‘. toqsan, qoraqalpoq. toqsan, tat. tyqsan, boshq. tyrkan.

toqq’z ad.=orf. to‘qqiz; qiyos qiling: qad. tyrk. toquz, olt. tog‘ys, tyv. tos, xak. tog‘ys, yoqyt. toqys, ozarb. doggyz, tyrkm. dokyz, boshq. tyg‘yz, tat. tyg‘yz, qoz. tog‘yz, no‘g‘. tog‘yz, qym. tog‘yz, qirg‘. tog‘yz, yyg‘. toqqyz, qoraqalpoq. tog‘yz, chyv. tăxăr, tof. dohos.

og‘l ad.=orf.o‘g‘il; qiyos qiling: qad. tyrk. oxyl, DLT. og‘yl, ozarb. og‘yl, yyg‘. og‘yl, tyrkm. ogyl, olt. Yyl, qirg‘. yyl, tyb. Ool, xak. ool, yoqyt. yol, gag. ool, qoraim. Yvyl, qoz. yl, qoraqalpoq. yl, boshq. yl, tat. yl, chyv. ыvăl, tof. ө:l.

qosh‘q ad.=orf. qoshiq; qiyos qiling: qad. tyrk. qaşıq, qaşud, DLT. qashyq, qirg‘. qashyq, tyrkm. chashyq, gag. chashyq, qorach. qashyq, qym. qashyq, boshq. qashyq, qoz. qasýq, no‘g‘. qasýq, yyg‘. qoshyq, ozarb. gashyq, xak. xazýq, chyv. kashák, tof. qa’hiq, sol. boshq. tatar, qalaq( choy qoshiq), olt. qalaq (kata qoshiq).

Har bir turkiy tilning leksik qatlamiga oid bu kabi so‘zlar uzoq davrlar davomida tilning ichki taraqqiy etishi natijasida kengayib, yangi so‘zlar bilan uning lug‘at tarkibi boyib borgan. Keyinchalik ular har bir turkiy tilning o‘z lug‘at fondini tashkil qilgan. Turkiy tillar va dialektlarni areal usulda o‘rganishning obyektiv rivojlanishi areal bilimlarni integratsiyalashuvi hamda umumlashtirish jarayonlari bilan bog‘liqligi uchun ham areal tilshunoslikning yaxlit konsepsiyasining shakllanishiga olib keldi.

Turkologiyada lingvoareal taddiqotning usul va uslublari N.Z.Gadjiyeva va G.F.Blagova tomonidan ishlab chiqilgan ,u hozirgacha davom etmoqda. Turkiy tillar dialektologik atlaslarida G.F.Blagova tomonidan izoglossa atamasining qo‘llanishi,turkiy til makonining lingvo-areal muammolariga bag‘ishlangan qarashlarini alohida aytish o‘rinli.Turkiyshunoslik bo‘yicha N.Gadjiyevaning “Turkiy areal lingvistika muammolari O‘rta Osiyo mintaqasida” asarini keltirish mumkin. Bu asarda areal lingvistika ma’lum bir til hodisalarining turli hudud

chegaralarida tarqalishini o‘rganishini ta’kidlaydi. Shuningdek, aralash dialektlarda oraliq hodisalarning uchrashi, ularning chegara zonalarda izoglossalarning kesishishi tabiiy ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltiradi: Boshqird va tatar shevalarining ba’zi zonalarida aralashib ketganligini aytadi. Turkman va qoraqalpoq tillari kesishgan hududda jarangsiz undoshlarning jaranglashishi va jo‘nalish kelshigining -a affiksi ifodalanishini oraliq hodisa sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman va o‘zbek tili oraliq zonalaridagi izoglossalarning tavsifi berilgan. Turkiy tillarning o‘zaro ta’siri keng yoritilgan. A.Jo‘rayev ta’kidlaganidek: Turkiy tilshunoslik metodolgiyasini boyitish jarayonlari makon g‘oyasini harakatga keltiruvchi, yuzaga kelayotgan konseptual asosga mos keladigan an’anaviy va yangi tadqiqot usullari va uslublarini shakllantirish metodlarni kompleks o‘zgartirish sifatida davom etadi. Turkiy tillarni areal o‘rganilishi natijasida lingvistik xaritalar yuzaga keladi. Turkiy tillar: ozarbayjon, tatar, turkman, boshqird, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq va o‘zbek tillarining dialektologik atlaslari yaratilsa, turkiy tillarning atlaslari yakuniga yetadi. Turkiy tilshunoslikda umumturkiy lingvistik atlasini yaratilishi, shubhasiz, turkiy xalqlar tili haqida yangi ma’lumotlar beradi, qardosh tillarning taraqqiyoti haqidagi tasavvurlarimizni kengaytiradi, unga ilmiy yangiliklar kiritiladi. Tilshunoslikda, jumladan, turkiy tilshunoslikda, turkiytil masssivning areal tadqiqot nazariyasini mukammal areal paradigmasiga o‘tishni dolzarb masala qilib qo‘yanligi davr talabidir.

## 14-§. O‘ZBEK SHEVALARI LINGVISTIK ATLASI

### Reja:

- 14.1. O‘zbek lingvistik geografiyasining shakllanishi.
- 14.2. Shevalarning lingvogeografik o‘rganilishi.
- 14.3. Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, Y.Ibrohimov, Q.Muhammadjonov, N.Murodova, Z.Ibrohimova, I.Darvishov, N.Raxmonov tomonidan amalga oshirilgan lingvistik geografiya tadqiqotlari va ular tuzgan kartalar tahlili.

**Tayanch tushunchalar:** *Sheva, dialekt, lingvogeografiya, lingvistik atlas, xaritalashtirish, lingvistik xarita.*

O‘zbek tilshunosligida dialektlarni o‘rganish bo‘yicha juda katta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. O‘zbek shevalari bo‘yicha Ye.D.Polivanov, G‘.Olim, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Sh.Shoabdurahmonov, A.G‘ulomov, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, M.Mirzayev, A.Aliyev, A.Shermatov, X.Doniyorov, N.Rajabov va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarida areal lingvistika sohasi uchun manba yaratildi.

O‘zbek shevalarini hududiy o‘rganish yuzasidan ham ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi. A.K.Borovkov tomonidan “O‘zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar” anketasi tuzildi. O‘zbek shevalarini xaritalashtirish ishini boshlab bergan. V.V.Reshetov qurama o‘zbek shevalarining 49 ta lingvistik atlasini yaratdi. M.Mirzayev tomonidan 1955-yilda “Buxoro oblastidagi o‘zbek shevalarini o‘rganish uchun anketa” tuzilib, uni respublikaning viloyatlariga, ilmiy muassasalariga tarqatilgan. 1964-yilda A.Aliyev tomonidan “Namangan dialekti bo‘yicha material to‘plovchilar uchun anketa”si tuzilib chop etildi. A.G‘.G‘ulomov rahbarligida 1976-yilda A.Yu.Aliyev, K.N.Nazarovlar “O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma” yaratildi. O‘zR FA huzuridagi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori ilmiy tekshirish institutining dialektologiya bo‘limida o‘zbek shevalarini o‘rganish bo‘yicha

Sh.Shoabdurahmonov rahbarligida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, olim tomonidan o‘zbek shevalari atlasini yaratishning nazariy asoslari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi. O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlanishida A.Shermatovning xizmatlari kattadir. 1978-yilda A.Shermatov tomonidan Quyi Qashqadaryo shevalari bo‘yicha 137 ta lingvistik atlasi yaratildi. Ulardan umumiy – 2 ta, Fonetika – 34 ta, Morfologiya – 22 ta, Leksika – 79 ta xaritalar tuzildi. Tadqiqotda Quyi Qashqadaryo shevalari 3 ga: j-lovchi guruh shevalar, y-lovchi guruh shevalar, o‘zbek-tojik ikki tilli shevalar guruhlariga bo‘lib o‘rganilgan. Xaritalarda Quyi Qashqadaryo hududida istiqomat qiladigan aholi etnik tarkibi, tarixi, hududlarda fonetik, morfologik, leksik hodisalarining tarqalishi o‘z aksini topgan.

Q.Muhammadjonov tomonidan 1988-yilda Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarining fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari areal o‘rganilib, 150 tadan ortiq xaritalari yaratilgan. Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari qorluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari misolida keng tahlil qilib berilgan. Mazkur hudud o‘zbek shevalariga turkiy tillardan qozoq, qoraqalpoq tillarining ta’siri tahliliy misollar bilan asoslangan.

Yu.Ibragimov tomonidan 2002-yilda Janubiy Orolbo‘yi o‘zbek shevalari areal o‘rganildi va xaritalari yaratildi. Janubiy Orolbo‘yi hududida qadimdan to‘rtta turkiy xalq-o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq va turkmanlarning aralash yashab kelganligi ma’lum. Ular o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zaro aloqa til hamda shevalarning o‘ziga xos shakllanishi, taraqqiyotiga ta’siri bo‘lgan, albatta. Buning natijasida Janubiy Orolbo‘yi shevalarining o‘ziga xos fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari vujudga keldi. Shular asosida mazkur hudud shevalari uch guruhga bo‘lib o‘rganilgan: 1) sharqiy; 2) g‘arbiy; 3) janubiy yoki oraliq. Tadqiqot davomida uch zona ko‘rinishida sheva chiziqlari bog‘lamlarini ko‘rib chiqish asosida quyidagi shevaviy hududlar aniqlangan: 1) g‘arbiy (qo‘ng‘irot o‘zbeklari shevasi); 2) shimoliy (xo‘jayli-qipchoq); 3) markaziy (gurlan-beruniy); 4) janubiy-g‘arbiy (oltmish-ko‘kchaga-ko‘hna urganch); 5) janubiy (tozabozor-toshhovuz-iloli); sharqiy (to‘rtko‘l-ellikqal’a).

Yu.Ibragimovning ta'kidlashicha, shevalar leksikasini xaritalash asosida ushbu hudud shevalari bir butun emas, sheva chiziqlarining ko'pchiligi hududda turli yo'nalishlar bo'yicha tarqalgan va aniq lisoniy-jo'g'rofiy tamoyilga ega bo'limgan sheva hududlarining lisoniy xususiyatlarini ifodalaydi. Janubiy Orolbo'yi shevalari bo'yicha xaritalari 30 tadan iborat. Ular :1) fonetika – 5 ta, 2) morfologiya – 7 ta; 3) leksika – 15 ta, Janubiy Orolbo'yi ma'muriy bo'linishlari xaritasi – 1 ta, 5) aholi punktlari – 1 ta, Janubiy Orolbo'yi o'zbek shevalarining hududiy tasnifi – 1 ta xaritalar mavjud. Xaritaga 133 ta aholi punkti tushirilgan. Xarita izohlaridan ko'rindiki, tadqiq etilgan aholi punktining yuqori chastotada ekanligi, mazkur hudud shevalarining oraliq xususiyati o'zbek-qoraqalpoq, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman sheva chiziqlarining ajratib ko'rsatilishi bilan bog'liqdir.

N.Murodova tomonidan 2006-yilda Navoiy viloyati o'zbek shevalari leksikasi lingvoareal usulda o'rganilib, lingvo-jug'rofiy xaritalari tuzilib tadqiqot obyektiga kiritilgan. Ushbu xaritalar 100 tadan ortiq bo'lib, juda ko'plab lisoniy birliklarning areal tarqalishini aks ettirgan. Tadqiq etilgan 209 ta aholi punkti xaritaga tushirilgan. Muallifning ta'kidlashicha, xaritaning lisoniy materiallari tadqiq etilayotgan hududdagi o'zbek shevalari o'zbek tilining boshqa dialektal zonasi bilan aloqasini aniqlash imkonini bergani, Navoiy viloyatida ko'p millat vakillari, jumladan, o'zbek, tojik, qozoq tilida so'zlashuvchi aholi istiqomat qilayotgan mazkur hududda: o'zbekcha-tojikcha (yoki tojikcha-o'zbekcha), qozoqcha-o'zbekcha ikkitillilik mavjuddir. Xaritalar izohida mazkur hudud shevalar leksikasidagi farqli jihatlar ushbu hudud shevalarining o'ziga xos tarixiy taraqqiyoti, hududning o'ziga xos tabiiy-geografik xususiyatlari, aholining turmush tarzi, xo'jaligi, madaniy-ma'naviy omillar bilan bog'liqligi tarixiy-etnografik ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarilgan. Tadqiqot obyektiga 30 xarita kiritilib, sharhlar berilgan.

Z.Ibragimova tomonidan 2009-yilda Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari qishloq xo'jalik leksikasi lingvogeografik tadqiq etilib, 30 ta xaritasi tuzilgan. Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari dialektologik atlasida 18 ta leksik, 8 ta semantik, 3 ta izoglossa xaritasi, o'zbek tili atlasi asosidagi 18 ta xarita,

Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari areallarga bo‘linishiga oid 1ta xarita tuzilgan. Xaritaga 87 ta aholi punkti tushirilgan. Bunda Qoraqalpog‘istonning sharqiy (to‘rtko‘l-ellikqal’), markaziy (beruniy –mang‘it); g‘arbiy-shimoliy (xo‘jayli – qipchoq); shimoliy (qo‘ng‘iroq) qismida joylashgan hududdagi sheva vakillarining nutqi o‘rganilgan. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, qishloq xo‘jalik leksikasiga tegishli so‘zlar va ekin maydoniga oid termin-nomlanishlar guruhi 452 til birligidan iborat bo‘lib, Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarining tadqiq etilayotgan arealida mikromaydonlarni hisobga olgan holda farqlanuvchi belgilariga ko‘ra, muayyan sistemada, ierarxiya (pog‘onali) munosabatlarida taqdim etilgan.

I.Darveshov 2018-yilda Janubi-g‘arbiy Namangan shevalari fonetik-fonologik xususiyatlarini areal tadqiq etgan. Janubi-g‘arbiy Namangan shevalari fonetik-fonologik belgi xususiyatlariga ko‘ra ikki guruhga bo‘lib o‘rganilgan: 1. Sharqiy areal. 2.Shimoliy va markaziy areal. Geografik joylashuviga ko‘ra quyidagi uch dialektal zona asosida mazkur hudud shevalari areal tadqiq etilgan:

I. Janubi-g‘arbiy Namangan sharqiy areali shevalari guruhi,sheva xususiyatlariga ko‘ra qarluq va qipchoq lahjasi.

II. Janubi-g‘arbiy Namangan shimoliy areali shevalari guruhi, sheva xususiyatlariga ko‘ra qipchoq lahjasi.

III. Janubi-g‘arbiy Namangan markaziy areali shevalari guruhi, sheva xususiyatlariga ko‘ra qarluq va qipchoq lahjasi.

Janubiy-g‘arbiy Namangan dialekti unli fonemalari miqdori qarluq shevalarida 6 ta, qipchoq shevalarida 8 ta ekanligi, ularning paradigmalari xaritalarda ko‘rsatib berilgan. Dunyo turkiy tillari va Janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik tizimidagi tovushlarning variantlashuvi, kuchli va kuchsiz oppozitsiyasi va artkulyatsion-akustik jihatlaridagi mushtarak belgilar aniqlangan.

N.Rahmonov tomonidan 2020-yilda Navoiy viloyati o‘zbek shevalari morfologik xususiyatlari, so‘z yasalishi bo‘yicha to‘plangan sheva materiallari lingvoareal jihatdan o‘rganilgan. Navoiy viloyati o‘zbek shevalari morfologik xususiyatlari bo‘yicha to‘plangan faktik materiallarning lingvistik tahlili asosida

mazkur hudud shevalari uch katta guruhga: qarluq, qipchoq va aralash tipli shevalarga ajratilib o‘rganilgan. Mazkur hududning dialektal mintaqalari bo‘yicha materiallar to‘planib, tahlillar qilinib, Navoiy viloyati o‘zbek shevalari morfologik xususiyatlarini aks ettiruvchi lingvo-geografik xaritalar tuzilgan. Xaritalashtirishda grammatik shakllarning variantlari tarqalgan hududlar aniqlanib, sheva chiziqlari xaritada ko‘rsatib berilgan. Mazkur hudud shevalariga qozoq va tojik tillarining ta’siri mavjudligi xaritalar sharhida izohlangan. Navoiy viloyati shevalarining morfologik xususiyatlarini o‘rganish va xaritalashtirish uchun mazkur hududdagi 300ga yaqin qishloqlardan dialektologik materiallar to‘plangan. Biroq shevalarning morfologik jihatdan umumiyligini hisobga olgan holda, mazkur hudud shevalari 112 ta aholi punktiga birlashtirilib, xaritalashtirilgan. Navoiy viloyati o‘zbek shevalari xaritasi mazkur hududning dialektal zonalari Qiziltepa, Karmana, Navbahor, Konimex, Nurota, Xatirchi tumanlari hududlarini qamrab oladi. Xaritalarda dialektal xususiyatlarning muayyan bir hududda qanday tarqalganligi ma’lum geometrik belgilar vositasida xarita tuzish tamoyili asosida berilgan.

G.Norova tomonidan 2021-yilda Zarafshon vohasi o‘zbek shevalari leksik xususiyatlarining areali O‘zbekiston hududlari bo‘yicha qiyosiy tadqiq etilib, respublikaning barcha viloyatlarida dialektologik ekspeditsiyalar o‘tkazilgan. Ekspeditsiya davomida to‘plangan faktik materiallar asosida Zarafshon vohasi o‘zbek shevalarining lingvistik atlasi yaratilgan. Shuni aytish joizki, an’anaviy tadqiq usullaridan farqli ravishda, har bir dialektal hodisani makon va zamon tilshunosligi (areal lingvistika)ning nazariy asoslarida o‘rganish Zarafshon vohasi o‘zbek shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning hududiy tarqalishini ochib beruvchi xaritalarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbek xalq shevalarining, jumladan, Zarafshon vohasi shevalarining o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarini belgilash, ularni xaritalashtirish tadqiq etilayotgan hududlarda o‘zbek tili yetakchi (qarluq, qipchoq, o‘g‘uz) lahjalarining bir-biriga ta’sirini aniqlashda, shuningdek, o‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlarini, madaniy qadriyatlarini, xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda ahamiyati katta bo‘ldi. Mazkur hudud shevalari areal o‘rganilganda lug‘at tarkibida umumturkiy so‘zlarning

ko‘pligi faktik materiallar izohidan xulosalandi. Ma’lumki, Turkiy tillar o‘rtasidagi mushtaraklik, o‘xshashlik ularning genetik jihatdan bir manbara aloqadorligidandir. Bu tilni boyishiga olib kelgan. Darhaqiqat, Zarafshon vohasi hududida ko‘plab millat vakillari istiqomat qilishadi. Shu bois ham hududda o‘zbekcha-tojikcha, qozoqcha-o‘zbekcha ikki tillilik uchraydi. Shu bois mazkur hudud shevalarining lug‘at tarkibida o‘z qatlamga oid so‘zlardan tashqari boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ushbu hudud shevalarining o‘ziga xos leksik-semantik xususiyatlari borligi ham shundadir. Bunga tadqiqotda keltirilgan 10 ta xaritadagi lingvistik hodisalarining sharhanishida ko‘rish mumkin.

Dialektal atlaslar tuzilishi dialektologiyadan lingvistik geografiyaga o‘tish davri hisoblanadi. Shu sababli bu davrda amalga oshirilgan yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarlarida o‘zbek shevalari qiyosiy-tavsifiy va lingvo-geografik usulda o‘rganilib, lingvistik xaritalari yaratilgan. Lingvistik geografiya sohasida katta ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan A.Shermatovning ta’kidlashlaricha, dialektologiyaning tekshirish obyekti jonli dialektal nutq, dialektal lug‘atlar, ilmiy asarlar, qaysi davrga yoki qaysi hududga oidligidan qat’i nazar, umuman dialektal tekstlar tadqiqotidan iborat bo‘lsa, lingvistik geografiya lingvistik atlaslar, dialektal lug‘atlar, ilmiy tadqiqotlar va ma’lum hududgagina oid dialektal matnlar bilan ish ko‘radi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbek tilshunosligining ajralmas qismi hisoblangan o‘zbek dialektologiyasi sohasida hozirgi kunga qadar katta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ko‘pgina o‘zbek shevalari yaxlit holda o‘rganilib, lug‘atlar tuzilgan. Shuningdek, yirik monografik asarlarning yaratilganligi endilikda shevalarni qiyosiy-tarixiy va areal tadqiqotning hozirgi zamon aniq va izchil metodi bilan, til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi areal yo‘nalishda ilmiy o‘rganishni taqazo qiladi.

## 15-§. AREAL LINGVISTIK PARADIGMAGA ASOSLANGAN LINGVISTIK XARITALAR

**Reja:**

- 15.1. Qiyosiy areal yondashuv.
- 15.2. Shevalarning lingvogeografik o‘rganilishi.
- 15.3. O‘zbek xalq shevalarini atlaslashning aniq tematik yo‘nalishlarini aniqlash.
- 15.4. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi massivni hududiy o‘rganishning maqsadini to‘g‘ri shakllantirish.
- 15.5. Lingvo-areal paradigmaga o‘tish – makon-zamon tushunchasi maqsadlarni belgilash.

**Tayanch tushunchalar:** *Qiyosiy areal yondashuv, lingvogeografik o‘rganilish, atlaslash, massiv, hududiy o‘rganish, lingvo-areal paradigma, makon-zamon tushunchasi.*

O‘zbek shevalari bo‘yicha yaratilgan lingvistik xaritalar, albatta, ma’lum bir hududdagi til hodisalarining areali yuzasidan yaratilgan. Ularda xaritaga tushiriladigan materiallar aniq taksonlar bo‘yicha tayyorlanishi, dialektal makon to‘liq aniqlanishi e’tiborga olinmagan bo‘lsa-da, ular bugungi kunda areal lingvistik tadqiqotlar va lingvistik xaritalarni yaratish uchun manba bo‘la oladi. Bu davrda yaratilgan xaritalar tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Ular M.A.Borodinaning lingvo-areal bilimlarning evolyutsion rivojlanishi haqidagi konsepsiyasiga mos keladi va o‘zbek shevashunosligi tarixida dialektologiyadan lingvogeografiyaga o‘tish davri bosqichini tashkil etadi. Areal lingvistik paradigmada miqdoriy farqlarni, ma’lum bir takson doirasida amal qiluvchi statistik tendensiyalarni xaritalarda aks ettirish bilan birga xaritani o‘rganish obyektiga o‘tishi kutiladi, bunda kartografik modellashtirishga yo‘l ochiladi.

Xaritalar yaratishning yangi usuli mohiyatan ma’lumot bir takson doirasida amalga oshiriladigan quyidagi tamoyillar zanjirini amalga oshirishdan iborat: lingvo-arealga nisbatan maqsadni shakllantirish, tadqiqot-faktik materiallarni

to‘plash, qiyosiy-tizimli tavsifdagi materiallarni tizimlashtirish. Bu yerda xaritalash – kartografik modellashtirish sotsiolingvistik, statistik va boshqa ma’lumotnomalar bilan boyitiladi. Xaritalashtirish uchun tuziladigan anketalardagi savollar adabiy tilni tavsiflashning an’anaviy shakli: fonetika, morfologiya, leksika, sintaksisdan tashqari avvalgi anketalardan farqli ravishda xalqning moddiy madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlari, marosimlari, ma’lum bir hududiy muammo, uning yechimi ustida ishslashni ham e’tiborga olishi kerak. Lingvogeografik tadqiqot usullari faqat xaritalashtirishga qaratilgan bo‘lib, makondagi dialektlarni o‘rganishga yordam beradigan boshqa usullar va vositalar: dendrogammalar, jadvallar, diagrammalar, turli xil sxemalar yo‘q edi. O‘zbek dialektologiyasida shevalarning o‘zaro bog‘lanishlari, o‘zaro ta’sirlari kam o‘rganilgan. Shuningdek, sheva materiallarining mahalliy xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keng yoritilmagan, ular orasida izchillik yo‘q edi. Xaritalarda ifodalash maqsadga muvofiq bo‘lgan mavzular aniqlanmagan edi. An’anaviy tadqiqot paradigmasida dialektal faktlar tavsifi asosiy o‘rin egallagan. Faylasuf X.G.Gadamer: Shubhasiz, tadqiqotning mohiyati va ahamiyati faqat faktlarning ko‘lami bilan o‘lchanmaydi. Aksincha, biz uchun faktlar ularni tasvirlay olgan kishi tufayligina haqiqatdan ham ahamiyatli bo‘lib tuyuladi. Shuning uchun bizning qiziqishimiz, albatta, faktlarga tegishli, ammo faktlar faqat bizga ko‘rsatilgan nuqtayi nazar tufayli ahamiyatlidir degan fikrlarni bildiradi.

O‘zbek shevalarida shunday so‘zlar ham borki, ayrim fonetik farqlarni hisobga olmaganda, ular adabiy tilga xos so‘z bilan birga ishlatilib, shevalararo bir xil ma’noni bildirib keladi. Bunday lingvistik hodisalarni xaritalashtirishda makon-zamon tushunchasini inobatga olib, hududlardagi sheva zonalarining leksik o‘zaro ta’siri, ular o‘rtasidagi o‘xshashlikning tarixiy asoslarini o‘rganish ham kerak bo‘ladi. Masalan: Ushbu jadvalda berilgan Buxoro, Samarcand, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy, Toshkent shevalari zonalarining leksik o‘zaro ta’sirini mazkur hududlardan to‘plangan faktik materiallar asosida ularning ba’zi hududlari bo‘yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin. (Murodova N. 2006).

<b>№</b>	<b>Hudud shevalari</b>	<b>Leksik birlikning nomlanishi</b>
<b>Bemalol, xotirjam</b>		
1.	Xorazm viloyati	ərqaýın // arqayin
2.	Qashqadaryo viloyati	Arqayin
3.	Buxoro viloyati	Arqayin
4.	Navoiy viloyati	ərqey'n
<b>Obdasta</b>		
1.	Buxoro viloyati	oftəba
2.	Jizzax viloyati	əptəvə
3.	Qashqadaryo viloyati	əptovə
4.	Surxandaryo viloyati	oftobə
5.	Navoiy viloyati	əptəvə
<b>Topilmaydigan, nodir (narsa), anqoning urug'i</b>		
1.	Toshkent viloyati	ənz'rət
2.	Qashqadaryo viloyati	ənz (i) rət
3.	Samarqand viloyati	ənz'rət
4.	Navoiy viloyati	ənz'rət
<b>Ehtiyot</b>		
1.	Buxoro viloyati	bəxəvor
2.	Jizzax viloyati	bəxəvər // bəxəvər – baxavər // baxavar
3.	Qashqadaryo viloyati	bəxəvər // bəxəvər – baxavər // baxavar
4.	Navoiy viloyati	bəxəvər // bəxəvər – baxavər // baxavar
5.	Samarqand viloyati	bəxəvər
<b>Quritilgan o'rik</b>		
1.	Buxoro viloyati	g'o'lung // g'ul'ng
2.	Samarqand viloyati	G'ul'n
3.	Navoiy viloyati	G'ul'n
4.	Xorazm Bog'ot viloyati	G'ulun
5.	Qashqadaryo viloyati	G'olun
<b>Qozon sochiq</b>		
1.	Qashqadaryo viloyati	dəsmol
2.	Jizzax viloyati	dəsmol
3.	Navoiy viloyati	dəsmol
4.	Urganch, Xiva, Hazorasp shaharlari	Dasmal
5.	Samarqand viloyati	Dasmal

<b>Ho'l o'rik</b>		
1.	Buxoro viloyati	zardəlu//zaldər'
2.	Qashqadaryo viloyati	Zardali
3.	Samarqand viloyati	Zardali
4.	Surxandaryo viloyati	Zardali
5.	Navoiy viloyati	zəldər'//zardali
<b>Shovqin-suron</b>		
1.	Buxoro viloyati	'zz' – chuv
2.	Navoiy viloyati	'zz' – chuv
3.	Qashqadaryo viloyati	izzi – chuv
4.	Samarqand viloyati	'zz' – chuv
<b>Qormoq (xamir)</b>		
1.	Jizzax viloyati	Yug'urmoq
2.	Qashqadaryo viloyati	Yug'urmoq
3.	Navoiy viloyati	Yug'urmoq
4.	Samarqand viloyati	Yog''rmoq
5.	Buxoro viloyati	Yog''rmoq
<b>Qovoq</b>		
1.	Samarqand viloyati	kadu//kad'
2.	Buxoro viloyati	kadu//kad'
3.	Jizzax viloyati	kadu//kad'
4.	Navoiy viloyati va Navoiy shahri	kadu//kad'
5.	Qashqadaryo viloyati	kəd'
6.	Surxandaryo viloyati	kadı//kadu
7.	Xorazm viloyati	kədi
<b>Kir ko'taradigan, tez kir bo'lmaydigan material</b>		
1.	Buxoro viloyati	k'rch'mol
2.	Navoiy viloyati	k'rch'mol
3.	Samarqand viloyati	K'rch'mol
4.	Jizzax viloyati	K'rch'mol
<b>O'rta va keksa yoshdag'i xotinlar kiyadigan boshkiyim</b>		
1.	Qashqadaryo viloyati	kultəposhək
2.	Buxoro viloyati	kultəposhək
3.	Navoiy viloyati	kultəposhək
4.	Samarqand viloyati	kultəposhək
<b>Chakich</b>		
1.	Buxoro viloyati	nənpar
2.	Navoiy viloyati	nənpar

3.	Qashqadaryo viloyati	nəmpər
4.	Samarqand viloyati	nənpər

Tarixiy manbalarga asoslanib, mazkur hududlardan Buxoro va Xiva ikkita dialekt zonalari hududlari qadimdan karvon yo'llari orqali bog'langanligini aytish mumkin. Bu ikkita dialekt zonalari hududlarining uzliksizligini belgilaydi. Buxoro va Xiva o'rtasidagi savdo aloqalari to'g'risida I.I.Demezon shunday ma'lumotlarni keltiradi: Xivadan juda ko'p ot, buqa va tuya terilari olinadi; yarim ipak chiziqli gazlamalar, Buxoro fabrikalarida ishlab chiqarilgan gazlamalar kabi yupqa emas, balki ancha bardoshli va amaliy, ularni qirg'izlar va xitoylar bajonidil sotib oladilar; Buxorodan Xivaga sifatli olmalar, ko'p miqdorda indigo, ko'k choy va ayniqsa, tamaki, quritilgan mevalar, ipak belbog'lar, ipak va paxta matolari, shakar xom ashyosi va boshqa narsalar eksport qilinadi. Ipak, guruch, jugari va juda ko'p bug'doy bilan tikilgan paxta ro'mollari ham sotiladi. Mazkur hududlar shevalaridagi sohaviy so'zlarning o'xshashligi ular o'rtasidagi aloqalarning natijasi deb baholash mumkin. Bunday ma'lumotlardan lingvistik hodisalarning lingvo-areali to'g'risida xulosalar chiqarsa bo'ladi. Yoki yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan hudud shevalarining o'xshashli sabablari ularning hududiy jihatdan yaqin bo'lganligidadir.



Dialektal so‘zlarni areal o‘rganish ayrim so‘zlarning qadimdan bizgacha qanday tovush o‘zgarishlar bilan yetib kelganini, tilimizning tarixini bilishimiz uchun, lingvistik hodisalarining areal tarqalishidagi sabab mohiyatini aniqlash uchun zarur. Shuningdek, o‘zbek xalq shevalari bo‘yicha atlashlashning aniq tematik yo‘nalishlarini aniqlash, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi massivni to‘g‘ri shakllantirish, keyingi lingvo-areal paradigmaga o‘tish – makon-zamon tushunchasi maqsadlarni belgilash va amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Zamonaviy tilshunoslikning yangi paradigmaiga o‘tishda yuqorida keltirilgan bir qancha muammolar ustida ishlash ham talab qilinadi. Buning uchun har bir dialekt zonasasi va azonal hudud uchun dialekt-lingvistik to‘plam zarur bo‘ladi. Ular asosidagi chuqur ilmiy tahlillar amalga oshirilishi areal lingvistikaning rivojlanishiga olib keladi.

## AREAL TILSHUNOSLIKNING TUSHUNCHAVIY TERMINOLOGIK APPARATI

**Adstrat** – lotincha “ad” – birga, yonida va “strata” – qatlam ma’nolaridagi so‘zlardan olingan bo‘lib, turli xalqlarning uzoq muddatli lingvistik aloqalari tufayli bir tilning ikkinchisiga ta’siri.

**Azonal hududlar** – bu shahar dialektlari, lingvistik massivning bo‘laklari bo‘lib, ularda biron bir lahja fokus rolini bajarmaydi.

**Analitik karta** – bu kartada shartli belgilar sistemasiga, simvollarga suyaniladi va bir- biridan farqlanadigan belgilarning kelib chiqishi taxmin qilinadi.

**Aralash zona** – bir til yoki dialekt ichida boshqa til yoki dialekt elementlarining mavjud bo‘lishi. O‘zbek shevalarida tojik tili elementlari aralashgan zonalarning O‘zbekiston va Tojikiston hududida barqarorligi aralash zona sanaladi.

**Areal** – lotincha “area” – hudud, maydon so‘zlari ma’nosidan olingan.

**Arealogenez** – zamonaviy dialektal va lingvistik jarayonlarning borishini, iloji bo‘lsa, til tarixi ma’lumotlarini o‘rganish asosida muayyan turdagи hududning shakllanishi uchun shart sharoitlarni hisobga olish.

**Arealogizatsiya** – lingvistik makonning tuzilishini tushunish uchun ishlataladigan kartografik modellashtirishning bir turi.

**Arealogiya** (lot. are – maydon, hudud otdan yasalgan sifatning yunoncha logikos – so‘z, tushuncha, ta’lim so‘zi bilan birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z) ma’lum bir hududda ma’lum bir hodisalarning (o‘simplik, hayvonot, yer qatlami, yer osti va yer usti boyliklari, aholi hamda ularning tili va boshqalar) tarqalish xususiyatlarini o‘rganishga oid fan bo‘lib, bir necha fanlarda (jumladan, botaniqa, zoologiya, geologiya, etnografiya, filologiya va boshqalar) arealogik yo‘nalish shaklida mavjuddir. Shuning uchun muayyan fanlarda bu tushuncha (areal lingvistika (tilshunoslik), areal botaniqa, areal geologiya va boshqalar) o‘z aksini topgan.

**Arealogiya** – “tilshunoslikning lingvistik sohalarni o‘rganuvchi mustaqil tarmog‘i” hududiy tilshunoslik fani (Borodina. 1980: 9);

**Areal lingvistika** – lotincha “area” – hudud, maydon va “lingvistik”-tilshunoslik so‘zлari ma’nosidan olingen bo‘lib, lingvistik metodlari orqali til hodisalarining tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni o‘rganadigan tilshunoslik tarmog‘i.

**Areallar dinamikasi** – ma’lum hududdagi tarixiy-lingvistik qatlamlarning xronologiyasi, taraqqiyot bosqichlari.

**Arealogiya manbalari** – “1) lingvistik xaritalar va atlaslar. 2) har qanday vaqt va mahalliylashtirilgan ma’lumotlaridir. 3) ekstralolingvistik vaziyat”. (Borodina. 1980: 24)

**Areal-tipologik metod** – areallar tiplari, turlari bo‘yicha alohida regionlarga bo‘lib tekshirish.

**Artikulatsiya** – lotincha “artisulo” – a’zolarga ajrataman so‘zidan olingen bo‘lib, fonetikada muayyan nutq tovushlarining talafuzida ayrim nutq a’zolarining talaffuzida ayrim nutq a’zolarining ishlatilish darajasini anglatadi.

**Bilingvizm** – ikki tillilik ma’nosini anglatadi. Lotincha “bi“ - ikki va “lingua” - til so‘zlaridan olingen. Areal lingvistikada ikki til izoglossalarining baravar uchrashi.

**Dizyunktiv areal/maydon** – bitta uzlusiz hududni bosqichma-bosqich yo‘q qilish bosqichlaridan birini ifodalaydi.

**Dialekt-**“dialekt”xalqaro atama bo‘lib, lotincha“dialektos”so‘zidan olingen “mahalliy til” “degan ma’noni bildiradi.

**Dialektologiya** – Dialektologiya (grekcha dialektos – sheva so‘zidan) tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, u biror tilning mavjud dialektlarini, ya’ni mahalliy lahja va shevalarini o‘rgatadi. O‘zbek dialektologiyasi fani O‘zbekiston teritoriyasidagi va qardosh respublikalardagi (Qozoqiston, Qиргизистон, Tojikiston, Turkmaniston, Qoraqalpog‘istondagi) O‘zbek tilining turli dialekt, lahja va shevalarini tekshiradi. Obyektni o‘rganish jihatidan dialektologiya ikki turlidir:

1. **Tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya** mahalliy lahja va ievalarga xos fonetik va leksik-gramatik xususiyatlarini qayd qilish bilan chegaralanadi.

**2. Tarixiy dialektologiya** esa, tilning dialektal xususiyatlari bilan birga, shu xususiyatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, turli davralarda o‘zgarishi, qardosh tillar bilan munosabati va shu shevaning tashkil topishida boshqa tillarning ishtirokini aniqlash kabilarni ham o‘rganadi, lahja va shevalarni lingvo-geografik usullar bilan o‘rganish ham birinchi navbatda tarihiy maqsadlarni ko‘zda tutadi.

**Dialektologiyaning manbalari** – 1)mahaliy aholi nutqi; 2) yodgorliklarda mahalliy nutqning fiksatsiyasi” (Borodina, 1980: 24).

**Dialekt zonasi** – u yoki bu tarixiy va etnografik hududga ko‘proq yoki kamroq to‘g‘ri keladigan markaz bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi turli xil dialektlarning doimiy to‘plami. Til tizimini ifodalaydi.

**Dialekt zonalari zanjiri** – o‘zaro ta’sir va o‘zaro moslashish natijasida dialekt zonalari zanjirga birlashishi mumkin – dialekt zonalarining o‘ziga xos assotsiatsiyasi.

**Dialekt zonalarining chegaralari** – dialekt zonalarining chegara effekti bilan bog‘liq chegaralar. Dialekt zonalarining chegara effektini tushuntirish uchun teng huquqli va bir-birini inkor etmaydigan ikkita gipotezani ilgari surish mumkin: 1) reliktlar gipotezasi; 2) neoplazmagipotezasi. Ikkalasi ham dialekt zonasi evolyutsiyasi va uning hududiy darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslanadi. Absolyutizatsiya. Ulardan biri noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. (A.Djurayev. 1991: 190)

**Intensial taksonning chegaralari** – muayyan dialekt – lingvistik hodisalarning tarqalishi bilan bog‘liq chegaralardir.

**Ekstensional taksonning chegaralari** – ma’muriy – hududiy yoki fizik-geografik chegaralar bilan belgilanadigan chegaralardir.

**Diaxron tavsiflash** – tillarni yoki dialektlarning lingvistik xususiyatlarini tarixiy nuqtayi nazardan tavsiflash.

**Diaxronik markaz** – ayrim bir xodisaning ma’lum bir hududda shakllanganligi va shu hududdan boshqa o‘lkalarga tarqalganligi tushuniladi.

**Diftong** – ushbu termin lotincha “di” - ikki baravar, “phtongos” - ovoz, tovush so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Ikki tovushdan tarkib topgan unlining bir

bo‘g‘inda kelishi. Shunga ko‘ra bir tovushga yaxlitlanuvchi unli (diftonglar), asosan, a/o; u/o‘; i/e unlilarining yaxlitlanishida ko‘rinadi.

**Ekoton** – dialekt zonalari orasidagi o‘tish zonasasi.

**Fokus nuqta** – zonadagi maxsus lingvo-areal markaz yoki zonaning asosiy qismi, yirik shahar dialekти.

**Izoglossa** – arealogik tadqiqotning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, o‘zaro o‘xshash hodisa (qonuniyat)ning tarqalish (qo‘llanish) nuqtalarini va bu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqni hamda hodisaning tarqalish chegaralarini xaritada belgilovchi chiziq yoki belgi.

**Izoleksa** – leksik izoglossa.

**Izomorfa** – morfologik izoglossa.

**Izosintagma** – sintaktik izoglossa.

**Izofona** – fonetik (izoglossa) – turli sheva va lajhalar uchun umumiylilik kasb etuvchi tovushlar(fonemalar)ning qo‘llanish areallari nazarda tutiladi.

Areal lingvistik tadqiqotlarningo‘ziga xos maqsadlaridan biri lisoniy hodisa (qonuniyat)larning qaerda shakllanganligi, vujudga kelganligini va uning tarqalish yo‘llarini aniqlashdir. Shuning uchun arealogiyaning muhim tushunchalaridan biri markaz va chekkadir.

**Irradiatsiya** – ma’lum bir hodisaning undan chekkalarga tarqalishi.

**Konservativ areal** – “ma’lum bir tilning arxaik xususiyatlari saqlanib qolgan hudud” (Axanova. 1966: 53).

**Lateral areal** – lateral maydon (periferik) yoki chekka maydon bilan bir xil. “Bu izoglosslar kamroq talaffuz qilinadigan hudud” (Axanova. 1966: 53).

**Lingvo-areal tadqiqot usullari** – bu makon-zamonda tilni o‘rganish usullari.

**Lingvoareal jarayonlar** – lingvoareal taksonlar tarkibida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar.

**Lingvistik geografiya** – Tillarning tasnifi jarayonidagi geografik tushunchalar (tillarning tarqalishi va qo‘llanish hududlari). Uning eng muhim hususiyatlaridan biri ko‘rgazmaliligi bo‘lib, unda ma’lum til hodisalarining o‘rni

va tarqalish chegarasi kartalar yoki atlas vositasida aniq belgilab beriladi. Karta ham, atlas ham lingvistik geografiyaning ifoda vositasi bo‘lib, unung asosiy maqsadi tilning taraqqiyot qonuniyatlarini va yo‘llarini, konkret dialektlarning paydo bo‘lishi va hozir mavjudligining sabablarini, shuningdek, dialekt xususiyatlarining milliy tilga bo‘lgan munosabati va o‘zaro aloqasi masalalarini umumlingvistik muammolarini, ya’ni tilda lahja, dialekt, shevalar mavjud bo‘lsa, ularning xususiyatlari va bu xususiyatlar nimalari bilan chegaralanishi, dialektlarning umummilliy tilga bo‘lgan munosabati va shu kabi masalalarni hal qiladi.

**Lingvoareal kadastr** – muayyan takson doirasidagi dialekt-lingvistik hodisalarning sifat va miqdoriy hisobi , hududiy bahosini aks ettiruvchi jadval.

**Lingvistik landshaft** – bu ma’lum bir til uchun aniqlangan izoglossalarning yig‘indisi va ularning til hududida joylashishi.

**Lingvoareal taksonlar evolyutsiyasi** – diskret munosabatlarning uzluksiz va aksincha o‘zgarishining uzluksiz va ziddiyatlijarayonidir.

**Madaniy areal** – kiritilgan adabiy nutq hududi bilan chegaralangan hudud. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi massivda areal tez-tez markazlashtirilgan nuqtalarda kuzatilishi mumkin.

**Marginal areal** – markaziy hududga qarshi turadi. Ayni paytda u qo‘shni hududlarga qarama-qarshidir (Borodina. 1977: 113).

**Radiatsiya** – ma’lum bir hodisaning mujassamlashishi, bir markazga yig‘ilishi.

**Region/Mintaqa** – bu ma’lum bir lisoniy makon ichida lingvistik massivlarning tarixan joylashuvi. Masalan, turkiy til makonining Markaziy Osiyo mintaqasi yoki turkiy til makonining Kavkaz mintaqasi.

**Singarmonizm** – so‘zning o‘zagidagi unli va undoshlarga qo‘shimchalardagi unli undosh fonemalarning kontakt va distant usulida moslashishi, uyg‘unlashishi.

**Sinxronik markaz** – ma’lum bir hodisaning keng tarqalgan va katta hududni o‘z ichiga olgan mintaqa tushuniladi.

**Takson** – muayyan sharoitlarda (geografik joylashuvi, atrof muhitga ta’siri, rivojlanish tarixi va boshqalar) shakllangan dialekt-lingvistik majmua. Kengaytirilgan ma’nosida takson hududiy hajmga kiritilishi lozim bo‘lgan barcha ob’ektlarni ko‘rsatib o‘tish orqali beriladi. Masalan, O‘rta Osiyo mintaqasi takson sifatida bir qancha til massivlarini o‘z ichiga oladi, jumladan, o‘zbek tili massivi, dialekt zonalari, azonal hududlari va boshqalar kiradi.

**Til birlashmalari** – bu”sintaktik va morfologik tuzilishda katta o‘xshashliklarni, shuningdek, madaniy lug‘at sohasidagi tasodiflarni va qo‘srimcha ravishda tovush tarkibidagi o‘xshashliklarni ko‘rsatadigan tillardan tashkil topgan guruhlar, lekin ayni paytda vaqt hech qanday tizimli, mustahkam muvofiqliklarga ega emas. Morfologik elementlarning tovush tuzilishida tasodif va asosiy lug‘atda umumiyligi yo‘q” (Trubeskoy. 1987: 29);

- “Odatda bir xil hududda joylashgan va tilning turli sohalarida o‘zini namoyon qiladigan umumiyligi tipologik xususiyatlarga ega bo‘lmagan tillar to‘plami” (Gadjiyeva. 1976: 166).

**Turkiy tillarda labial garmoniya** qo‘srimchalardagi keng (“a”, “e”) unlilarning singarmonizm ta’sirida lablangan (“u”, “o”) singarmonistik variantlariga ega bo‘lishi.


Fonetik hodisalarning mohiyatan **progressiv distant assimlyatsiya** turiga kiradigan singarmonizm (so‘zning o‘zgidagi unli va undoshlarga qo‘srimchalardagi unli va undosh fonemalarning kontakt va distant usulida moslashishi, uyg‘unlashishi) barcha turkiyshunoslarning yakdilona fikriga ko‘ra turkiy tillarning zotiy (ontologik, tabiatan xos) fonetik hodisasiadir. Turkiy tillarda **singarmonizmning unlilar garmoniyasi va undoshlar garmoniyasi** kabi ikki asosiy turi ajratilib, undoshlar garmoniyasi o‘z davri til oldi undoshlar garmoniyasi va til orqa undoshlar garmoniyasiga, unlilar garmoniyasi esa palatal-velyar hamda labial garmoniyalarga bo‘ysunadi.


**Yalpi areal** – uni bo‘laklarga bo‘lish uchun hech qanday to‘siqlar bo‘lmagan maydon.


**Chekkachokli areal** – bu ikki til hududining tutashgan joyida joylashgan hudud, “bundan tashqari, bu ikki til hududi ikki xil bo‘lishi mumkin:a)ikkita turdosh til yoki dialektga tegishli; ikkinchisi nolga teng bo‘lishi mumkin” (Babinchuk. 1977: 127).


**Chekka qirg‘oq areali** – bir tomondan, nol qarama-qarshilikka ega bo‘lgan hudud; bir tomoni uning lingvistik hududiga tutashgan hudud, ikkinchisi esa dengiz qirg‘og‘i bilan chegaralangan. “Masalan, Norman dialekti va Gallo-Fransuz dialekti, Ispaniya shimolidagi Asturiya va Galitsiya dialektlari, Janubiy Italiyadagi Kalabriya va Apuliya dialektlari” (Babinchuk. 1977: 127).

- “Rivojlanish dinamikasini (tarixni) aks ettiruvchi hodisalarning makonda joylashuvi qonuniyatlarini aniqlash” bilan shug‘ullanadigan hududiy tilshunoslik fani (Borodina. 1980: 24.), - bir xil, arealogik tilshunoslik (Borodina.1980: 21);
- “Areal tilshunoslik bilan bir xil” (qarang. Xolikova. 1987: 59-61);
- “hududiy tilshunoslikning ilg‘or bosqichi bo‘lib,bu bosqichda dialektologiya va geografiya materiallarini ko‘rib chiqish bilan bir qatorda hududiylashtirish ma’lumotlaridan foydalanish fanning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.











**ХАРИТА №6**


### Зарифсон воҳаси ўзбек шеваларининг ҳаритаси


Чакич лексемасининг ареал тарқалиши


▲ нонпар  
● холзанак /чуприч  
○ радида  
● пирчук  
○ нахсонаик  
● тикич  
○ чакич


























караткы келишиги шакларининг диалектал күринишлари

M 1:4 500 000 (1 cm - 4,5 km)

## **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati:**

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент, 1961. – 346 б.
2. Абдуллаев Ф. Фонетика хорезмских говоров. – Тошкент, 1967. – 248 б.
3. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент, 1978. – 144 б.
4. Абдураҳмонов Д. Ўзбек шевалари морфологиясининг ўрганилиши // Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент, 1984. 248–271 б.
5. Аванесов Р.И. Очерки русской диалектологии. – Москва, 1949. Ч. 1. – 336 с.
6. Аванесов Р.И. Выступление по докладам // Вопросы диалектологии тюрских языков. – Баку, 1958. – С. 139–141.
7. Азнабаев А.М., Псянчин В.Ш. Историческая грамматика башкирского языка. – Уфа, 1983. – 496 с.
8. Айдаров Т. Лингвистикалык география. – Алматы, 1977. – 144 б.
9. Алиев А. Ўзбек диалектологиясидан материаллар (Наманган шевалари). – Тошкент, 1974. – 218 б.
10. Аразкулиев С. Туркмен диалинин фарап диалектинде лексика-фонетик айратынылышлар // Известия АН Туркменской ССР: тсерия общественных наук. 1987. № 2. – С. 57–61.
11. Бах А. Немецкая диалектология // немецкая диалектография. – Москва, 1955. – С. 92–149.
12. Баталова Р.М. Реальные исследования по восточным финно-угорским языкам (коми языка). – Москва, 1982, – 167 с.
13. Батманов И.А. Вопросы классификации узбекских говоров // Проблемы языка. – Ташкент, 1934. – С. 5–40.
14. Благова Г.Ф. О несходствах типологически подобных ареалов (-иш- как показатель множественности в среднеазиатских тюрских говорах) //Ареальные исследования в языкоznании и этнографии. – Ленинград, 1977. – С. 83–91.

15. Благова Г.Ф. Об ареальных системно-тематических исследованиях по грамматике тюркских языков // Советская тюркология. – Ленинград, 1978. № 1. – С. 8–28.
16. Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-исторической освещении (юговосточный). – Ленинград, 1977. – С. 83–91.
17. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. В 2 т. – Москва, 1963, Т. I. – 384 с.
18. Боровков А.К. К характеристике узбекских «умлаутных» или «уйгуранизованных» говоров // Белек С.Е. Малову. – Фрунзе, 1946. – С. 29–30.
19. Боровков А. К. Таджикско-узбекское двуязычие и вопрос о взаимовлиянии таджикского и узбекского языков // Ученые записки Института востоковедения АН СССР. – Москва, 1952<sub>1</sub>. Т. IV. – С. 165–200.
20. Боровков А.К. Вопросы классификации узбекских говоров // Известия АН Узбекской ССР. 1953. № 5. – С. 58–73.
21. Боровков А.К. Узбекские говоры Намаганской области // Труды ТашГУим. В.И.Ленина. – Ташкент, 1963<sub>1</sub>. Вып. 211. – С. 33.
- 22.Бородина М.А. Проблемы лингвистической географии. – Москва, Л., 1996. – 220 с.
23. Бородина М.А. О типологии ареальных исследований // Проблемы картографирования в языкознании и этнографии. – Ленинград, 1974. С. 44–54.
24. Бородина М.А. Понятие маргинального ареала в лингвистическом континууме // Ареальные исследования в языкознании и этнографии. – Ленинград, 1977. – С. 108–118.
25. Бородина М.А. Предисловие // Народы и языки Сибири: а реальные исследования. – Москва, 1978. – С. 3–6.
26. Бородина М.А., Гущина Л.Г. (рец.на) «Les Francais regionax» // Вопросы языкознания. 1979. № 6. – С. 135–138.
27. Бородина М.А. Развитие ареальных исследований и основные типы ареалов // Взаимодействие лингвистических ареалов: Теория, методика и источники исследования. – Ленинград, 1980<sub>1</sub>. – С. 7–36.
28. Бородина М.А. Лингвистическая география и ее значение для исследования тюркских языков // Проблемы современной тюркологии: материалы II Всесоюзной тюркологической конференции. – Алма-Ата, 1980<sub>2</sub>. – С. 94–99.

29. Бородина М.А. Заключение // Взаимодействие лингвистических ареалов: Теория, методика и источники исследования. – Ленинград, 1980. – С. 244–254.
30. Бородина М.А. Проблема лингвистического пространства в связи с изучением диалектов и их атласированием // Советская тюркология. 1983. №4. – С. 74–78.
31. Бородина М.А. О понятиях «диалектология», «лингвистическая география», «ареалогия», и «ареальные исследования» // Типы языковых общностей и методы их изучения: тезисы: – Москва, 1984. – С. 20–22.
32. Бромлей Ю.В. Этнос и этнография. – Москва, 1973. – 283 с.
33. Бунге В. Теоретическая география. – Москва, 1967. – 280 с.
34. Вопросы ареальной лингвистики и этнографии. – Уфа, 1987. – 138 с.
35. Гаджиева Б.И. Изоглоссы временных форм в тюркоязычном ареале Кавказа: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1988. – 18 с.
36. Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики: Среднеазиатский ареал. – Москва, 1975. – 303 с.
37. Гаджиева Н.З. Принципы ареального описания языков // Принципы описания языков мира. – Москва, 1976. – С. 164–202.
38. Гаджиева Н. З. Тюркоязычные ареалы Кавказа. – Москва, 1979. – 263 с.
39. Гаджиева Н. З. Проблемы ареальной лингвистики (на материале языков народов СССР) // Вопросы языкознания. 1984. № 2. – С. 47–60.
40. Гарипов Т.М. Кыпчакские языки Урало-Поволжья: опыт синхронической и диахронической характеристики. – Москва, 1979. – 304 с.
41. Гарипов Т.М., Кузеев Р.Г. Волго-уральский регион культурно-языкового взаимодействия уральских и алтайских этносов // Урало-алтайстика: археология, этнография, язык. – Новосибирск, 1985. – С. 107–113.
42. Гафурова Н.С. Ниязбашинский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1962. – 20 с.
43. Герценберг Л.Т. Ареальные методы и индоевропейское языкознание // Проблемы картографирования в языкознании и этнографии. – Ленинград, 1974. – С. 136–141.
44. Головин Б.Н. Введение в языкознание. – Москва, 1983. – 231 с.

45. Губанов В.А., Захаров В.В., Коваленко А.Н. Введение в системный анализ. – Ленинград, 1988. – 228 с.
46. Гуелке Л. Картографическая коммуникация и географическое мышление // Картография. – Москва, 1983. Вып. 2. – С. 37–50.
47. Данияров Х. Бахмальский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1955. – 15 с.
48. Данияров Х., Кунгурев Х. Некоторые вопросы лингвистической географии в Узбекистане // Тезисы докладов на IV региональном совещании по диалектологии тюркских языков. – Фрунзе, 1963. – С. 10–14.
49. Данияров Х. Опыт изучения джекающих диалектов в сравнении с узбекским литературным языком. – Ташкент, 1975. – 240 с.
50. Десницкая А.В. К вопросу о предмете и методах ареальной лингвистики // Ареальные исследования в языкоизнании и этнографии. – Ленинград, 1977. – С. 22–29.
51. Джуманазаров Ю. Морфологические особенности Хазораспского говора узбекского языка: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – 23 с.
52. Джураев А.Б. Морфология узбекских говоров верхней Кашкадары в ареальном освещении: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 1986. – 16 с.
53. Джураев А.Б. Морфология узбекских говоров верхней Кашкадары в ареальном освещении: Дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 1986<sub>1</sub>. – 237 с.
54. Джураев А.Б. Элемент ким – в неопределенных местоимениях узбекских говоров самарканцко-бухарского типа // Коммуникативные аспекты исследования языка. – Москва, 1986<sub>2</sub>. № 1. – С. 140–146.
55. Джураев А.Б. Ареалогия и исследование узбекских народных говоров // Советская тюркология. 1987<sub>1</sub>. № 1. – С. 45–51.
56. Джураев А.Б. Методологические регулятивы тюркской ареальной лингвистики и внутренняя совокупность методов на разных этапах ее развития // Типы коммуникации и содержательный аспект языка. – Москва, 1987<sub>2</sub>. – С. 96–103.

57. Джураев А.Б. Теоретические вопросы ареальной лингвистики // Актуальные вопросы развития науки и техники в Узбекстане: тезисы докладов научной конференции молодых ученых и специалистов АН Уз ССР. – Ташкент, 1987<sub>3</sub>. – С. 99.
58. Джураев А.Б. Ареальная лингвистика: сущность и структура // Советская тюркология. 1988. № 6. – С. 21–27.
59. Джураев Б. Шахрисябзский говор узбекского языка: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 1959. – 24 с.
60. Джураев Б. Шахрисябзский говор узбекского языка (фонетико-морфологический очерк). – Ташкент, 1964. – 202 с.
61. Джураев Б. О состоянии составления диалектологического атласа узбекского языка // Пятое совещание по вопросам диалектологии тюркских языков: тезисы докладов. – Баку, 1965. – С. 15–16.
62. Джураев Г. Говоры таджикоязычных арабов: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Тбилиси, 1969. – 26 с.
63. Джураев Х. Фонетико-морфологические и лексические особенности узбекских говоров, носящих этническое название “турк-калтатой” (по материалам Самаркандинской, Джизакской и Сырдарьинской областей УзССР): Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ашхабад, 1975. – 25 с.
64. Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ лиалектлари. – Тошкент, 1973. – 140 б.
65. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент, 1979. – 158 б.
66. Дониёров Х. Йўлдошев Б. Адабый тил ва бадиий стиль. – Тошкент. 1988. – 208 б.
67. Жирмунский В.М. Немецкая диалектология. Москва, – Ленинград, 1956. 636 с.
68. Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание // Избранные труды. – Ленинград, 1976. – 694 с.
69. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент, 1969. – 168 б.

70. Ибрагимов Й. Морфология ходжелийско-кунградских говоров узбекского языка: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1974. – 33 с.
71. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг андижон шеваси. – Тошкент, 1967. – 260 б.
72. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент, 1977. – 176 б.
73. Корш Ф. Е. Происхождение формы настоящего времени в западно-турецких языках //Древности восточные: Труды восточной комиссии Императорского Московского Археологического общества. – Москва, 1907. Т. III. Вып. I. – С. 1–22.
74. Кошғарий М.Туркий сўзлар луғати (Девону луғатит турк). – Тошкент, 1960.Т.І. – 499 б.
75. Ларин Б.А. О лингвистическом изучении города // Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. – Москва, 1977<sub>1</sub>. – С. 175–189.
- 76.Ларин Б.А.К лингвистической характеристики города (несколько предпосылок) // Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. – Москва, 1977<sub>2</sub>. – С. 189–199.
77. Макаев Э.А. Проблемы индоевропейской ареальной лингвистики. – Москва, Ленинград, 1964. – 59 с.
78. Максютова Н.Х. Лингвогеографическое изучение башкирского языка // Проблемы диалектологии и лингвогеографии тюркских языков. – Уфа, 1986. – С. 4–14.
79. Мартаноол М.Б. Фонетические особенности тувинского языка в ареальном освещении (южная Сибирь): Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 1971. – 28 с.
80. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – Москва, 1977. – 253 с.
81. Мирзаев М. Бухоро ўзбек ва тожик шеваларининг ўзаро муносабати тўғрисида // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1961. Т. II. – 162–177 б.
82. Мирзаев М. Бухарская группа говоров узбекского языка: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 68 с.

83. Мураховская О.Н. К разграничению понятий, связанных с терминами “диалектология”, “лингвогеография” и “ареальная лингвистика” // Типы языковых общностей и методы их изучения: тезисы. – Москва, 1984. – С. 104-106.
84. Мұҳамаджонов К. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари (қорлук ва қипчоқ тип шева материаллари асосида). – Тошкент, 1981. – 179 б.
85. Мухамеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 44 с.
86. Назаров К., Каримова Л. Шимолий ўзбек шеваларининг ўрганилишига доир // Общественные науки в Узбекстане. 1969. № 10. – Б. 50-54.
87. Немировский М.Я. Лингвистическая география и ее значение // Известия Горского педагогического института. – Владикавказ, 1926. Т.III. – С. 235–248.
88. Нельматов X. -га, -да келишик қўшимчаларининг функционал алмасинишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1973. № 4. – Б. 44–46.
89. Никонов В.А. Карта – не иллюстрация // Ареальные исследования в языкоznании и этнографии: тезисы. – Уфа, 1985. – С. 128-129.
90. Пауль Г. Принципы истории языка. – Москва, 1960. – 500 с.
91. Поливанов Е.Д. Образцы не-сингармонических (иранизированных) говоров узбекского языка. Каршинский говор // Доклады АН СССР. – Ленинград 1928. № 5. – С. 92-96.
92. Поливонов Е. Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык ( к современной стадии узбекского языкового строительства). – Ташкент, 1933. – 45 с.
93. Раджабов Н. Морфологическая структура имени и глагола в узбекских народных говорах: Автореф. дис ...докт. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 52 с.
94. Ражабов Н. Ўзбек тилининг Ғарбий Самарқанд шевалари. – Тошкент, 1977. – 171 б.

95. Решетов В.В. К вопросу о взаимоотношениях узбекских и южных киркизских говоров // Труды ИЯЛ АН Киргизской ССР. – Фрунзе, 1956. Вып. IV. – С. 61–63.
96. Решетов В.В. Изучение узбекских народных говоров // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1957, Т. 1. – С. 5–30.
97. Решетов В.В. О диалектологическом атласе узбекского языка // Второе региональное совещание по диалектологии тюркских языков. – Казань, 1958<sub>1</sub>. – С. 16–20.
98. Решетов В.В. Опорный диалект при образовании узбекского национального языка // Вопросы диалектологии тюркских языков. – Баку, 1958<sub>2</sub>. – С. 22–35.
99. Решетов В.В. Узбекский язык. – Ташкент, 1959. Ч. 1. – 359 с.
100. Решетов В.В. Ўзбек шевалари классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. № 1. – Б. 6-10.
101. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978. – 231 б.
102. Сер Али Лапин. Значение и происхождение слова “Сарт” // Туркентские ведомости. 1894. № 38 (72).
103. Серебренников Б.А. О некоторых отличительных признаках Волго-Камского языкового союза // Языковые контакты в Башкирии. – Уфа, 1972. С. 7–17.
104. Серебренников Б.А. Методы лингвогеографических исследований // Общее языкознание: методы лингвистических исследований. – Москва, 1973<sub>1</sub>. – С. 120–167.
105. Серебренников Б.А. Неправильный выбор метода // Общее языкознание: методы лингвистических исследований. – Москва, 1973<sub>2</sub>. – С. 307-308
106. Серебренников Б.А. Общеязыковедческие аспекты теории волн Иоганна Шмидта // Ареальные исследования в языкознании и этнографии. – Ленинград, 1977. – С. 37-56.

107. Солнцев В.М. Ареальние языковые отношения и их место в системе межъязыковых отношений и методы их изучения // Типы языковых общностей и методы их изучения: Тезисы. – Москва, 1984. – С. 132-134.
108. Солнцев В.М. Еще раз о типологии языковых союзов // Ўзбек тили ва адабиети. 1986. № 4. – С. 14-19.
109. Соссюр Ф. Де. Труды по языкознанию. – Москва, 1977. – 695 с.
110. Сочава В.Б. Проблемы физической географии и геоботаника // Избранные труды. – Новосибирск, 1986. – 344 с.
111. Сухачев Н.Л. Лингвистические атласы и карты // Проблемы картографирования в языкознании и этнографии. – Ленинград, 1974. – С. 33–43.
112. Сыдиков С. Орто Азия, Туштук Сибирь турк тилдерин лексикасиндаги ареальдық окшаштуктар жана айырмачылыктар. – Фрунзе, 1984. – 168 б.
113. Толстой Н.И. О соотношении центрального и маргинального ареалов в современной Слави // Ареальные исследования в языкознании и этнографии. – Ленинград, 1977. – С. 37–56.
114. Трубецкой Н.С. Избранные труды по филологии. – Москва, 1987. – 560 с.
115. Турсунов У.Т., Дониёров Х., Ражабов Н. Ўзбек диалектологияси ўз ривожланишининг янги босқичида // А.Навоий номидаги Самарқанд давлат университетининг асарлари. – Самарқанд, 1960. № 102. – Б. 75-98.
116. Шаабдурахмонов Ш. Узбекских литературный язык и узбекские народные говоры: Автореф. дис. ... докт. Филол. наук. – Ташкент, 1963. – 91 с.
117. Шаабдурахмонов Ш. Карлукское наречие узбекского языка. – Ташкент, 1983. – 191 с.
118. Шарадзенидзе Т.С. Родство языков, процессы дивергенции, конвергенции и соответствующие им классификации языков мира: Проблемы родства. – Москва, 1982. – С. 63-107.

119. Шералиев Э. Лексика узбекских говоров Северо-Восточного Таджикистана: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1974. – 32 с.
120. Шерматов А. Узбекские народные говоры Кашкадарьинской области. – Ташкент, 1978. – 144 с.
121. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент, 1981. – 58 б.
122. Шерматов А. Шаабдурахманов Ш. Атлас узбекских народных говоров // Тюркское языкознание: материалы III Всесоюзной конференции. – Ташкент, 1985. – С. 75-77.
123. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ҳалқ шевалари. – Тошкент, 1962. – 372 б.
124. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тилининг диалектологик атласи (диалектологларнинг VI регионал кенгаши олдидан) // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1969. - № 3. – Б. 33–38.
125. Шухрадт Г. Избранные статьи по языкоznанию. – Москва, 1950. – С. 259–276.
126. Эдельман Д.И. Основные вопросы лингвистической географии. – Москва, 1968. – 112 с.
127. Юдин Б.Г. Методологический анализ как направление изучения науки. – Москва, 1986. – 262 с.
128. Юсупов Ф.А. Татарский глагол в ареальном освещении: Автореф. дис. ... докт. Филол. наук. – Москва, 1986. – 41 с.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Balazs I. Az arealis nyelveszite kutatasok to’rtenete, modszerei es fo’bb eredmenyei. Budapest, 1983, 112.
2. Bartoli M. Introduzione alla neolinguistica (principi – scopi-metodi). – Geneva, 1925, 108.
3. Bartoli M. Sagge di linguistica spaziale. – Torino, 1945, 306.
4. Bonfonte G. The neoli nguistic position // Language, 1947. T. 23. 344-375
5. Chambers J., Trudgi 11 P. Dialectology. Cambridge, 1980, 218.

6. Emenau M. Language and Linguistic area. Stanford, 1980, 372.
7. Freudenberg R. Isoglasse. Pragung und Problematic eines sprachwissenschaftlichen Terminus // Zeitschrift fur Mundartforschung. 1966. Vol. 33, 219-232.
8. Mitzka W. Handburch zum Deutschen Sprachatlas. – Marburg, 1952, 180.
9. Radloff W. Phonetik der nordlichen Turkssprachen: Leipgiz, 1883, 318.
10. Schmidt I. Die Verwandtschaftsverhaltnisse der Indogermanischen Sprachen. Weimar, 1872, 68.
11. Trubetzkoy N.S. Reponse a la question // Actes du Preimer Congress International de Linguistes a la Haye du 10-15 Avril 1928. Leidan, 1928, 17-18.
12. Trudgill P. On dialect: social and geographical perspectives. Oxford, 1983, 240.
13. Winter W. Areal Linguistics: some general consideration // Current Trends in Linguistics, 1973. Vol. 11, 135-147.

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-INTRANET. Ped
6. www. nutq. intal. uz

## MUNDARIJA

<b>SO‘ZBOSHI.....</b>	<b>5</b>
<b>MUQADDIMA.....</b>	<b>7</b>
<b>Ushbu darslikda qo‘llanilgan transkripsiya.....</b>	<b>14</b>
<b>1-mavzu. Areal lingvistikaning maqsad va vazifalari.....</b>	<b>17</b>
<b>2-mavzu. Areal lingvistikaning fan sifatida shakllanishi va o‘rganilishi.....</b>	<b>23</b>
<b>3-mavzu. Areal lingvistikaning tadqiq metodi va tadqiq manbai.....</b>	<b>29</b>
<b>4-mavzu. Umumiy va taksonomik areal lingvistika.....</b>	<b>33</b>
<b>5-mavzu. Izoglossa va uning turlari. lingvistik xaritalarda izoglossalarning berilishi.....</b>	<b>39</b>
<b>6-mavzu. Areal lingvistikaning innovatsion markazi muammosi masalasi.....</b>	<b>51</b>
<b>7-mavzu. Areal lingvistikada markaz, chekka, radiatsiya va irradiatsiya tushunchalari.....</b>	<b>55</b>
<b>8-mavzu. O‘zbek tili massivini dialekt zonalash metodikasi.....</b>	<b>59</b>
<b>9-mavzu. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi massivni dialektal zonalashtirish.....</b>	<b>63</b>
<b>10-mavzu. Dialektal kontinuum: geografik va ijtimoiy dialektal kontinuum.....</b>	<b>73</b>
<b>11-mavzu. Lingvistik geografiya: lingvistik atlas.....</b>	<b>76</b>
<b>12-mavzu. Dialekt sistematikasi.....</b>	<b>86</b>
<b>13-mavzu. Turkiy tillarning areali.....</b>	<b>90</b>
<b>14-mavzu. O‘zbek shevalari lingvistik atlasi.....</b>	<b>100</b>
<b>15-mavzu. Areal lingvistik paradigmaga asoslangan lingvistik xaritalar....</b>	<b>106</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>112</b>
<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>119</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>133</b>

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>ПРЕДИСЛОВИЕ.....</b>	<b>5</b>
Предисловие.....	7
Транскрипция, используемая в этом уроке.....	14
<b>Тема 1. Цели и задачи ареальной лингвистики.....</b>	<b>17</b>
Тема 2. Становление и изучение ареальной лингвистики как науки.....	23
<b>Тема 3. Метод исследования и источник исследования ареальной лингвистики.....</b>	<b>29</b>
Тема 4. Общая и таксономическая ареальная лингвистика.....	33
<b>Тема 5. Изоглосса и ее виды. присвоение изоглосс на лингвистических картах.....</b>	<b>39</b>
Тема 6. Проблема инновационного центра ареальной лингвистики.....	51
<b>Тема 7. Понятия центра, края, излучения и иррадиации в ареальной лингвистике.....</b>	<b>55</b>
<b>Тема 8. Методика диалектного зонирования узбекского языкового массива.....</b>	<b>59</b>
Тема 9. Диалектное зонирование узбекскоязычного массива.....	63
<b>Тема 10. Диалектный континуум: географический и социальный диалектный континуум.....</b>	<b>73</b>
Тема 11. Лингвистическая география: лингвистический атлас.....	76
<b>Тема 12. Диалектная систематика.....</b>	<b>86</b>
Тема 13. Ареал тюркских языков.....	90
Тема 14. Лингвистический атлас узбекских диалектов.....	100
<b>Тема 15. Лингвистические карты на основе ареальной лингвистической парадигмы.....</b>	<b>106</b>
<b>ЗАКЛЮЧЕНИЕ.....</b>	<b>112</b>
<b>ГЛОССАРИЙ.....</b>	<b>119</b>
<b>СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....</b>	<b>133</b>

## CONTENT

<b>PREFACE.....</b>	<b>5</b>
<b>Preface.....</b>	<b>7</b>
<b>The transcription used in this tutorial.....</b>	<b>14</b>
<b>Topic 1. Goals and objectives of areal linguistics.....</b>	<b>17</b>
<b>Topic 2. Formation and study of areal linguistics as a science.....</b>	<b>23</b>
<b>Topic 3. Research method and source of areal linguistics research.....</b>	<b>29</b>
<b>Topic 4. General and taxonomic areal linguistics.....</b>	<b>33</b>
<b>Topic 5. Isoglossa and its types. assignment of isoglosses on linguistic maps..</b>	<b>39</b>
<b>Topic 6. The problem of the innovation center of areal linguistics.....</b>	<b>51</b>
<b>Topic 7. Concepts of center, edge, radiation and irradiation in areal linguistics.....</b>	<b>55</b>
<b>Topic 8. Methodology of dialect zoning of the Uzbek language array.....</b>	<b>59</b>
<b>Topic 9. Dialect zoning of the Uzbek-speaking array.....</b>	<b>63</b>
<b>Topic 10. Dialect continuum: geographical and social dialect continuum.....</b>	<b>73</b>
<b>Topic 11. Linguistic geography: linguistic atlas.....</b>	<b>76</b>
<b>Topic 12. Dialect systematics.....</b>	<b>86</b>
<b>Topic 13. The area of the turkic languages.....</b>	<b>90</b>
<b>Topic 14. Linguistic atlas of Uzbek dialects.....</b>	<b>100</b>
<b>Topic 15. Linguistic maps based on the areal linguistic paradigm.....</b>	<b>106</b>
<b>CONCLUSION.....</b>	<b>112</b>
<b>GLOSSARY.....</b>	<b>119</b>
<b>REFERENCES.....</b>	<b>133</b>

## **QAYDLAR UCHUN**

**N.MURODOVA, N.YARASHOVA**

## **AREAL LINGVISTIKA**

Tasdiqnomalar raqami: №5719

Bosishga ruhsat etildi: 20.04.2023 yil.

Bichimi 60x84 1/16. «PTserif» garniturasi.

Offset bosma usulida chop etildi.

Adadi: 50 nusxa. Buyurtma raqami 20-04/23.

Tel.: 99-070-45-54

«Reliable-Print» MChJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.